



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**MARKAZIY OSIYO DA NOMAD MADANIYATI GENEZISI VA  
TARAQIYOTI**

**fanidan**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha  
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar ta’lim  
Ta’lim yo‘nalishi: 5120300– Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha;  
Markaziy Osiyo xalqlari tarixi)

**Toshkent - 2015**

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2015\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_”-son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Alimova R. – “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida dotsenti t.f.n.

**Taqrizchilar:**

Mansurov O‘ktam - Nizomiy nomli Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti t.f.n., dotsenti.

Ashirov Adxamjon – O‘z RFA Tarix instituti direktorining o‘rinbosari

Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy-metodik kengashida tavsiya qilingan (2015 yil \_\_\_dagi \_\_\_-sonli bayonnoma).

## ANNOTATSIYA

Markaziy Osiyo xalqlari tarixi mintaqa bilan qo'shni hududlar; Janubiy Rus dashtlari, Shimoliy Kavkaz, Shimoli-Sharqiy Xitoy, Tibet, Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Shimoli-Sharqiy Eron xalqlari tarixi bilan chambarchas bog'liq. Shu jumladan, qariyb ming yillar davomida Markaziy Osiyoda nomad madaniyati nomi bilan fanga kirib kelgan ko'chmanchi xalqlarning turmush tarzi, o'ziga xos boshqaruv apparati, xo'jalik tuzumi, ijtimoiy munosabatlari, madaniy va ma'naviy hayoti uzoq tarixiy taraqqiyot davrini boshidan kechirgan. Ushbu tarixiy Mintaqa g'arbda Shimoliy Qora dengiz bo'ylari, Sharqiy Yevropa, Janubiy Rus dashtlari, Janubiy Sibir, Shimoliy Kavkaz, sharqda Oltoy tog'larining sharqiy etaklari, janubda Hindistonning shimoliy hududlarini o'z ichiga olgan etno-geografik hudud bo'lib, bu yerda ko'chmanchilik turmush tarziga ega xalqlar o'troq aholi bilan yonma-yon yashab kelgan. Mazkur hudud bilan bog'liq juda ko'p etno-siyosiy jarayonlar, muhim tarixiy voqealar kechgan bo'lib, ularni o'rganish Markaziy Osiyo xalqlari tarixini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## KIRISH

Oʻrta asrlarda Markaziy Osiyoda roʻy bergan etno-siyosiy jarayonlar markaziy osiyolik turkiy xalqlar, shu jumladan, oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoqlarning etnik shakllanishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Xususan, mazkur hududda istiqomat qilgan koʻp sonli turkiy qabilalar XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyoning janubiy hududlariga koʻchib, bu yerdagi xalqlarning etnik tarkibiga qoʻshimcha komponent boʻlib qoʻshiladilar.

Bu keng mintaqa qadim zamonlardan buyon oʻtroq madaniyat mintaqasi bilan uzviy aloqada boʻlib kelgan. Oʻzaro aloqalar tarixi, nomadik madaniyat bilan dehqonchilik va hunarmandchilik mintaqalari tarixan oʻzaro bir-birini taqoza etib kelgan. Qolaversa, baʼzi hollarda har ikki tomon oʻzaro taqdir hal qilish darajasida muhim munosabatlarga kirishib turgan. Shularni eʼtiborga olib magistraturada Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti tarixi, uning Oʻrta Osiyo bilan aloqalari tarixini oʻqitish muhim va dolzarbdir.

Magistrantlar bu kurs orqali jahon nomadik madaniyatlari tizimida Markaziy Osiyoning muhim oʻrni haqida, bu mintaqaning Markaziy Osiyo iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotidagi oʻrnini bilib oladilar. Kurs davomida soha boʻyicha keng koʻlamli ilmiy adabiyotlar bilan tanishiladi va olingan bilimlarni qoʻllash koʻnikmalari beriladi.

Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti tarixi muammolari xoʻjalik tarixi, siyosiy tarix, mintaqa geografiyasi, madaniyatshunoslik, iqtisodiyot va boshqa fan tarmoqlari bilan aloqadadir.

Shu bois Markaziy Osiyoning mustaqil davlatlari; Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston xalqlari tarixini oʻrganishda, ularning oʻzaro tarixiy ildizlari bir ekanligi haqidagi tasavvurlarni boyitishda mazkur kursni oʻqitish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy maqsad, talabalarga tarixda kam oʻrganilgan mavzu Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Nomad madaniyatining tutgan oʻrni, ijtimoiy-siyosiy va etno-madaniy jarayonlar, davlatchilik anʼanalari hamda mazkur hududdagi etnoslarning

mintaqa xalqlari etnik shakllanishidagi ishtiroki kabi masalalarni o'rganishdan iborat.

Mavzular sharhlanganda hozirgi Markaziy Osiyo, Janubiy Sibir, Mo'g'uliston, Oltoy, Volgabo'ylari, Shimoliy Kavkaz, Shimoliy Qora dengiz bo'ylarida qadimdan istiqomat qilib kelgan xalqlarning muhim bir qismini turkiy etnoslar tashkil qilganligi, ularning Markaziy Osiyo hududidagi jarayonlardagi ishtiroki natijasida hozirgi turkiy xalqlarning asosiy ko'pchiligi etnik jihatdan shakllanganligi alohida ta'kidlanadi.

«Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti» kursi nafaqat Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar, balki O'zbekiston tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Chunki, o'zbek davlatchiligi tarixi, etnogenez va etnik shakllanish tarixida mazkur tarixiy-geografik o'lka xalqlarining alohida o'rni bor. Shu jihatdan olganda, mazkur kursning turkiy xalqlar tarixi, o'zbek davlatchiligi, etnogenez masalalari bilan bog'liq fanlarga bevosita aloqadordir.

## **1-mavzu. Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti fanining maqsad va vazifalari**

**Darsning o‘quv maqsadi:** Markaziy Osiyoda nomad madaniyatining genezisi va taraqqiyoti fanining predmeti ni tushuntirib berish, Markaziy Osiyodagi ko‘chmanchilik turmush tarziga ega xalqlar haqida ma’lumot berish va fanni o‘rganishning tamoyillari hamida maqsad va vazifalari to‘g‘risida talabalarga bilim berish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** nomadlar, nomad madaniyati, nomadizm, tamoyillar, xolislik, tarixiylik, dialektik tamoyil

### **Reja:**

1. Fanning predmeti.
2. Fanni o‘rganishning tamoyillari
3. Fanning o‘rganishning maqsad va vazifalari

Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti fanining predmeti Markaziy Osiyodagi ko‘chmanchilik turmush tarziga ega xalqlar hisoblanadi. Ularning asrlar davomida shakllangan turmush-tarzi, urf-odatlar, madaniy merosining tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilishi katta ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida paydo bo‘lgan barcha xalqlar borki, ular o‘z davrida ko‘chmanchilik hayotini boshdan kechirgan. Shu jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari ham nomad madaniyatiga ega xalqlar hisoblanadi. Shuning uchun ularning madaniyatining paydo bo‘lishi va taraqqiyot dinamiikasini o‘rganish amaliy ahamiyat kasb etadi. Fanni o‘rganishda bir qancha metodologik tamoyillarga tayanmoq kerak. Birinchidan, xolislik va haqqoniylik nuqtai nazaridan masalaga yondoshmoq zarur, sub’ektning rolini nazardan chetda tutish zarur. Ikkinchidan, tarixiylik prinsipi asosiy tamoyillardan hisoblanadi. Ko‘chmanchilar hayotini bir butun jarayon sifatida qarash zarur. Uchinchidan dialektik tamoyil, voqea va hodisalarni bir-birlari bilan uzviylikda ko‘rib chiqish, Markaziy Osiyo

ko'chmanchilarini boshqa mintaqalar bilan bog'liqlik holatlarini nazardan qochirmaslik lozim. Ko'chmanchilar madaniyatini o'rganish Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonni talabalarga xolisona tushuntirib berish, kerakli manba va adabiyotlar bilan qurollantirish, ularda ushbu fan sohasi bo'yicha ko'nikma va tushunchalarni shakllantirish, talabalarga atroflicha bilim berish, barkamol avlodni tarbiyalashda nomad madaniyati merosidan unumli foydalanish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida madaniy merosga hurmat nuqtai nazaridan yondoshuv prinsiplarini shakllantirish lozimdir.

Skif va sarmat qabilalari, ularning yashagan hududlari, ular to'g'risidagi manbalarni o'qish va tahlil qilish, Skifiya. Skif-sak qabilalari. Alanlar, Aslar, sharqiy eron til guruhiga mansub halqlar haqida to'liq bilimni shakllantirish. Oriy qabilalari, ularning ko'chishi bilan bog'liq jarayonlar to'liq qamrab olinishi lozim. Oltoy til oilasi. Prototurklar kimlar va ularning joylashuvi bilan bog'liq muammolar. Fin-ugor qabilalari. Slavyanlar, ularning madaniyati na'munalari. Avesto kitobi qadimgi aholi turmush tarzi va madaniyati bo'yicha muhim manba ekanligini tahlil qilish, Yunon-rim manbalarida – Gerodot, Strabon, Kvint Kursiy Ruf, qadimgi xitoy manbalarida qadimgi ko'chmanchi qabilalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy muomalaga olib kirish kursning maqsadi hisoblanadi.

#### **Nazorat uchun savollar:**

1. Nomad madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti fanining predmeti deganda nima nazarda tutiladi?
3. Ko'chmanchilik turmush tarzida yashagan turkiy xalqlar to'g'risida nimalarni bilasiz?

#### **Mustaqil ish mavzusi:**

1. Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti bosqichlari.

## **2-Mavzu. Markaziy Osiyoda turkiy qabilalar (mil.avv. I ming yillikning I-yarmi) va nomad madaniyati**

### **Reja:**

#### **1 Markaziy Osiyoning eng qadimgi aholisi.**

#### **2. Markaziy Osiyoning eng qadimgi turkiy aholisi**

***Darsning maqsadi:** Markaziy Osiyoning eng qadimgi turkiy aholisi, ularning joylashgan o'rnini, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, manbalarda ular to'g'risidagi ma'lumotlarning yoritilishi yozib kelish va bilib olish.*

**Tayanch termenlar:** Ckiflar, Borusk, agafirs, gelon, nevri (nervii), arimasp, fissanget, iirk, budin, melanxlen, get, avxat (lipoksai), katiar (arpoksai), traspi (arpoksai), paralat (koloksai, skolot), issedon, sarmat, meot, sind, tavr, argippe, androfag, sak (qabila), massagetlar

Manbalarda Eron va Hindistonga ko'chib borgan oriylarning qaerdan kelib qolganligi to'g'risida talaygina ma'lumotlar bor, ammo bu ma'lumotlar roviy bo'lganligi uchun ularning vatani masalasida turli xil bir-biriga o'xshamaydiganlari ham uchraydi. Qadimgi afsonalardagi ma'lumotlarga aylanib, qadimgi oriylarning vatani masalasiga to'xtalib o'tsak. Hindiston, Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyoni, hamda Dunay va Karpat tog'laridagi yerlarni ularning vatani emasligi aniqlandi. U holda Oriylarning vatani Janubi-Sharqiy Yevropa, Qozog'iston, Janubiy Sibir bo'lishi mumkin. Ammo bu ro'yxatga ayrim tuzatishlar kiritish lozim bo'ladi. Afsonalarda oriylarning vatani to'g'risida gap ketganda, ularning shimol tomonida albatta sharqdan g'arbga cho'zilgan baland tog'lar tilga olinadi. Antik an'analarga ko'ra, Skifiyada shunaqa fikr bo'lgan, go'yo yer shimolga balandlashib (zemlya «povishaetsya» k severu) boradi. Oriylarda ham yer asta-sekin shimolga ko'tarilib boradi (chto zemlya postepenno povishaetsya). Oriylar, hindlar, eronliklar va skiflarning nazariga ko'ra, barcha

daryolar muqaddas shimoliy tog‘lardan boshlanadi. Bu afsonaviy tasavvur skiflar dunyosiga ham ta’sir qilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, skiflar o‘zlarining daryolarini Ripey tog‘laridan o‘z suvini oladi yoki boshlanadi deb hisoblashgan.

Skiflardan keyingi davrlardagi tasavvurlarga ko‘ra, Janubi-Sharqiy Yevropa orqali oqib o‘tgan katta daryolar baland tog‘lardan boshlanadi deb bilishgan. O‘rta asrlardagi geograflar va xaritashunoslar Sharqiy Yevropaning shimoliy qismida cho‘zilib yotgan tog‘ tizmalari tilga olinadi. Bu tog‘ tizmalaridan Qora va Kaspiy dengizlariga oqib tushadigan katta daryolar boshlangan deyiladi. XV-XVI Rusdan aniq ma’lumotlar olingach, bu noto‘g‘ri ma’lumotlarga chek qo‘yiladi.

Qadimgi rim manbalaridagi ma’lumotlar svdogarlarning va sayyohlarning xabarlariga tanyagan, jumladan Ptolemey Sarmatiyaga savdo uchun borgan svdogarlarning ma’lumotloariga tayangan. Unda Volga daryosi “Ra” , Dnepr Borisfen, Don Tanais deb atalgan.

Shunday qilib, qadimgi oriy afsonalaridagi “shimoliy sikl” tushunchasining shakllanishiga katta hududlarda daryolar shimoldan janubga oqishi, yer maydoni esa janubdan shimolga ko‘tarilib boradi. Bu ma’lumotlar O‘rta Osiyoga mos tushmaydi, chunki O‘rta Osiyo daryolari shimoldan boshlanmaydi, balki u janubiy-sharqdan shimolga qarab oqadi. Tyan-Shan, Pomir va Hindiqush tog‘ tizmalari ortida na okean, va na “qutb” «polyarnimi» yavleniyami) jarayonlari, na Yevropa viloyatlari, na Qozog‘iston, va na Dunay bor, va bu yerdagi tog‘lar, va na Qozog‘iston tumanlarim, va na Janubi-G‘arbiy Sibir bor, Ob, Irtish, Ishim, Tobol daryolari teskari, ya’ni shimoldan yoki shimoliy-sharqdan janubga oqadi.

Shunday qilib, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, oriylarning vatani janubi-sharqiy Yevropada – Dneprdan to Uralgacha bo‘lgan hududlar kiradi deyish mumkin. Aynan shu hududda tekislik janubdan shimolga ko‘tarilib boradi, Ural, Volga, Don va Dnepr daryolari shimoldan janubga oqib o‘tadi. Daryolarning istoki-irmoqlari esa shimolda qadimgi dasht yashovchilari-aholisiga noma’lum bo‘lgan.

**Rus manbalarida Dashti Qipchoqning eng qadimgi aholisi sifatida kuyidagi xalqlar kursatiladi:** borusk, agafirs, gelon, nevri (nervii), arimasp, fissanget, iirk, budin, melanxlen, get, avxat (lipoksai), katiar (arpoksai), traspi (arpoksai), paralat (koloksai, skolot), issedon, sarmat, meot, sind, tavr, argippe, androfag, sak (qabila), massagetlar. Shulardan skiflarga tuxtalsak, Ckiflar-qadimgi xalq. (eramizdan oldingi 7 asr- milodiy 3 asr). Gerodot ularni podsholik skif, ko'chmanchi, o'troq, yerli xalqlarga bo'lgan. Xo'jaligi: dexqonchilik, chorvachilik, metallarni qayta ishlash, dengiz oldi mamlakatlari bilan savdo-aloqalari amalga oshirish. Mil.avv 4 asrlarda Skiflar davlatiga asos solgan. Gotlar bilan mag'lubiyatidan so'ng boshqa qabilalar bilan aralashib ketgan.(mil.avv 3 asrning ikkinchi yarmi). Skiflardan bir qancha yodgorliklar qolgan.

Skiflar (qad. yunon. Tilida Σκόθαι) ular turli tillarda so'zlashuvchi polietnos xalq bo'lgan. Ularning yashash joylari antik davrda va buyuk ko'chish davrida Sharqiy Yevropa, O'rta Osiyo va Sibir bo'lgan.

Skiflar to'g'risida ma'lumotlar antik davr tarixchilari asarlarida uchraydi (asosan Gerodotning «Tarix») va Quyi Dunaydan sibirgacha va Oltoy yerlarida arxeologik qazishmalar olib borilgan.

Vasiliy Abaev skif etnonimini skuta k \*skul-ta, \*skul (\*skol) Rossiya janubidagi qandaydir muhim eron aholisigacha bo'lgan termin» deb hisoblaydi. No K.T.Vitchak va S.V.Kullanda esa qad.-yun. Σκόλοτοι < \*skula-ta < \*skuða-ta skuda-ta (t.e. "luchniki", s zakonomernim perexodom \*d > \*l v skifskom).

### **Skiflardan 3 ta ildiz chiqarish mumkin:**

#### Yevropalik skiflar

Yevropalik skiflar eron tilli chorvador xalq bo'lib mil.avv 4-3 asrlarda O'rta yer dengizi oldida ko'chib yurishgan. Yevropalik skiflar to'g'risida asosiy

ma'lumotlar qadimgi yunon manbalarida mavjud bo'lib, asosiy qismi Gerodotning asarida. Skiflar o'zlarini Gerodotning guvohlik berishicha skolotlar deb ataydi.

Saklar — skif qabilasi, Osiyo xalqlari asosan eronliklar ularni “saklar” deb atagan. Qadimgi yunon mualliflari ularni “ osiyolik skiflar” deb atagan. Diqqatga sazovorligi shundagi eronliklar “dengiz oldi saklari” deb yevropalik skiflarni atashgan.

1.Dashti Qipchoq, O'rta Osiyo, Oltoy skiflari bundan uch ming yil muqaddam gunlar deb atalgan. Antropologik jixatdan turkiy qabilalarga o'hshash bo'lgan.

2.Qadimgi yunon mualliflari xunnlarni skif qabilarining bosh qabilasi bo'lganligini ta'kidlaganlar. Buyuk alloma Muxammad al-Xorazmiy VII—IX asr arab manbalarida 9 ga yaqin «iskif» nomli turkiy qabilari keltirgan.

Bexustun qoyatoshi, Nakshi Rustam, Perespolda bir qancha o'rta osiyo qabilalari keltiriladi. Ular orasida 3 sak qabilalari:

«saki-xauma-varaka», Gerodotda, «skifi-amyurgi» sifatida, Ksetiem Knidskim ( Gerodotning zamondoshi) - «skifami shaxa Omargna». Keyingi mualliflar esa ularni«sakaravak» sifatida keltirishadi.

4. «saki-tigraxauda». Odatda ularni “ uchli qalpoq kiyganlar” deyishadi. Qadimgi yunon mualliflari asarlarida «ortokoriban» deyiladi.

«saki-tiay-tara-darayya» -ular yevropalik skiflar deb hisoblangan.

Dashti Qipchoqda yashagan turkiy xalqlar to'g'risida xitoy manbalarida kuyidagilar keltiriladi:

Eramizning 1 ming yiligacha turklarning shimoliy, g'arbiy va janubiyga bo'linishi paydo bo'ladi. Shuning ta'siri ostida Xitoy manbalarda sziak-tiek (chiak-tiek, teiek-tiek, zamonaviy o'qilishi – chi di), biak-tiek yoki biak-tiek (biak-tiek, bak-tiek, bak-tiek zamonaviy o'qilishi – bey-di), pek-tiek, tian-tiek yoki szan-tiek (tiang-tiek, chang, tiek, chjan-di) kabi etnonimlar paydo bo'ldi. Qadimda “chi” janub ma'nosini anglatga va – g'arb, bei – shimol, zhang – katta va baland bo'yli. Shu sabab u chunki janubiy turklar, g'arbiy turklar, shimoliy turklar, katta yoki baland bo'li ma'nolarini anglatgan. Qadimgi xitoy tilida shuningdek shimoliy va g'arbiy qabilalar rivem kabi (zamonaviy o'qilishi - rong, rus tili adabiyotlarida –

jun) va hi do paydo bo'ldi. Qadimda "rong" hieroglifi "harbiyla"r yoki "ot ustidagi odamlar" hi esa "zaif aql" ma'nolarida qo'llanilgan. Chamasi, xitoyliklar xu so'zini turklar bilan qo'shnichilik aloqalarida haqratomuz ta'rif sifatida ishlatganlar. Vaqt o'tishi bilan xitoyliklar rivemni riveiga ajratganlar ya'ni ot ustidagi odamlar va rivei-tiek (jun di) yoki tiek-rivei (di-jun) – otdagi turklar yoki turkiy chavandozlar so'ng g'arbiy va shimoliy guruhlarni si-rivem (si-jun), ikkinchisini rivem-tiek (jun-di) deb ataganlar. Keyinchalik si-rivem (si-jun) etnonimi g'arbiy yer yoki g'arbiy mamlakatlar ma'nosidagi siyuy toponimiga ham o'tdi. Rivem etnonimining xitoy tilida paydo bo'lishi Chjou davriga aloqador. Demak, turklarning paydo bo'lish davri mil.avval 3 ming y Yapon olimlari qadimgi xitoy manbalarida uchraydi-gan "tele" va "tukyuet" (hozirgi xitoy tilida "tujyue") kabi atamalar aslida turkiy xalqlar tilida aytiladi-gan "turk" atamasining turli davrlardagi xitoy tili shevalaridagi talaffuzidir, deb hisoblaydilar. Ilk bor shunday xulosaga keltan olim mashhur turkshunos Xatakyo xisoblanadi. Yaponiyaning ikkinchi bir yirik turkshunos olimi Matsuda Xisov Xatakyoning xulosasini to'g'ri, deb topadi. U o'zining xitoy tiliga tarjima qilingan "Guday Tyanshan lishi dili shyue yanju" nomli asarida Xatakyoning "tele" atamasi "turk" so'zining xitoycha transkripsiyasidir, degan xulosasi nihoyatda asosli va katta ilmiy ahamiyat kasb etadi, deb yozadi.

Ushbu olimlar o'z tadqiqotlarida masalani chuqur o'rganishgan va bizning imkoniyatimiz doirasida bo'lmagan manbalardan foydalangan holda ilmiy muomalaga muhim ma'lumotlar kiritgan. Shu bois ularning asarlari biz uchun ma'lum darajada asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Ayrim XX tarixchilari "tele" atamasini "turo" deb ishlatishmoqda. Afsuski, ular buning isbotini keltirishmaydi. Shunday bo'lsa ham ta'kidlab o'tish joizki, mantiqan olib qaraganda, telelarni turo, deb ishlatishda ham asos borgan o'xshaydi. Binobarin, "turo" atamasi "tur" so'zining ko'pligidir. Avestoda "tur"— etnonim, "turon" esa toponim sifatida uchraydi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida xam "turon" toponim sifatida ishlatilgan. Avestoning asl nusxasi miloddan avvalgi VII asr atrofida yozilganligini va turlar Eronning shimolida yashaganligini,

shu zamonlarda xitoylar o'zlarining shimoliy va g'arbiy tomonidagi xalqparini "di", "dili" deb atalganligini hamda ushbu nomlar o'zgarib keyinroq chile, tele deb aytilganligini solishtirib tahlil qilinsa, bu hodisalar tasodifan bo'lmasa kerak, degan fikr kelib chiqadi. Turk bilan tur atamalari faqatgina bshta "k" tovushi bilan farqlanadi. Turk atamasi eronliklar tilida bir oz o'zgarib, undagi "k" tovushi tushib qolgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Shuning uchun, xitoy manbalaridagi tele, chile, ding-ling, dili, di kabi etnonimlar "turk" atamasining turli davrlardagi xitoycha transkripsiyasi bo'lsa, turo ushbu atamaning forscha talaffuzi bo'lib chiqishi mumkin.

Xitoy olimlari "tele" nufuzli va bir toifadagi qardosh xalqlarning umumiy nomi ekanligini bir ovozdan tasdiqdaydilar. Qolaversa, Turo (Tura) deb atalgan toponimlar, jumladan daryo nomlari ham mavjud. Masalan g'ar-biy Sibirdagi Tobol daryosining bir irmog'i Tura deb ataladi. Shu bois ham ishimizda tele, turk va turo bir toifadagi xalqlarning turli tilda aytilgan nomi bo'lib, ular sinonimlardan iborat, degan fikrga kelmoqdamiz.

Mazkur ma'lumotlar yuqorida qayd etilgan 24 ta tarixiy asardan biri "Shimoliy sulola tarixi"ning 99-bobida va "Suy sulolasi tarixi"ning 84-bobida uchraydi. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, "tele" tarkibiga kirgan qabilalar hunlar xoqonligi (miloddan avvalgi 270 — milodiy 118) yemirilganidan keyin Buyuk Xitoy devorining shimoliy tomonidagi hududlar va uning g'arbiy tomonidagi Xesi koridoridan boshlab O'rta yer va Qora dengiz qirg'oqlarigacha bo'lgan ulkan zaminda tarqoq holda joylashgan. Ular (manbada ko'rsatilgan tartibda) quyidagi 44 qabiladan iborat.

Tugu (bug'u, buku, buqu), tunglo (tungro), veyxe (uyg'ur, uyxo'r), boegu (boyirqu, boyirg'u), fufulo (fu, fulu deb hdm yoziladi, bo'rkli), menchen (michin, munchin, mchin), turuxe (turog'ur, turoxo'r), xun (xun), xose (xog'ursu) (sir), sije (izgil), chibi (chibni, chevik, jabirqo), bolo (bo'ri, bo'rji), jiide (jida, oziy), supo yoki subo (sig'noq), naxe (nak, noq, ba'zilar supu bilan noxeni qo'shib sig'yonoq deb ataydilar), uxu yoki ugu (o'g'uz), xegu (qirg'iz), yede (Hp-ram), yuynixu (unig'ur, uryangxay), sheyanto (sirtordush, sirtodush), deleer (dler, jaruq), shiban

yoki shipan (za-bander, zabinder), dachi (turgesh), xede yoki ode (odiz), xeje (xozor), boxu (bulg'or, bulgor), beygan (pecheneg, ba-chaneg), jyuyxay (to'g'oy, to'rg'oy, qo'g'oy), xebeysi (abusi, qipchoq, bosmil), xeso (bo'rtos), subo (svor, sibir), yemo (yemak, yemok), kedo (got, goch), suluje (sarougur, sarig'ur), sansuyan (saksin, soqsin), mezu, meszu (mokshos, moksho's), coxy (cherkes), enchyuy, enjyuy (ongor, ong'or), jyulifu (qut-rig'ur, qutrigur), olan, alan (olan, oyrun), beyru (bosh-qird), voxun (ovorhun, over-xun), dubo (tuvo, tubo).

Bulardan sirtordush qabilasi 7 ta guruhga bo'linib, sharqda Baykal ko'li, Mongoliya hududidagi Turo (Tulo) daryosi atrofidan va Sharqiy Turkiston hududidagi Kumul (Iverg'ul, qadimgi xitoy tilida Ivu, hozir Xami) viloyatidan boshlab, g'arbda o'sha zamondagi Rim davlati chegarasigacha bo'lgan ulkan zaminda yashaganligi ko'rsatilgan.

Masalan, pugu, tunglo, veyxe, baegu, fufulo (fu), men-chin, turuxe, xun, xo'se, sije kabi 10 ta qabila bir guruh bo'lib Turo daryosi atrofida hayot kechirganlar. Ularning ixtiyorida 20 ming kishilik qo'shin bor edi.

Chibi, bolo, jiide, supo, naxe, uxu-(ugu), xegu, yede, yuynixu kabi 9 ta qabila ikkinchi bir Guruh bo'lib, Shar-qiy Turkistonning shimoliy hududida, aniqrog'i Kumul viloyati g'arbida va Korashar daryosi shimoliga tarqalgan bo'lib, ularning ham 20 ming kishidan iborat qo'shini bo'lgan.

Seyanto, deleer, shipan, dachi kabi uchunchi guruhsan iborat 4 ta qabila Oltoyning janubi-g'arbiy tomonlarida istiqomat qilishgan. Ularning qo'shini 10 ming kishini tashkil etgan.

To'rtinchi bir guruh teleler ade, xeje, boxu, beygan, jyuyxay, xebeysi, xeso, suba, yemo, keda kabi 10 ta qabi-lani biriktirgan bo'lib, Samarqandning shimolini va Sirdaryoning yuqori qismi atrofida yashagan. Ularning askarlari 30 ming kishidan ortiq edi.

Beshinchi bir guruh telelar suluje, sansuyan, mesu, saxu kabi 4 ta qabiladan iborat bo'lib, Kaspiy dengizining (Deyixay) sharqiy va g'arbiy tomonlarida yashagan. Ular ixtiyorida 8 ming kishilik qo'shin bo'lgan.

Oltinchi bir guruh telelar ensyuy, alan, beyru, jyulifu, vahun kabi 5 ta qabilani qo'shgan, ular Rum davlatining sharqiy tomonida yashagan. Ularda qo'shin soni 20 mingta edi.

Yettinchi guruh telelar tarkibida birgina tubo (dupo) qabilasi bo'lib, u sharqda Baykal ko'li atrofida yashagan. Bular ixtiyoridagi qo'shin soni ko'rsatadi. Bir qancha manbalarda turk qabilalarining ajdodlari g'arbiy dengizning o'ng tomonida yashaganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, "Bey shida"da ko'rsatilishicha, "Turk-ut" (tuetkuat) ajdodlari G'arbiy dengizning o'ng tomonida yashagan. Ushbu parchalarni sharxlash asnosida biz quyidagilarni belgilaymiz:

- 1) Tietkiuat (tusziyue chjisyan) iborasini tushuntirishda, uning mazmunicha Asien urug'i undan oldin va keyin shakllangan barcha avlodi kiradi. Mazkur jarayon tahminan 10 asrni o'z ichiga oladi.
- 2) Xan sulolasi davri (mil.avv 206 – milodiy 220 yillar) xitoy tarixchilari Kaspiy (Lixay– so'zma so'z hamma tomondan yopilgan dengiz) va Orol (Syaxay – irmoqli dengiz) dengizlarini Sixay – G'arbiy dengiz deb atashgan.

Shuningdek, Turk hoqonligi hududining kengligi ham tavsiflanadi ya'ni u sharqdan Lyaxay (Uzoq dengiz) g'arbda esa u Sixaygacha boradi, uzunligi bo'yicha 10,000 li (576 km) tashkil etadi.

Barcha xitoy ma'lumotlarida ko'rsatilishicha Sixay toponimi qadimda Orol va Kaspiy dengizi ma'nosida ishlatilgan.

Keying xitoy manbalarida O'rta yer dengizi va Qizil dengiz ham Sixay deb nomlangan. N.Ya.Bichurin "G'arbiy dengiz" toponimi Mongoliyaning ko'llaridan biri deb xato aytilgan.

- 3) Qadimgi xitoy geograflari yu (o'ng tomon) sharqni szo (chap tomon) deb nomlashgan.
- 4) Sixay chji shi iborasini g'arbiy dengiz qirg'og'i deb tushunish kerak.

## Turk qabilasi ajdodlarining Yenesey daryosining yuqori irmog'iga o'rinishi

Turk qabilasi ajdodlarining Enasoy daryosi yuqori oqimiga ko'chishi 5-10 asr xitoy manbalarida tuekiuat (tusziyue) Markaziy Osiyo turli rayonlarida yashaganligi haqida ma'lumot mavjud. "Chjougiu"da yozilganidek Asien ajdolari saklar mamlakatidan kelib chiqqan. Original yozuvda ma'lumot quyidagicha beriladi: "Xunlarning shimolida joylashgan sak podsholigidan tuekiuatlarning ajdodlari kelib chiqqan". Ma'lumki, So-Go tomonimi qadimda sak davlati yoki saklarning podsholigi ma'nosini anglatuvchi Sak-kuek (sak-kiek) deb talaffuz qilingan. Ko'rinib turibdiki, qadimda "kuek" ("dio", rus transkripsiyasida "go") ieroglif o'zining hukumdoriga ega bo'lgan ma'lum joy sifatida ishlatilgan. Zamonaviy xitoy tilida mazkur ieroglif davlat ma'nosini anglatadi. N.Ya.Bichurinning ta'kidlashicha "so-go" toponimi "so uyining mulki" deb tarjima qilingan. Shu qatorda L.N.Gumilev xech qanaqa tushuntirishlarsiz so toponimini mahalliy xalqning nomi deb qabul qilgan. Zamonaviy o'qilishida so-go va xusze-go turli toponimlardek ko'rinadi. Biroq, qadimda ulardan birinchisi Sek-kuek, ikkinchisi esa Shakiat-kuek (Shakiat-kiek) deb talaffuz qilingan. Xitoycha tovushlarni talaffuzida shek va shakiat juda yaqin va bitta etnonimning turli talaffuzi hisoblanadi. Bu esa so-go va xuszi-go toponimlarining o'sha podsholik nomlaridan turlicha o'qilishi ekanligini belgilash imkoniyatini beradi. Qadimgi xitoy manbalarida xusze (Shakiat) etnonimi (sha-tek), usze (ku-kiat) va usze (ki-dziak, ku-dzek) sinonimlari shaklida uchraydi.

Sak (so-go) podsholigi Katta Enasoy va Kichik Enasoy – Enasoy daryosining yuqori irmog'ida joylashgan edi. Xitoy tarixchilaridan Syue Chzunchjen ta'kidlaydiki, ikki nom ostidagi bu podsholik Saklar tomonidan asos solingan. So-go va xusze-go toponimlarining qadimiy o'qilishi bu xulosani tasdiqlaydi. Milloddan avvalgi 176 yilda So-go xunlar tomonidan tugatilgan. Uning hududi esa xunlarning ta'siri ostiga kiritilgan. Shunga bog'liq ravishda, podsholikda qabila bo'lib yashovchilar shuningdek Asienlar ajdodlari xunlar ta'siri

ostida bo'lgan. Ularning xunlarga tobeligi uch asr davom etgan. Bu uzoq muddat ichida Asienlar ajdodlari xun, qirg'iz (izenkuk) va Baykal ko'li atrofida yashovchi qo'shni qabilalar bilan aralashib ketganlar. Tieklik (dinlik) umumiy nomi ostidagi shimoliy turklarning o'zaro aloqasi natijasida yangi Asietik (asiatak, zamonaviy o'qilishi aguide) urug'i paydo bo'ldi. Shuning uchun Syue szunchejen urug'ining asoschisi Dinlik deb hisoblaydi. Yuqorida ayhtib o'tilganidek yashash joyi Baykal ko'lining sharqiy tomoni hisoblandi. Sin Tansiuda tuetkyuat qabilasi qadimda xunlarning shimolida yashagan asienlar guruhidan iborat. Bir necha asrlar davomida ruziy ustidan g'alaba qozongunlariga qadar va xun (syun) davlatining shakllanishiga qadar ular Ordos rayonida yashaganlar. Miloddan avvalgi 5-6 asrlarda ular atrofdagi rayonlarni ham egallaganlar va Xitoyning kurashuvchi 7 shimoliy podsholik bilan umumiy chegaraga ega edilar. Syu Szingchjen Asien urug'ining yashash manzili Baykal ko'li (xitoy manbalirida Beyxay – Shimoliy dengiz) ga'rbiy va janubi-g'arbiy qismida ekanligini to'g'ri aniqlagan. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki Asien ajdodlari Orol dengizidan Baykal bo'yi hududigacha ko'chishi xunlar isyon ko'targuncha sodir bo'lgan. Extimol, bu A.Makedonskiy qo'shinining sharqqa bosqinchiligidan kelib chiqqandir. Mazkur hududda ularning tarkibini ma'lum darajada kengaytirib, o'z holatini mustahkamlab, o'zlarining Sek-go davlatini tuzgan. Davlatni tashkil etilgan vaqti noma'lum, taxmin qilinadiki u mil.avv 4-3 asrlarda paydo bo'lgan. Turk qabilasi ajdodlarining pinlen Xesis yo'lagi rayoniga ko'chishadi. Sharqiy Xan (Dunxan – 25-220) imperiyasi qulashidan keyin xitoy parchalagan holatda edi. Bundan tashqari uning hududida paydo bo'lgan uch podsholik Vey (222-263), Shu (221-263) va U (222-280) o'zaro shavqatsiz kurashda edilar. Shimoliy qabilalar o'zlarining ajdodlari nazorati ostida bo'lgan joylarni qaytarib olishga harakat qildilar. Bizga ma'lumki, Xuanxe va Xesis koridori dayolari o'rta va yuqori oqimidan suv bo'ylari xitoy bo'lmagan qabilalarga tegishli bo'lgan. Mazkur davrda 3 qabila xuni, syanbi, syan (szyan) podsholiklari va boshqalar bu hududlarga intilganlar. Rasmiy xitoy manbalarida ushbularga "tobelik" (guyfu) sifatida qaraladi. "Szinshu" (Szin sulolasi tarixi)ning guvohlik berishicha,

chegara hududlarida taxminan million kishi va ularning deyarli yarmi turklar (tiek)lardan iborat edi. Yuqorida ta'kidlangan ediki, tuetkiuat (tuszyue) ajdodlari Asien urug'idan edilar va pinlyan-zaxu (Pinlendagi aralashgan g'uzlar) dan iborat edi. Xitoy manbalarida mazkur etnonim G'arbiy Szin (Sinszin 265-316) sulosasi boshqaruvi boshida paydo bo'lgan. Bu davr xunn imperiyasi yo'qolgan va bir necha mulk egalari Xesis yo'lagi va Sharqiy Turkistonning sharqiy qismida paydo bo'lgan. G'arbiy Szin podsholigining qulashidan keyin qadimgi Xitoyning shimolida 10ta kichik podsholiklar vujudga keldi. Ularning orasida harbiy xarakatlar to'xtamagan. Bundan tashqari turkiy qabilalar yashagan shimoliy hududlarda tabiiy ofatlar yuz bergan. Bu ularning shimoldan janubga yalpi ko'chishiga olib kelgan. Ko'chuvchilar orasida Asien avlodlari ham bo'lgan bo'lishi mumkin.

### **Mavzu bo'yicha savollar**

- 1. Dashti Qipchoqning eng qadimgi aholisini sanab bering?**
- 2. Dashti Qipchoqning eng qadimgi turkiy aholisi xakida nimalar bilasiz?**

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Latishev V. V. Izvestiya drevnix pisateley grecheskix i latinskix o Skifii i Kavkaze — SPB., 1893—1906 T. 1—2.
2. Gerodot. Istoriya (skifskie fragmenti) // Skifi: Xrestomatiya. — M.: 1992. — S. 38—83.
3. Ribakov B. S. Gerodotova Skifiya — M., 1979.
4. Agbunov M. V. Puteshestvie v zagadochnuyu Skifiyu — M., 1989.
5. Skrijnskaya M. V. Skifiya glazami Ellinov — SPb., 1998.
6. Gulyaev, V. I. Skifi, Rassvet i padenie velikogo sarstva. M., Aleteya, 2005
7. Latishev V. V. Izvestiya drevnix pisateley o Skifii i Kavkaze. Vestnik drevney istorii. 1947—1949; ukazatel 1950 g

### **3-mavzu: Turk hoqonligi davrida Markaziy Osiyo va nomad madaniyati**

**Darsning o‘quv maqsadi:** Xoqonlikning Dashti Qipchoq erlariga kirib borishi, Dashti Qipchoq hududidagi xoqonlikning mayda davlatchalar haqida talabalarda tushuncha uyg‘otish. Dashti Qipchoqdagi turkiy etnoslarning etno-madaniy jarayonlardagi ishtiroki to‘g‘risida talabalarning bergan ma‘lumotlarini tahlil qilish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Turk xoqonligi, Dashti Qipchoq, Markaziy Qozog‘iston, Orol dengizining shimoliy qirg‘oqlari, Oltoyning janubiy hududlari Sibirgacha, g‘arbda quyi Dnepr va Don pasteksliklari hududlari, Bulg‘orlar va Xazarlar yerlar, ugorlar, xazarlar, abarlar, xuni (xionit), bulg‘orlar, kuturgurlar, uturg‘urlar.

#### **Reja:**

- 1. Turk hoqonligining Dashti Qipchoq erlariga kirib borishi.**
- 2. Markaziy Osiyo hududidagi xoqonlikning mayda davlatchalari.**

#### **1. Turk hoqonligining Dashti Qipchoq yerlariga kirib borishi.**

Turk xoqonligi davrida egallagan Dashti Qipchoq hududlari taxminan quyidagilar: Markaziy Qozog‘iston, Orol dengizining shimoliy qirg‘oqlari, Oltoyning janubiy hududlari Sibirgacha, g‘arbda quyi Dnepr va Don pasteksliklari hududlari, Bulg‘orlar va Xazarlar yerlari kirgan.

Sharqiy chegaralarda faollik ko‘rsatayotgan turkutlar ayni chog‘da g‘arbgacha ham yurishlar uyushtirib turardilar. Afsuski, bu nihoyatda muhim voqealar manbalarda yetarlicha yoritilgan emas, biroq, shunga qaramay, voqealar jarayonini umumiy tarzda bayon qilish mumkin.

G'arbga harbiy yurishlarni Buminning ukasi Istami qoon boshqargan. Oldingi yurishlarda Istami qoon Bumin bilan birga asli ugorlardan bo'lishi ehtimol bo'lgan Shimoliy Oltoy qabilalarining o'n nafar oqsoqollari ustidan qo'mondonlik qilgan. Ularning hozirgi nasllari turklashib ketgan shorlar, kumandilar, ku kiji (lebedin)lar va boshqalardir. Isatni xonning ismi ham turki emas. Bu ism ugorcha bo'lib bobolar ruhining nomlanishidir. Xitoylar uning askari sanog'ini 100 ming deydilar, lekin bu raqam askarlarning haqiqiy adadini emas, balki sarkardaning rutbasini ifoda etadi. Bu rutba eng oliy bo'lib bu raqam uning "bahodir jabg'u" unvoniga muvofiqdir.<sup>1</sup>

Istami o'z askariy yurishini 552 yildan ancha keyin boshlagan, chunki mazkur yilda abarlar hali mustaqil qabila bo'lib, Buminning dafn marosimiga tortiqlar jo'natishgan. Bu yurish 553 yil kuzida – jujanlar uzil-kesil tor-mor keltiriligidan keyin bo'lgan ko'rinadi. Yurish boshlanishining eng ishonarli sanasi 554 yilning bahori bo'lishi kerak. Chunki bu paytda jujanlar tumtaraqay qilingan, otlig askarlar uchun eng muhimi – dasht o't-o'lanlar bilan qoplangan edi.

Ushbu iqtibosga asoslanib 555 yilgi chegaralarni ancha aniq belgilashimiz mumkin: chegara chizig'i Toshkentdan sal shimolroqdan, Sirdaryoning shimol tomon burilish nuqtasini kesib va kenglik (jug'rofiy) yo'nalishida Amudaryoning quyilishi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari bo'ylab o'tgan. Sug'diyona va Buxoro o'sha vaqtlarda eftalitlarga bo'ysunardi, tabiiyki turkutlar ular bilan to'qnashadilar. Shunday qilib turkutlar bir yarim yil ichida butun Markaziy Qozog'istonni, Yettisuvni va Xorazmni ishg'ol qiladilar.

Biroq undan uyog'iga og'irlashib bordi. Orol dengizining shimoliy qirg'oqlarida turkutlar xuni (xionit), var va ogor qabilalarining qarshiligiga duch kelishdi. Faqat 558 yilga borib bu qabilalar mag'lub etildi va turkutlar bo'yin egishni xohlamagan qavmlarni oldiga solib quylagan holda Volga daryosiga yetib kelishdi. Bu qochqinlar var va xuni qabilalari qoldiqlari bo'lib, adadi 20 ming kishini tashkil etadi va keyinroq avar<sup>2</sup> nomi bilan yagona qavm bo'lib uyushadi.

---

<sup>1</sup> L.N. Gumilyev, Удельно-лествичная сисема, 24-б.

<sup>2</sup> М.И. Артаманов, История хазар, 64-65-б.

Turkutlar Uraloldi cho'llarini zabt etish bilan qanoat hosil qilib, Volga daryosini kechib o'tmadilar. Istaming g'arbga yurishi shuning bilan chegaralandi. To'rt yil davomida erishilgan zafarlar xoqonlik oldiga qator siyosiy yangi masalalarni qo'ydi.

Osiyoning butun dashtini qamrab olgan yangi saltanatning paydo bo'lishi Xitoy, Vizantiya va Eron diplomatsiyasi uchun katta bir ahamiyatli omil bo'ldi. Asosan, Vizantiyaning uzoqni ko'zlagan va nozik siyosati tufayli VI yuz yillikning 50 yillari oxirida Qora dengiz bo'yida siyosiy vaziyat ancha murakkab va keskin edi. Quyi Dinepr va Don pasttekisliklari bulg'orlar toifasidan bo'lmish kuturgurlar tomonidan egallangan bo'lib, ularning qarindoshlari uturgurlar ubanda yashardilar. Kuturgurlarning Frakiyaga bosqinidan zada bo'lgan Vizantiya tortiqlaru elchilar vositasida uturgurlarni kuturgurlarga gijgijlardi. Yustinianing ustamonlik bilan tutgan siyosati bu ikki qardosh qabilalarning bir-birini mutafo qirib tashlash darajasga olib keldi.

Uturgurlardan sharq tomonda, Kuma daryosi havzasi va Dog'istonda o'ta jangari qabila – sabirlar yashardi. Sabirlar Vizantiya – Eron urushida dastlab Eron tomonida, so'ng esa unga qarshi faol ishtirok etgan edi. 552 yilda ular Agvaniyani bosib oladilar, biroq 554 yildayoq forslardan zarba yeydi.

Askariy ishlar. Turkutlar umumiy tarix sahnasiga dastlab temir ishlab chiqarish kasbi bilan kirib keldilar. Ularning afsonaviy ajdodi Ashina shimolga qochib “jujanlar uchun temir qazib olish bilan shug'ullanadi”. Jujan xoqoni Anaxuan 546 yilda turkutlar boshchisini ularning asosiy hunari bilan atab: “mening temir erituvchi tutqunim” deydi.

Arxeologik qazishmalar natijasida VI-IX yuz yilliklarga oid turkut metallurgiyasi yodgorligi topilgan. Olti oyda o'sha davrga oid temir madanini qazib olish izlari, uchun chuqur bo'lmagan lahmlar borligi aniqlangan. Temir ajratib olish usuli temir oksidining uglerod oksidi bilan kimyoviy qo'shish orqali temirni tiklash qabariq metall olishga imkon beradi. Bunday temir hozirgi zamonaviy domnalarda olinadigan temirdan ancha sifatli hisoblanadi.

Ana shu yuqori sifatli temirdan Oltoy temirchilari bir tig'li pichoq, bolta, o'zangi, suvliq, qilich, egma shamshir, qin, nayza va o'q uchlari hamda aylana, osib qo'yiladigan, oyoqlarida turadigan ikki xil qozon yasaganlar. Mana shu davrda metall qazib olish va uni qayta ishlash hozirgi Tuva hududida ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, u yerda temirdan tashqari oltin, kumush, qalay va mis ham qazib olingan.

589 yilning avgustidan Qora Churinning kenja o'g'li Yang Soux Sharqiy Eronga kirib bordi. Chegaralarni qo'riqlovchi 70 minglik fors qo'shini tum-taraqay qochib, turkutlarga Xuroson, Toliqon va Xirot, Balx, Badg'iz kabi tayanch qal'alalari bo'lgan Baqtriyaga yo'l ochib berdi. Bu vaziyatda, barcha manbalarda ta'kidlaganidek, fors qo'shini piyodalari safining past harbiy sifatleri pand berdi. Eronni vahima bosdi. Tabariida yozilishicha, Sava Xurmuzdga odam yuborib shunday degan: "Daryo va soylar ustidagi ko'priklarni tuzating, toki men ulardan bemaylaxotir o'tib mamlakatingizga kirib borayin, yana, ko'prigi yo'q daryolar ustiga ko'priklar ham quringlar. Xuddi shunday ishni sizning mamlakatingiz orqali rumliklar yeriga eltadigan daryo va soylarda ham bajaring, zotan men sizning yurtiingiz orqali o'sha yerga o'tmoqchiman. Ultimatum matni yurishning asl maqsadini qanchalik ifoda etsa, G'arbiy turkutlar harakatlari yunonlar bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borilayotganligini shunchalik ifoda etadi.

Turkutlar VI-VIII asrlar turklari orasida eng mongoloidlaridan edi. Gurjilar Tbilisini qamal qilgan turkut sarkardasi ustidan kulish uchun "katta bir qovoqni olib kelib, unga xunlar podshosi qiyofasini chizishgan – bir arshin eniga va bir arshin bo'yiga; kipriklar o'rniga ko'zga ko'rinmaydigan qilib, bir necha kesilgan shoxchalar sur'ati chizilgan; soqol o'rni xunuk qilib bo'sh qoldirilgan; burun katagi eni bir tirsak, murtidagi mo'ylari juda siyrak" qilib tasvirlangan. Bu hech shubhasiz bir kishining qiyofasi ustidan emas balki irqiy xususiyatlar ustidan kulishdir. Bu irqiy belgilar turkut tosh balballari va haykalchalari ko'rinishida o'z tasdig'ini topadi.

Vey daryosi bo'yida tinchlik sulxi tuzilganidan keyingi dastlabki kezlar hamma narsa joyida edi. "Uzun quloq" gaplar dasht bo'ylab turkut xoni jasorati

haqida xabar tarqatdi va seyanto qabilasi 627 yilda G'arbiy xoqonlikdan ajralib chiqib, Sharqiyga bo'ysunishni afzal ko'rdi. Bu bir qaraganda, sharqiy xoqonlikning katta bir muvaffaqiyati edi, chunki Kat Elxonga Jung'oriya to'laligicha bo'ysunib, g'arbdan xatar yo'qolgan edi. Boshqa tomondan esa, bu qo'shilish Sharqiy xoqonlikda tele unsurlarini kuchaytirdi. Seyantolar uyg'ular bilan til topishib 628 yil boshlaridayoq ittifoqdosh bo'lishdi, ularning beklari Inon (seyanto) va Pusa (uyg'ur) bir-birini qo'llab-quvvatlashdi.

Turkutlar uchun eng havotirlisi ushbu vaziyatda norozi fuqarolar miqdorining o'sib borishi edi. Uyg'urlar adadi xitoy manbalari bo'yicha yuz mingga yetadi, jumladan 50 ming (?) askari bor, Seyantolar esa 70 ming chodirni, ya'ni ulardan ham ko'pchilikni tashkil etgan.<sup>3</sup> Bu qadar ko'p sonli, buning ustiga jangovor fuqarolarni faqat ular bilan kelishibgina boshqarish mumkin edi. Biroq siyosiy vaziyat turkut xoniga bunday ish tutishga imkon bermadi.

Kat Elxon sarkardalaridan Ashina Sheni G'arbiy turkutlarning Beshbaliq qal'asini qo'lga kiritdi, janubiy Jung'oriya kaliti bo'lgan ushbu yerdan turib Irtish qirg'oqlarida yashovchi qorluqlarni Tun Jabg'uxonga qarshi qo'zg'atdi. Biroq bu ishni avj oldirishga ulgirmadi.

Tun Jabg'u janglari xon bo'lib, butun umri davomida unga taxt olib bergan nushibi qabilasi irodasini bajarib keldi. Ana o'shalar manfaati uchun u Xitoy va Vizantiya bilan do'stlashdi, sharqiy turkut xonlari bilan g'alva qildi. Eron bilan qonli urushga kirishdi. Biroq urush uchun har yerda va har qachon pul va askarlar kerak bo'ladi. Askarlarni shimoldan – dilu qabilasidan olishga to'g'ri kelardi, lekin ular bu urushdan o'zlari uchun na foyda va na manfaat kutardi. Xon xonadoni ularning raqiblari bo'lmish nushibilarga ochiqdan-ochiq yon bosishlari ham dilularni xonlikka moyil qilmas edi, albatta. Mablag' zaruratidan xon, ulardan ko'proq jarima undira boshlagach, ular o'z bellaridagi qilich podshohlar va sarkardalardan ham kuchli bo'lishini eslab qoldi. Tun Jabg'u dilular noroziligi asta-sekin o'sib borayotganiga e'tibor bermay, tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'ydi. Sharqiy turkutlar Beshbaliqni tortib olgan zamoni Qora Irtishdagi qorluqlar

---

<sup>3</sup> Н.Я.Бичурин, Собрание сведений..., I жилд, 302, 339-б.

qo'zg'olon ko'tardi, uning ketidan dilu ittifoqidagi boshqa qabilalar ham qo'zg'aldi. Ularga Bahodir bek (Mohodu xou) laqabli xonning amakisi boshchilik qildi. U Tun Jabg'u xonni o'ldirib, Kulug Sibir xon (Kyuyli Sibi xon) unvoni bilan taxtga o'tirdi.

## **2. Markaziy Osiyo hududidagi xoqonlikning mayda davlatchalari.**

Xoqonlikning g'arbiy chekkasidagi dilu tarafdorligi bo'lmish bulg'or-unnogundurlar yo'l boshchisi Kubrat 619 yilda Konstantinopolga boradi va bu yerda patrikiya rutbasini oladi-yu, cho'qinishdan o'zini tortadi. Bulg'orlarning diluga yaqinlashishi xazarlar bilan raqobat natijasidir. 630 yilgacha ular xoqonlikning g'arbiy chegaralarini avarlarning ehtimoliy hujumidan muhofaza qilar edilar. Biroq kuturgurlarning avar xoniga qarshi qo'zg'oloni chegarani Don daryosidan Karpatga surib yubordi. Yangi vaziyatda ajoyib sifatli qo'shinni ortda ushlab turishdan ma'ni yo'q edi, shuning uchun bulg'orlarni xarakatdagi qo'shinni to'ldirish uchun Kavkazortiga tashladi. Tun Jabg'u amakisiga ishonmay, uning ulusini ukasi Jabg'u xoqonga bermoqchi bo'lganga o'xshaydi, biroq ukasi mag'lubiyatga uchrab, o'zi ham halok bo'ladi. Har holda, o'rdadagi to'ntarishdan so'ng qo'shin safidagi dilular ham qo'zg'olon ko'tarishadi, xon Bo'ri shodning hayoti tahlika ostida qoladi, so'ngroq esa nushibilar mamlakati bo'lmish O'rta Osiyoda paydo bo'ladi. Bo'lib o'tgan silkinishlar turkutilarni Kavkazortidan ketishga majbur qildi hamda shu zahoti bu yerlarni forslar egallab olishdi.<sup>4</sup>

Nushibilarni g'aflatda qoldirib bosdilar, biroq ular taslim bo'lish yoki bo'ysunishni xayoliga ham keltirmadi. To'ntarish ichki urushni keltirib chiqardi va bu urush butun G'arbiy turkut hoqonligi keyingi tarixini to'ldirib bordi. Yangi hukumat Tun Jabg'u xon bosib olgan yerlarni tezda qo'ldan chiqardi. Kavkazorti, undan keyin Gibin va Toxoriston yo'qotilgach, Jung'oriyadagi tele qabilalari qo'zg'olon ko'tarib, turkutilarga qarshi urush boshladi. Sibirxon uchun eng og'iri esa Tun Jabg'u xonning tantanali dafn marosimiga qimmatbaho sovg'alar bilan

---

<sup>4</sup> М.И. Артаманов, Очерки..., 65-б.

maxsus elchilik yo'llagan imperator Taytszunning o'ziga keskin salbiy munosabati yukini ko'tarish bo'ldi. Bu o'zicha arzimas bir qadam bo'lsa ham, Osiyoning eng qudratli saltanati to'ntarishga qarshi ekanligi ifodasi edi.

G'alayondan faqatgina bulg'or yo'l boshchisi Kubrat yutdi. Avval u tog'asi Sibirxonni qo'llab, turkutlar va xazarlardan qutilib oldi. Keyin xoqonlik markazidan juda olisda ekanligidan foydalanib, mustaqil hukmdor bo'lib oldi, ichki urush bilan band turkutlar bunga halaqit berolmadi.

635 yilda Kubrat avarlarni mag'lub etdi, ayni chog'da Konstantinopolga elchilik tayyorladi. Irakliy esa unga sovg'alar yuborib, patrikiy rutbasi mukofotladi. Kuturgurlarning avarlarga qarshi isyoni Kubratga Qora dengiz bo'yi cho'llarini qo'sh qo'llab tutqazadi, Feofan yilnomasida u "Bulg'or va kotraglar egasi" deb aytiladi (kotrag – kuturgur).

Kuturgurlar barcha urushlardan avarlarga faol yordam berishiga qaramay, avarlar ularga past nazar bilan qarar, ya'ni yomon munosabatda bo'lar edilar. 630 yilda kuturgurlar qo'zg'alib ko'rishdi, biroq yengilishdi. Yevropada bo'lganlari Bavariyaga qochishdi, ammo u yerda ham frank qiroli Dagober buyrug'iga binoan xoinlarcha bo'g'izlandilar. Sharqdagilarning omadi chopdi, ular yaqinlari uturgurlarga qo'shilishdi va birgalikda bulg'or xalqini vujudga keltirdilar. Yangi Bulg'orial sharqda turkutlar etagini ushlashda davom etayotgan xazarlar bilan, g'arbda avarlar bilan, janubda Vizantiya bilan dushmanlik munosabatida bo'lib, barchasiga qarshi turishga qurbi yetardi. Avar xoqonligining qudrati mana shu paytdan boshlab, to avar xalqi Buyuk Karl suvorilari qilichi zarbidan qirilib bitguncha pasaya boshlagan edi.

Kubrat asos solgan Bulg'or davlati 679 yilgacha yashadi, ammo uning keyingi mavjudligi turkut xoqonligi bilan hech qanday aloqasi yo'qdir. Shuning uchun Yevropani bir tomonga qo'yib, Markaziy Osiyoga qaytamiz.

Balballar bir-biridan keskin farqlanuvchi ikki shaklga ega: uchi qirra va uchi yo'nalgan. Yuqorida Urxun yodgorliklarida keltirilgach, har bir balbal muayyan kishini aks ettiradi, degan guvohlikni hisobga olsak, bunday farqlanish tasodifiy bo'la olmaydi. Bu yerda, ko'proq muhim etnografik belgi – bosh kiyimi aks etgan.

Dashtlilar hanuzgacha uchi uchlik malaxay kiyadilar, oltoyliklar esa yassi aylana qalpoq kiyadilar.<sup>5</sup>

Turkutlar VII asrda Oltoyga kelganlarida, ularning dushmanlari, bir tomondan, tub aholi – oltoyliklar, ikkinchi tomondan, dasht qabilalari – qozoqlarning ajdodlari bo'lgan. Turkutlar VII-IX yuzyillikda ana shu ikkala tomon bilan ham kurash olib borishgan bo'lsa kerakki, bu balballar shaklida o'z ifodasini topgan. Agar bu fikr to'g'ri bo'lsa, biz shuni ta'kidlay olamizki, dasht bilan kurash ancha muvaffaqiyatli bo'lgan, ya'ni biz o'rgangan 486 balbaldan 329 tasi uchqur uchli, 157 ning uchi yassidir. Chebixon zamonidan keyin ham dasht ko'chiklariga hamlalar, o'rmondagi har bir dataxtni, daladagi har bir toshni yaxshi bilgan tog'lilar bilan kurashdan ko'ra ancha muvaffaqiyatli bo'lgan ko'rinadi. Balki shuning uchun ham yassi boshli balballar uchi qirralilardan ko'ra yirikroqdir.

Bizda VIII-X asr turkut – to'loslari haqida tarixiy malumotlar yo'qligi tufayli (hatto tilsiz savuq toshlar beradigan bir chimdim daraklar ham katta qiymat kasb etadi), bu kurashlarning ikir-chikiri bizga noma'lum bo'lib qolaveradi, ammo uning umumiy oqimi va yo'nalishini aniqlashning o'zi ham tarix fani uchun katta yutuqdir.

Ikki yuz yil yangi muhitda yashagan xalq o'zgarmasligi mumkin emas. Ularni Oltoy tog'lariga haydab kelgan avvalgi qudratni tiklash niyati ro'yobga chiqmasligi ayon bo'ldi, vaqt ular umidini oqlamadi.

Dashtda boshboshdoqlik hukm surgan kezlarda turkutlar emas, kidanlar foydalana olishdi, turkutlar endi tarix sahnasiga boshqa ko'tarila olmadilar. Nega? Bunga javobni tabiiy va iqtisodiy geografiya bera oladi.

Turkutlar – aslan dashtli chorvador xalq. Ular ilk bor yashagan Katta Oltoyning janubiy qiyaliklar cho'l kengliklaridan ham foydalanish imkonini berar, o'rmon esa uning xo'jaligining asosi bo'lmish ko'chmani chorvachilikni to'ldirar edi, xolos. Tog'larga haydalganda ham ular o'z turmush tarzining asosini saqlab qoldi, faqat podalari uchun yaylovlar maydoni shimoldagi qiyaliklarning daryo havzalari bilan siqib qo'yilgan edi. Podalar sanog'ini kamaytirish mumkin emas

---

<sup>5</sup> Л.Н. Гумилев, Статуетки...

edi, shuning uchun turkutlar o'z iste'moli uchun manbalar doirasini kengaytirish ehtiyojini dashtda qo'l keladigan surukli ov bilan emas, balki undan ko'ra ancha mashaqqatliroq bo'lgan o'rmon yakka ovi bilan qoplashga o'tdilar. Yangi sharoitga moslashayotgan xalq ta'minlash jihatidan avvalgisidan yaxshi bo'lmagan xo'jalikning yangi turini yaratdi. Oltoy yaylovlarining Sibir tub orti iqlimi kabi keskin bo'lgan ob-havosi bilan kurashishga ham kam quvvat sarf etilmadi.

Dasht – hayot kechirish uchun bo'lmagan yer. Dashtning o'rtasini o'rmon bilan qoplagan tog' chizmasi kesib o'tgan, bu ajoyib bir manzara hosil qilish bilan birga xo'jalik yuritish uchun keng imkoniyatlar yaratgan edi. Biroq dashtga shimol tomondan tayga-hayot kechirish uchun noqulay bo'lgan, xo'jalik yuritish uchun eng kam imkoniyatlar berilgan joy – ulangandir. “Tayga dengizi” – o'rmon cho'lini o'rmon tundradan ajratib turadigan o'rmonli mintaqaga eng munosib atamadir. Bu qutboldi qabilalarining yashash maskani hamdir. Cho'l qo'ltiq bo'lib shimol tomon kirib boradi, ana shundaylardan eng ahamiyatlisi VII-VIII asrlarda Yeniseyning yuqoriga mintaqasi bo'lgan. Ana o'sha yerda na turklar va na uyg'urlarnikiga o'xshamagan qirg'izlarning chekka madaniyati yaratilgan. Tildagi va yozuvdagi o'xshashlikka qaramay, ba'zi bir xususiyatlari bilan qirg'izlar turk va uyg'urlardan uzoq edi. Ular umumiy taraqqiyotni belgilovchi tinimsiz kurash uyg'unligi va yaxlitligi sahnida tengburchakli uchburchakning uchinchi uchini tashkil etadigan ko'rinadi.

Qirg'izlar shimol va shimoliy g'arb tomonidan Markaziy Osiyo bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan xalqlar, aniqrog'i qabilalar bilan qo'shni edilar. Bular eng qadimgi sibirliklar bo'lib, qo'shnilarga o'zini qarama-qarshi qo'ya oladigan yoki bir-biri bilan til topishadigan darajada uyisha olmagan edilar. XVIII yuz yillikka nisbatan VII yuz yillikka Sibiri etnik jihatidan turli-tuman edi. Xuddi Kavkazdan ko'p xalqlarning qoldiqlari makon topgani kabi Sibir taygasida ham bunday 2000 yil oldin shiddatli taraqqiyot yo'lga tushgan qabilalar qoldiqlari yashar edilar.<sup>6</sup> Qirg'izlar hududining Sibir taygasi qabilalariga bevosita yaqinligi tabiiy muhit bilan birga qirg'iz saltanatining imkoniyatlari va rivojlanish

---

<sup>6</sup> А.П. Окладников, Неолит и бронзовый век Прибайкалье.

yo'nalishini belgilab berdi. S.B. Kiselyov tadqiqotlariga muvofiq Qirg'iz xonligi boshida qog'on-qoon turuvchi bir necha qabilalar birlashmasidir.

Manbalarda qirg'iz jonligining shimoli chegaralari tarixi tubandagicha boshlanadi: “Janubi-G'arbda tog' Gelolugacha”, ya'ni qorluqlargacha (demak, qirg'izlar Tom va Biy yuqori oqimida, to Salair chizmasigacha egalik qilishgan); sharqda Guligangacha (ya'ni yuqori Angarada yashaydigan kurikganlarga); shimolda ular bilan “tez-tez mushtlashib turadigan” boma yoki yelochji bo'lib, ular ko'p sonli xalq, qirg'izlardan atigi uch karra kam.

Bomalar ot boqishgan, otni qo'shga qo'shib yer haydagan, yog'ochdan uylar qurishgan, biroq davlatga uyushmagan va har bir qabila o'z yo'lboshchisi tomonidan boshqarilgan. Bomalar qiyofasi qirg'izlar bila o'xshash bo'lgan-u, lekin boshqa tilda gaplashganlar. Bu sirli xalqning manzili Angaraning quyi oqimidagi vodiy bo'lib, bu yerda Alakchin mamlakati ham bo'lgan. Demak, qirg'iz xonligining shimoli chegarasi Krasnoyarskdan biroz shimolroqdan o'tgan.

V.V. Bartold boma Yenisey ostyaklari, ya'ni ketlar bo'lsa kerak, deb tahmin qiladi, ularga janubdan qudratli “kilik” xalqi hujum qilganligi haqida rivoyat ham saqlanib qolgan.<sup>7</sup> Qirg'iz xonligining shimoli taxminiy chegarasi “Tanshu” xabarlarida o'z tasdig'ini topadi: “(Yenisey havzasining) barcha daryolari shimoli-sharqqa qarab oqadi. Xagasni chetlab, ular qo'shilishadi va shimolga oqadi”. Yenisey buriladigan joy va undan sal keyin unga Angaraning qo'shilishi haqida gap ketmoqda. Shunday bo'lgan taqdirda u hozirgi etnografik chegara; turkiy elatlar hamda ugor-samodiylar va evenklar orasidagi chegara bilan mos tushadi.

Jung'oriyada va Yettisuvda manzil qurgan elatlarni ko'rib chiqamiz. Qora Irtish va O'rung'u havzalarida qorluqlar, Ili bo'yi Markaziy Tyan-Shanida turgashlar, ularning g'arbida shunishlar; janubi-g'arbiy Jung'oriyada neshetilar; Manas daryosi va undan sharqda xulushlar, janubi Jung'oriyaning sharqiy qismida bosimlar (basmallar), xuddi shu yerda O'rta Osiyo xunlarining qoldiqlari – shatolar yashaganlar.

---

<sup>7</sup> В.В. Бартольд, Киргизи, 19-б.

Berilgan ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda O'rxo'n bitiklari 710-711 yillarda turgashlar bilan urush olib borgan kengeres xalqi haqida darak beradi. Bular pecheneglardan boshqa qavm bo'lishi mumkin emas, chunki ular o'zlarini "kangar" deb ataganlar. Ularning yashash joyi Sirdaryoning o'rta va quyi oqimi bo'lgan.

Qora Irtishdagi qorluqlar bilan Sirdaryoning bo'ylaridagi pechenik-kangarlar oralig'i bepayon dasht bo'lib, o'sha vaqtga kelib bunda qipchoqlar egalik qila boshlagan. Hozirgi Qozog'iston cho'l mintaqasini Dashti qipchoq deb atalishi ana shundandir. Bu yerda qipchoqlar kangarlar (kang'li) bilan aralashib Sharqda qipchoq, Yevropada koman va Rossiyada – polovtsi deb atalgan xalqqa asos soldi. Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimi janubida turklashgan oriylar, parfyanalarning yaqin qondoshlari – turkmanlar – yoki g'uzlar makon tutgan. Shu bilan Markaziy Osiyoning yirik qabila ittifoqlari ro'yxati tamom bo'ldi. Ulardan ba'zi maydalarining nomlarinigina bilamiz: masalan, azlar, chiklar, abarlar va boshqalar. Juda ko'p mayda qabilalar Xitoy va Yevropa paleoetnograflari nazaridan chetda qolgan ko'rinadi. Bunga achinish kerak emas, chunki kim tarix sahnasida o'z rolini o'ynab o'tgan bo'lsa, voqeanomalardan o'rin olgan.

O'ng tutuqni 692 yilda tibetliklarni Tarim havzasidan haydagan va o'sha yerda tayyor qo'shin qo'mondoni bo'lib xizmat qilishda davom etgan Van Syao-tsze bilan aynanlashtirsa bo'ladi, shekilli. Agar shunday bo'lsa, imperiyaning Suyedagi (issiqqo'ldan shimoldagi qal'a) garnizoni bilan janglarda omadi yurishmay kelgan turgashlarning tezda kuchayib ketishi sababi ayon bo'ladi. Aytilganlardan ma'lum bo'ladiki, G'arbiy o'lkada uch tomonlama urush ketgan: imperiya lashkari Idukbashdagi jangda yutqazgandan keyin ham Karashar, Kucha, Koshg'ar, Xo'tan va Beytin (hozirgi Guchen yaqinida) ni qo'ldan chiqarmagan; g'arb turgashlar nazorati ostida, shimol-turklar tasarrufida edi. Chindan ham Sug'dgacha turklar yetib bormagan. Ularning qurbonlari Irtish yuqorisidagi qorluqlar, janubi-g'arbiy Jung'oriyaning Yulduz vohasidan ko'chib yuruvchi (dilu ittifoqiga kiruvchi turkiy qabilalar) xuvu va shunishlar bo'lgan edi. Jung'oriya


janubidagi bosmillarning bo'ysundirilishi (703 y.) ham ana shu chog'larga to'g'ri keladi.

**Nazorat savollari:**


- 1. Dashti Qipchoqning eng qadimgi aholisi kimlar edi?**
- 2. Dashti Qipchoqning eng qadimgi turkiy aholisining turmush tarzi qanday edi?**

**Mustaqil ish mavzulari:**

- 1. Dashti Qipchoqning eng qadimgi aholisining turmush tarzining tarixshunosligi.**



VI аср охирида Туркут салтанати



VIII юзйилликнинг биринчи ярмида Марказий Осиё



#### **4-mavzu. Markaziy Osiyoda ko'chmanchilar orasida islomning tarqalishi**

**Darsning o'quv maqsadi:** Dashti Qipchoqda islom dinining tarqalishi, dashti qipchoqda diniy hayot haqida talabalarga ma'lumot berish va ularda Dashti Qipchoqda islom dinining tarqalishi to'g'risida tasavvur uyg'otish.

**Tayanch iboralar:** arablar istilosi, xalifa, islom dini, islom ta'lioti, saxoba.

#### **Reja:**

- 1) Arablar bosqini va islomlashtirish siyosati.
- 2) Islomni O'rta Osiyoda tarqalishi.
- 3) Mo'g'illarning O'rta Osiyoga bosqini.

#### **Asosiy savollar:**

1. Dashti Qipchoqda diniy munosabatlarning o'rganilishi tarixi.
2. Dashti Qipchoqda shamanlik, xristianlik va boshqa dinlar to'g'risidagi fikrlar.
3. Dashti Qipchoqga islomning kirib kelishi va tarqalishi bo'yicha bildirilgan fikrlar.

1) VII asrning o'rtalarida arablarning mamlakatimizga tahdidi jiddiy tus oldi. Somoniylardan bo'lmish Yazdigar III ni quvib kelgan arablar 651 yili Marvni egallaydilar. Shundan keyingi 60 yildan ortiq vaqt mobaynida ular mintaqaning boshqa yirik markazlarini ham bosib olishga harakat qildilar. Faqat VIII asrning boshlariga kelibgina arablar birin ketin Xorazm, Buxoro, Samarqand, Shosh va Farg'ona kabi yerlarni bo'ysundira oldilar. Shu tariqa o'lkamiz milodiy 1-mingyillikda ilk bor tashqi tajovuzkor domiga tushib, endi Arab xalifaligiga qaram bo'lib qoldi. Demak, siyosiy mustaqillik, o'z yurtida davlatni boshqarish erki yo'qoldi.

Islom ta'limoti asosida mafkuraviy jihatdan jamiyatda bir butunlikka erishilgandi.

X asr davomida siyosiy boshboshdoqlik avjga chiqib markaziy hokimiyat mavqeiga putur yetadi. Ahmadning o'limidan keyin Somoniylar zarbining pasayishi mintaqaning Yettisuv va Qoshg'ar qismida boshqa bir siyosiy sulola Qoraxoniylarning kuchayib borishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgandi. Natijada X asr oxirida hokimiyat ularning qo'liga o'tadi. Qoraxoniylar mintaqaning Yettisuv, Qoshg'ar, Movarounnahr kabi qismlari ustidan hukmronlik qila boshlaydilar. Huroson, G'azna kabi viloyatlar esa xuddi shu davrdan boshlab mintaqada yetishib chiqqan yana bir siyosiy sulola G'aznaviylar tobeligiga o'tgan edi.

Ummaviy qo'shini Movarounnahrga kirganidan keyin turklar islom diniga duch keldilar. Itil bo'yida yashagan turk davlatida, ya'ni Bulg'or davlatida islom qabul qilindi. Itil bulg'orlariga X asrning boshlarida ularga musulmonchilik kirib keldi. U vaqt Xazar xonlari yaxudo, uyg'urlar moniy dinini sharqiy Yevropaga ketgan boshqa turklar xristianlikni qabul qilgan edi. Itil (Volga) Bulg'or davlati birinchilardan bo'lib, turk-islom davlati bo'ldi. Juma xutbalarida "Ollohim Bulg'or eltabariga (hukmdoriga) to'g'ri yo'l ko'rsat" deb iltimos qilishar edi. Hukmdor, otasi musulmon

bo'lmagani uchun uning ismini olishni istamadi, uning o'rniga Abdulloh ismini qo'lladi. Bulg'or turklari garchi o'sha vaqtlarda islomga to'g'ri kelmagan qadimiy urf-odatlariga rioya etishni davom qilsalar-da, islomiyat masalasida nihoyatda samimiy edilar, tunlar qisqa bo'lgani uchun bomdod namozini o'tkazib yubormaslik uchun ularning ba'zilar hech uxlamas edilar. Shu bilan birga ular musulmon bo'lmagan qo'shni turk o'lkalariga jihod uyushtirib turganlar. Darhaqiqat, xristian diniga o'tmoqchi bo'lgan boshqird turklarining bu niyatiga bulg'orlar g'ov bo'lgan edilar.

2) Boshqa tomondan movarounnahrdan musulmon turk nufuzi borgan sari ortar edi. Ba'zi shaharlarning, masalan Forob aholisining ko'pchiligi allaqachon

musulmon bo'lgan edi. Bu yerlarda yashagan turklar mol va pullarning ko'pini g'azot va jihodga ajratar, butparast qavmlarning musulmon qilish uchun yuborilgan g'oziylarni ta'minlab turar edilar. Ko'chmanchi qarluq va o'g'uz bo'ylari guruh-guruh bo'lib islomni qabul qildilar. Musulmon nufuzi ko'paygan turk shaharlarida islom madaniyati ilk buyuk mevalarini berdi. Bu yerlarda buyuk olimlar va allomalar yetishib chiqdi. Ular yuksak islom madaniyati namoyondasi sifatida, islomning tarqalishida buyuk rol o'ynadilar.

Turkiston va Afg'onistondagi turk yog'bu tigin va tarsonlari arablarning to'xtatishga muvaffaq bo'ldilar, lekin o'zaro kelishmovchilik natijasida zaiflashdilar. Bundan unumli foydalangan ummaviy qo'mondoni Qutayba Samarqand va Toshkentni ishg'ol qildi. Bu shaharlarda 1-jomelar qurilishi bilan turklar islom dinini o'rgana boshlaydilar. Bu vaqtda ikkinchi ko'kturk davlati tiklanib, quvvatlandi va ummaviylar qo'shini olg'a harakatdan to'xtadi. Kul tigin bu yerlargacha yetib kelib g'arbiy chegaralarning xavfsizligini ta'minladi. Ikkinchi ko'kturk davlati 745 yilda uyg'ur va basmil turklari tomonidan qulatildi. Natijada arablarning qarshisida faqat Turgash xoqoni, Sulush qoldi. Sulush o'z qo'mondonlaridan biri tomonidan o'ldirilgandan so'ng turk o'lkalari sharqdan ilgarilagan Xitoy bilan g'arbdan kelayotgan arab quvvatlari orasida qolib ketdi. Xuddi shu

vaqtda ummaviy xonadoni hokimiyatidan ag'darilib o'rniga Abbosiylar keldi va arablarning Turkistondagi sayohati xiyla yumshadi. Bundan foydalangan Xitoyliklarning katta qo'shini Toshkentgacha yetib keldi va ular Toshkent begi Bahodir Tudunni xiyla bilan xibsga oldilar.

Talas maydonidagi urushdan so'ng, Movarounnahrda musulmon dini o'rnatiladi va turklar Xitoy taxlikasidan uzoq vaqtgacha qutuladi. Ular bilan arablar o'rtasida dushmanchilik chiqarishi mumkin bo'lgan biror bir sabab yo'q edi. Ular arablar bilan o'zlariga yanada qulay shartlar asosida aloqalar o'rnatdilar. Arablar Movarounnahrda kelganlarida turklarning yuksak ahloqiy fazilatlar, katta tashkilotchilik va harbiy mahorat egasi ekanliklarini ko'rgan

edilar. Ularning shuhrati uzoq islom yurtlarigacha yoyildi, turklar tiliga tushdi. Musulmonlar turklar islomiga kirsalar boshqa hech qanday kuch islomga qarshi chiqa olmasligini sezdilar. Haqiqatdan ham Hazrati Muhammad o‘z vaqtida turklar haqida maqto‘v, mujdali so‘zlar aytganlari haqida rivoyatlar so‘zlashar, hatto Qur‘onning ba‘zi oyatlarida turklarga ishora qilganligi gapirilar edi. Mahmud Qoshg‘ariyning yozishicha, payg‘ambar shunday degan ekanlar: Janobi Haq shunday deydi: “Mening sharqda joylashtirgan turk ismli askarlarim bor, qaysi bir qavmda g‘azabga kelsam, turk askarlarimni u qavmga xujum qildiraman”. Yana shunday so‘zlar bor “turk tilini o‘rganing, chunki turklar juda uzoq vaqt davomida hukumron bo‘ladilar”.

Arab adabiyotchilari va tarixchilari turklar haqida maqto‘vga to‘la so‘zlar yozib qoldirgan.

Irgiz yaqinidagi Xorazmshoh va Juchi o‘rtasidagi to‘qnashuvning boshchisi xorazmshoh bo‘lgan edi. Bu hududda xorazmshoh qipchoqlar Juchimergitlar bilan urushayotgan edi. Har ikki tarafning askarlari kutilmaganda bir biriga to‘qnash kelib qolishdi. Shunda, Juchi xorazmshohga shuni aytishni buyurdiki, unga nisbatan otasining hech qanday adovati yo‘qligini va javoban sulton iymonsizlarni o‘ziga dushman deb bilgan. Urush xorazmshohga og‘irlik qila boshlaganda bu urushni iymonsizlarning islomga xujumi sifatida

ko‘rila boshlandi, biroq urushning asosiy sababi xorazmshohning davlatida musulmon savdogarning o‘limi bo‘lgan. 1218 yil mo‘g‘il sarkardasi Qoshg‘arda musulmonlarga o‘z ibodatlarini bemalol bajarishga imkon yaratib berdi. Bundan tashqari mo‘g‘illar armiyasida Kayalik va Olmaliqlik musulmon otryadlar va Chingizxonning o‘z xizmatidagi musulmon savdogarlar ham bo‘lgan. Ular ichida tojiklardan tashqari turklar ham bo‘lgan, mo‘g‘illar savdogarlarni “o‘rtoq” deb atashgan. Bularni bekorga o‘rtoq deb atashmagan, karvonni ta‘minlash uchun ular birlashishgan shunga bo‘lsa kerak ularni shunday atashgan.

3) Mo'g'illarga turklar boshqa xalqlarga nisbatan yaqinroq edi. Chingizxonning armiyasida turklar otryadi ko'p edi. Bundan tashqari turklarni mo'g'illarga ularning ko'chmanchi an'analari bir-biriga yaqin edi. Ammo shunga qaramay mo'g'illar turklar bilan birlashib g'alabani ulashishni hojlashmagan. Mo'g'illar turklar bilan muzokara o'tkazsalar ham bu oddiy nayrang bo'lgan. Misol uchun Samarqandni qo'lga olish uchun mo'g'illar turklardan iborat gornizondan foydalanishgan va g'alabaga erishgach 30 000dan iborat turk gornizonini qirib tashlagan. Xuddi shunday mo'g'illar Dog'istonda ham alanlarga qarshi yurish qilganliklarida. Alanlarga ittifoqdosh bo'lgan qipchoqlarni ham alanlarga yordam bermaslikni ta'kidlab ularga sovg'a salomlar yuborishgan. Sovg'alarni qabul qilgan qipchoqlar alanlarni tark etganlar. Biroq alanlarni mag'lubiyatga uchratgan mo'g'illar qipchoqlarga qarshi yurish qilib, bergan sovg'alardan ham ko'prog'ini undirib olganlar.

Chingizxonning avlodlarini hukmronligi mo'g'illargacha bo'lgan davrdagi davlat an'analariга yengil qaraydigan qipchoq dashtlarida, Volga havzasida va Qrimda juda kuchli bo'lgan.

Mo'g'illar tashkil etgan barcha davlatlarda Xitoydan tashqari kumush tangalar joriy etildi. Katta kumush tangalar dinor deb, kichkinasi dirxam deb atalgan. Juchi avlodlari davlatida bir kumush tanga 1/3 tilloga (misqol)ga teng kelgan bu O'rta Osiyo va Forsda joriy etilgan. O'sha davrda Juchi davlatida xalqaro savdo ishlari juda katta ahamiyatga ega ekanligini anglashimiz mumkin, ayniqsa Xorazmda lekin tangani tashqi ko'rinishdan, yozuv shaklidan xarflarning tashqi ko'rinishidan, rasmlari va hokazolardan har bir shaharning o'z an'analari bo'lganligini aniqlashimiz mumkin. Shu o'rinda savol tug'iladi, har bir shaharning madaniyatiga qarab Juchining davlatining madaniyati haqida bilib olsa bo'ladimi? Sarayda topilgan topilmalarga qarab Oltin O'rda madaniyati Tatarlar madaniyati haqida gapirilgan. Madaniyat taraqqiyoti (evolyusiyasi) islomning va turk tilining g'alabasi bilan yakunlangan biroq ilgari qaysi millat ustun kelganligini aniqlash uchun judayam ko'p tadqiqotlar o'tkazish kerak bo'ladi. Mo'g'illar hamma yerga olib borgan uyg'ur yozuvini

Oltin O‘rdaga ham olib kelganlar. Abdulg‘oziyning so‘ziga qaraganda mo‘g‘illar tili XV asrgacha ham muomaladan chiqib ketmagan, lekin buni isboti yo‘q. O‘zbekxonning o‘rdasiga tashrif buyurgan (Ibn Battuta) faqat turk so‘zlarini eshitgan ekan. Xatto saroy ayollari orasidagi “ulug‘ xotin va kichik xotin” degan so‘zlarni.

Islomning tarqalishiga Volga bo‘lg‘orlari emas, balki ko‘proq Xorazm va Markaziy Osiyo turklarining ta‘siri ostida bo‘lgan. Mahalliy turklar va qipchoqlar mo‘g‘illardan ilgari ikki tomondan Rossiya va G‘arbiy Yevropadan xristianlik ta‘siriga duchor bo‘lishgan. Bu targ‘ibot mo‘g‘illar davrida ham davom etganligi haqida XIII asrda kumanlarning (qipchoqlarning) lug‘atida turk tiliga o‘girilgan Yevagiliya teksti va katolik madhiyalari keltirilgan bu shundan dalolatki o‘sha davrda missionerlarning tilini yaxshi bilishganligi haqida bildiradi. Yana Ibn Battuta Qrimda, Kerch va Kaf o‘rtasida xristian qipchoqlarni ko‘rgan. O‘sha davrdagi musulmon olami madaniy ustunlikning ta‘sirida qipchoqlardan ham xristianlikga quchli e‘tiqod qiladigan xalqlar islomni tez qabul qilganlar. Ibn Battuta saroyda xristianlikdan islomga zo‘raki o‘tkazilganini ko‘rmagan ekan. Berkeni islomni qabul qilishida turli xil xabarlar tarqab ketgan. Abdug‘oziyni aytishicha u xon bo‘lganidan keyin Buxorodan kelgan ikki savdogar tufayli, musulmon bo‘lgan. Musulmon faqat xon emas balki uning ayollari, yaqinlari, a‘yonlari ham musulmon bo‘lgan, har bir amirni o‘zinin imomi va Qur‘on o‘rgatadigan maktablari bo‘lgan. Lekin shunga qaramay g‘ayridiniy urflarga amal qilinib kelinaverilgan. Xatto islom ruxsat bermaydigan urflar, ya‘ni ariqdagi suvlardan yuvinishga qattiq rioya qilingan.

Toktay xonning vafotidan so‘ng 1312 yili O‘rdadagi hukumronlik O‘zbekxonning qo‘liga o‘tadi (1312-1340y) 1320 yilda u islomning qabul qiladi va tezlik bilan uning Volgadan to Uralgacha bo‘lgan Dashti Qipchoq yerlari xalqlari ham musulmonlikni qabul qildilar.

## X U L O S A

Dashti Qipchoq hududiga Islom X asrda kirib keldi va birinchilardan bo‘lib bulg‘orlar qabul qildilar. Lekin rasman Islom Toktay xonning o‘limidan so‘ng O‘zbek xon tomonidan 1320 yilda qabul qilindi. Dashti Qipchoq aholisi Volgadan to Uralgacha bo‘lgan hududlarda ham musulmonlikni qabul qilganlar. Mana shu tariqa Islom batamom bu hududda qaror topdi. Islomning shu hududda tarqalishiga X asrda XIV asrgacha bo‘lgan vaqt kerak bo‘ldi. Bu jarayon Movarounnahrda nisbatan ancha sust bo‘lgan. Asosiy omil bunga Dashti Qipchoqning hududi, kattaligi, ko‘p xalqliligi va aholisining ko‘chmanchi turmush tarzi kechirishi. Bizga tarixdan ma’lumki, o‘troq xalqning madaniyati ko‘chmanchi xalqlarga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Ko‘chmanchi xalqlar biron joyda yangi madaniyatni o‘zlashtirishga ulgurmasdan boshqa hududlarga ketishga majbur bo‘lgan va natijada ularning madaniyati o‘troq xalqqa nisbatan sayoz bo‘lgan. Bundan tashqari islomgacha xristianlik keng tarqalgan edi. Qipchoq xalqlari Mo‘g‘ullarga nisbatan madaniyati kuchli bo‘lgan, biroq ko‘chmanchilarning hayot tarzi bir biriga o‘xshash bo‘lgan. Shu omil islomni tez tarqalishiga to‘sqinlik qilgan. Shunga qaramay islom bu hududda qaror topgan.

#### **Nazorat savollari:**

1. . Dashti Qipchoq aholisi qanday dinlarga e’tiqod qilishgan?
2. Markaziy Osiyo xalqlari orasiga islomning kirib kelishi va tarqalishi yuzasidan nimalarni bilasiz?

#### **Mustaqil ish mavzulari:**

1. Markaziy Osiyoning ko‘chmanchi aholisining diniy e’tiqodlari

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

- 1 Ziyozammat “O‘zbek davlatchiligi”
- 2 Gungur Erol “Qadimda turkiy xalqlar”
- 3 Bartold V. V- tom X qism, VI- tom “Sr. Aziya do XII veka do mongolskogo nashestviya”
- 4 Internet ma’lumotlari

## **5-mavzu. Markaziy Osiyo va Xorazmshohlar davlati. Nomad madaniyati.**

**Darsning o'quv maqsadi:** O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda Xorazmshohlar davlatining tutgan o'rni, unga qo'shni Dashti qipchoq va Shimoliy Kavkazda yashagan xazar xoqonligining tashkil topishi, o'rta asrlarda xazar xoqonligi va turkiy qavmlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti, xazar xoqonligining markaziy osiyo bilan munosabatlari masalasidagi fikrlar to'g'risida talabalarga ma'lumot berish.

**Tayanch iboralar:** Xazar xoqonligi, turkiy qavmlar, Quyi Volga, Xun, Sovar, ogur (o'g'ur), qabilalar, Fin-ugor, Idil-Kavkaz don orasi, skiflar, xunlar, soborlar, ovorlar, bulg'orlar, ko'k turklar, xazarlar, ogurlar (o'g'urlar), kumonlar, pecheneglar, qipchoqlar.

### **Reja:**

Kirish.

1. Markaziy Osiyo va Xorazm davlati siyosiy tarixi
2. Markaziy Osiyoga qo'shni Xazar xoqonligining tashkil topishi va undagi turkiy etnoslar.
3. Turk xoqonligining shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ylaridagi faoliyatida Xazarlarning o'rni.
4. Xazar xoqonligining Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari.
5. Xazar xoqonligida diniy hayot.

### **Asosiy savollar:**

1. Xazar xoqonligining paydo bo'lish shart-sharoitlari, uning rivojlanishi va tanazzuli.
2. Xazar xoqonligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
3. Xazar xoqonligi va Shimoliy Kavkazda yashagan turkiy etnoslar va ularning o'zaro munosabatlari.

**Kirish.**

Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganar ekanmiz albatta turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixini o'rganish biz uchun juda muhim vazifalar sirasidandir. Shu jumladan, turkiy xalqlarning o'tmishda barpo etgan davlat va davlat uyushmalari tarixini o'rganish talab etiladi. Chunonchi, qadimdan Markaziy Osiyo, Shimoliy Xitoy, Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ylari, Yevroosiyo dashtlari, Shimoliy Hindiston, Afg'oniston va Xuroson hududlari turkiy davlatchilik an'analari rivojlangan hududlar sanaladi. Ayniqsa, Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ylarida qurilgan turkiy davlatlar tarixi nafaqat milodning birinchi ming yilligini, balki miloddan avvalgi davrlarga ham borib taqaladi. Ushbu hududlarda mavjud bo'lgan turkiy davlatchilik an'analarning yuksak mahsuli bo'lmish Xazar xoqonligi tarixini har tomonlama yoritish bugungi kun tarixchilarining oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Ushbu hududlarda turkiy davlatlarning vujudga kelishi Markaziy Osiyodan davomli ravishda qabila va elatlarning g'arbga Yevroosiyo dashtlariga ko'chishi bilan bog'liq bo'lib kelgan. Bu jarayonlarning ibtidosi miloddan avvalgi bir ming yillikka borib taqaladi. Xususan, skiflar, xunlar, soborlar, ovorlar, bulg'orlar, ko'k turklar, xazarlar, ogurlar (o'g'urlar), kumonlar, pecheneglar, qipchoqlar kabi bir-birini ta'qib etuvchi etnoslarning g'arbga siljishi va Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ymlaridagi qavmlarni bo'ysundirib o'z hokimiyatlarini o'rnatishlari natijasida bu hududlarda turkiy qatlam nufuzi orta boradi. Natijada bu yerda dunyo miqyosidagi turkiy xoqonlik va xonliklar vujudga keladi va ular Yevropa va Osiyo o'rtasidagi munosabatlarda vositachilik rolini o'ynagan.

Xazar xoqonligi tarixi mamlakatimizda maxsus o'rganilgan emas. Mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan tadqiqotlar ham juda oz bo'lib, faqatgina M. I. Artamanov<sup>8</sup>, A. N. Gumilev<sup>9</sup> asarlari orqali bilishadi.

Xorijda esa bu masala bo'yicha bir asrdan ziyod vaqt mobaynida maxsus tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, Turkiya tarixchilarining bu sohada amalga oshirgan ilmiy ishlari diqqatga sozovor. Jumladan, turk tarixchilaridan A. N.

---

<sup>8</sup>Артаманов. М. И. История Хазар. Л.: Государственного Эрмитажа, 1962.

<sup>9</sup>Гумилев Л. Н. Соседи Хазар// страны и народы Востока. Вып.IV. Москва. Наука. 1965. С. 127-142, Гумилев Л. Н. Биография тюркского хана «Истории» Феосрилекта симокоты и в действительности// Византийский временник, I. XXVI, М.: Наука. 1965, Гумилев Л. Н.Қадимги турклар. М.: Наука. 1967.

Kurot<sup>10</sup>, I. Kafeso'g'lu<sup>11</sup> ishlari alohida ajralib turadi. Ayniqsa, A. N. Kurotning 1972-yilda nashr qildirgan “IV-XVIII asrlarda Qora dengiz shimolida Turk qabilalari va davlatlari” nomli turk tilida yaratilgan monografiyasi o'zining juda keng ko'lamda adabiyotlarning jalb qilinganligi bilan diqqatga sozovordir. Ushbu monografiyada Xazar xoqonligi tarixining bir necha qirralari ochib berilgan.

Aslida, Xazar xoqonligi va Kavkazda istiqomat qilgan turkiy qabilalar va davlatlar haqida juda ko'p yozma ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu haqda asosan lotin, yunon, arman, suryoniy, arab, fors va rus manbalarida ko'plab tariixiy qaydlar uchraydi. Ayniqsa, ular orasida Vizantiya (yunon) va arman manbalari o'z salmog'i bilan alohida ajralib turadi. Shuningdek, suryoniy manbalarni ham ular qatoriga kiritish mumkin. Bundan tashqari, turkiy manbalarda, shu jumladan, “O'g'uznoma” va boshqa dostonlarda ham turkiy qabilalarning g'arbga Kavkazga ko'chishiga doir ko'plab voqealar aks etgan. Xitoy yilnomalarida ham qisman turkiy etnoslarning Kaspiy atrofi va Shimoli Kavkazga siljishi o'z aksini topgan. Jumladan, Xazar xoqonligi hukmdorlarining Turk xoqonligiga borib tutashini, ularning Sosoniylar Eroni va Vizantiyaga qo'shni bo'lganligi haqidagi ma'lumotlar ham Xitoy yilnomalarida ham uchraydi.

#### I. Xazar xoqonligining tashkil topishi va undagi turkiy etnoslar.

Ilk o'rta asrlarda Kaspiy dengizining shimoliy-g'arbiy havzalarida, Volga daryosining quyi oqimidagi hududlarda bir necha turkiy qabilalar yashardi. Ular orasida Xazarlar o'zining ko'p sonliligi va harbiy jihatdan kuchliligi bilan ajralib turardi.

Xazarlar turli tillardagi manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra turkiy tilli qabila bo'lib, Quyi Volga, Kaspiy dengizining shimoliy-sharqiy hududlarining mahalliy aholisi edilar. Ularning kelib chiqish tarixi milodning ilk mingyilligi boshlaridayoq bu hududlarda yashayotgan xun, sovar, ogur (o'g'ur) kabi qabilalar bilan chambarchas bog'liq edi. Ko'pchilik lingvist-tilshunoslar fikricha Xazar

---

<sup>10</sup>Kurota. N. IV-XVIII yuzillarda Karadenezkuzeyindeki Turk kavimlari ve devletleri. Ankara . 1972.

<sup>11</sup>Kafeso'g'lu. Turk Milli kulturu. Istanbul.: 1993

qabilasining tili turkiy tillar guruhining g'arbiy lahjalari tarmog'iga mansub bo'lib, ushbu lahjada g'arbiy xunlar, sovirlar, ogur (o'g'ur)lar va bulg'orlar gaplashishgan. Xazar xoqonligi davridan saqlanib qolgan atamalar, toponimlar, kishi ismlarida g'arbiy lahjaga xos xususiyatlar ko'pchilikni tashkil etishi natijasida ushbu firga kelingan bo'lib, bu fikr birmuncha o'z tasdig'ini topgan. Ushbu lahjaning hozirgi kundagi vakillari Chuvashlar hisoblanadi.

Shuningdek fin-ugor (vengercha) va boshqa mahalliy tillar ham mavjud edi. Bu o'lkada sodir bo'lgan tarixiy hodisalarning tabiiy natijasi edi. Xazar davlatining asosiy hududi nazoratida bo'lgan Idil-Kavkaz don orasidagi hudud sharqdan g'arbga davom etgan buyuk ko'chish harakatlarining yo'li bo'lganligi uchun Xunlardan, Og'urlardan, Fin-ugorlardan, Avarlardan bu yerda qolgan guruhlar yashamoqda edi<sup>12</sup>.

Dastlab turk xoqonligining Kavkazda olib borgan harbiy-siyosiy harakatlarida faol ishtirok etgan va o'zining alohida siyosiy uyushmasiga ega bo'lgan Xazar qabilalari VII-asrning ikkinchi choragiga kelib o'z davlatini xazar xoqonligini qurishga muvaffaq bo'ldilar.

Xazar xoqonligining tashkil topish masalasi bo'yicha tarixchi olimlar tomonidan turlicha fikrlar bildirilgan. Bir qator tadqiqotchilarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, Kavkaz va Volga bo'ylarida turk xoqonligining zaiflashuvi bilan bog'liq ravishda Xazar xoqonligi paydo bo'lgan. Ya'ni, 630-yillarda turk xoqonligining Xitoy asoratiga tushib qolishi natijasida ushbu hududlarda xoqonlikning hokimiyati zaiflashib, bu yerlarda yetakchilik Xazar qabilasiga mansub xonadon qo'liga o'tgan. Ikkinchi bir fikr tarafdorlariga ko'ra esa, Xazar hukmdorlari ham Turk xoqonligi hukmdor xonadoniga mansub bo'lib, xonlikda alohida bir sulola sifatida ajralib chiqqan. Ya'ni Xazar xoqonlari ham Turk xoqonligi asoschilari bo'lmish Ashina qabilasiga borib taqaladi. Xitoy yilnomalaridagi ma'lumotlarga ko'ra esa tukiyun Turklarning esa (Xazar)urug'i

---

<sup>12</sup>Артаманов. М. И. История Хазар. Л.: Государственного Эрмитажа, 1962, С.132

vakillari boshqargan hokimiyat tashkil topadi va u hoqonlikning shimolidan Eronga xavf solib turadigan kuchga aylandi<sup>13</sup>.

Shuningdek, Xazarlarning masalasida boshqacha fikrlar ham bildirilgan. Bunga ko'ra, xoqonlikka nom bergan Xazarlarning Sabor (Sabir) turklarning davomi ekanligi musulmon geografi Ma'sudiy (X asr) keltirgan ma'lumotda ham ma'lum bo'ladi. Unga ko'ra, Eronliklar "xazar" deb ataydigan toifa turklar tomonidan "sobir" deb yuritiladi. Sabor nomi o'rniga Xazar iborasining ayni shu ma'noni berishi ham buni tasdiqlaydi. Xazarlarni tashkil qilgan aholining faqatgina qadimgi Sabor turklaridan bo'lmaganligi, asli Soborlardan bo'lgan Samandar va Bolonjor nomli ikki Xazar urug'idan boshqa, xoqonlik hududida istiqomat qilgan toifalar orasida turli turkiy guruhlarining yashaganligi shubhasizdir.

558 yildan keyingi yillarda Sosoniylar bilan jangga kirishgan Kavkaz hokimi bir qavm bo'lganligi bildirilgan Xazar (to'g'rirog'I Soborlar) "Xazar" nomi bilan Vizantiyada yaxshigina tanilgan edi. Faqat ayni paytda "turk" deb bilishar edi. Ushbu ma'lumotlar Xazar o'lkasining 576-yilda hokimiyati Qora dengizgacha yetgan Turk hoqonligi hududi tarkibiga olinganligini ko'rsatadi va xalq nomi qo'llanilishida turkiylar odatiga to'g'ri keladi. Shu tarzda, Xazarlar turk xoqonligining g'arbda eng chekka qanotini tashkil etganlar.

VII-X asrlarda kuchli ijtimoiy tashkiloti, jonli tijoriy faoliyati, diniy tolerantligi va iqtisodiy hayoti bilan Kavkaz va Qora dengizning shimoliy tekisliklarida Idil (Volga)dan Dneprga, Koma daryosidan Kiyevgacha cho'zilgan hudularda siyosiy hokimiyat o'rnatgan Xazar xoqonligi Shariqy Yevro'pa tarixida eng muhim rol o'ynagan turkiy davlat sifatida ma'lum. Xazarlarning hududlari shimoliy Kavkazda Serir o'lkasi, Avarlar, Alosnar, O'n O'g'urlar va kavkazning tog'li qabilalari, qrimda Gotlar, Itil Bulg'orlari, Volga bo'ylarida fin-ugor Burtoslar va boshqa turli fin qabilalari, Desna va o'rta Dnepr oralig'i atroflaridagi slavyan qabilalaridan Rodimichlar, Vyaticlar, Severiyanlar, Polioklar va

---

<sup>13</sup>Бичурин Н. Я. Собрание сведение о народах обитавших в средний азии в древни времена. Том II, М-Л.:Изд-во АН СССР 1950,с .28

boshqalar, Kubon tevaragidagi mojarlar (Vengerlar) va Kiyev hamda uning atroflari Xazar xoqonligi tarkibida edi<sup>14</sup>.

Xazarlarning bir necha shaharlari mavjud bo'lib, ular arab georafllari asarlarida ko'p bora tilga olinadi. Ularning eng muhim shahri, poytaxti Itil (hozirigi Astraxan shahri yonida) edi. Boshqa yirik shaharlari esa Belenjir (hoz.Andrey), Samandar (hoz. Kulyar), Kuban daryosining Qora dengizga quyilish joyidagi Tmutorokon, Volga qirg'oqlaridagi Sereshgin (arab manbalarida Madinat al-bayza) edi<sup>15</sup>.

Arab manbalarida ta'kidlanishicha, Xazar xoqonligining poytaxti Samandar shahri bo'lib, Arablar bu yerni zabt qilgach Markaz Itil shahriga ko'chiriladi. Itil yoki Idil so'zi qadimgi turkchada "katta daryo" ma'nosida bo'lib, Volga daryosiga nisbatan ishlatilgan. Xazarlarning ushbu shahri ham Volga daryosi bo'yida joylashganligi uchun ham Itil nomini olgan bo'lishi mumkin. Shuningdek, Xazar xoqonligining poytaxtida hukmdor yashaydigan qismi Xonbaliq deb atalganligi haqida ham ma'lumotlar mavjud. Ma'lumki, turkiy davlatchilik tizimida xoqon yoki xon yashaydigan shahar Xonbaliq deb atalgan va uning lug'aviy ma'nosi "Xon shahri" degan ma'noni bildirgan. "Baliq" so'zi hozirgi kungi ma'nosidan tashqari shahri ma'nosini bildirgan.

Xazar xoqonligining boshqaruv tizimi, davlatchilik an'anasiga diqqat qilinsa, uning qadimgi turkiy davlatchilik an'analari bilan chambarchas bog'liqligi ko'zga tashlanadfi. Xazar xoqonligida bosh hukmdor dastlab "xoqon" deb atalgan va u mutloq hokimiyatdga ega bo'lgan. Arab-fors manbalrida keltirilishicha "Xazarlarning eng katta boshqaruvchisi Xoqondir. Xoqon yuksak martabaga ega". Ushbu manbalarda ta'kidlanishicha, xazarlarda hukmdor, xoqon tayinlayotganida tomog'i ipak mato bilan siqilgan va undan necha yil muddatga xoqonlik qilishi so'ralgan, xoqon bo'layotgan kishi biror muddatni aytgan. Ushbu odat deyarli barcha qadimgi va o'rta asr turkiy davlatlariga xos bo'lgan. Xazar xoqonligining so'nggi yillariga kelib esa, hokimiyat boshqaruvi Xoqon - bek" deb ataladigan

---

<sup>14</sup>Kefeso'g'luI. Turk. Milli kulturu, Istanbul, 1993, 160 b

<sup>15</sup>Kefeso'g'lu I. Turk. Milli kulturu, Istanbul, 1993, 161 b

boshqaruvchi qo'liga o'tgan va u "xoqon" ustidan nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan. Xoqon-bek xoqonning nomidan hukmdorlik salohiyatini yuritgan va qo'shinni boshqargan. Xoqon bo'lsa butun hokimiyatni o'z qo'lida tutish bilan birgalikda, Xoqon bo'lsa butun hokimiyatni o'z qo'lida tutish bilan birgalikda passiv bo'lgan bundan tashqari. Xazar xoqonligi boshqaruv tizimida turkiy yabg'u, tudun, tarxon unvonlari ham qo'llanilgan bo'lib, ushbu unvonlar Turk xoqonligi va boshqa turkiy davlatlarga xosdir.

Xazar xoqonligi eng gullab-yashnagan VII-IX asrlarda janubda arab xalifaligi bilan janubi-g'arbda Qora dengiz orqali Vizantiya imperiyasi kabi o'z davrida dunyoning eng yirik davlatlari bilan chegaradosh bo'lib qoladi. Bundan bir asr oldin esa Sosoniylar bilan janubiy hududlar orqali ham ushbu mamlakatlarga chegaradosh bo'lgan. Xazar xoqonligi ushbu davlatlar uchun eng katta xavf bo'lib kelgan.

Sosoniylar davlati o'z vaqtida nafaqat Eron hududi balki, Xuroson, Kavkazning katta qismi (Armaniston, Gruziya, Ozorboyjon)ni, shuningdek, Arabiston yarim orolidagi bir necha o'lkalarni o'z ichiga olgan yirik imperiya edi. Sosoniylar davlati dastlab, Turk xoqonligi va Vizantiya imperiyasi ittifoqchiligi, keyinchalik arablar tazyiqi natijasida birmuncha zaiflashgan bir paytda Xazar xoqonligi unga raqib davlat sifatida maydonga chiqdi. Sosoniylar-Xazar xoqonligi raqobati asosan ikkalovining Kavkazda o'z ustunligini o'rnatishdan iborat bo'ldi. Shu tarzda VII asrning ikkinchi choragida yangi kuch sifatida o'rtaga chiqqan Xazar xoqonligi Sosoniylarning shimoldagi xavfli raqibiga aylandi.

Arman tarixchisi rohib Se beos (VII asr)ga va musulmon manbalariga ko'ra, turk xonadoni Ashina sulolasidan bo'lgan bir qo'mondonning boshchiligida bu vaziyat VII asrning ikkinchi yarmigacha davom etdi va Xazarlar G'arbiy Turk xoqonligining tashabbusi bilan sosoniylarga qarshi Vizantiyaga yordam berganlar. Xazarlarning 626-yilda Darbanddan o'tib Gruziyaga kirgan va Tbilisini qamal qilib, Ozorboyjonga yurishlar uyushtirgan bir paytda imperator Irakliy Qora dengizning sharqiy sohillarida edi. Xuddi shu paytda esa Vizantiya poytaxti Sosoniy-Avar ittifoqchilari tomonidan qamal qilinayotgan bir mahalda Vizantiya

imperatoru Irakliy Tbilisiga yaqinlashib boradi va Xazar hukmdori hamda G'arbiy Turk-xoqoni To'n Yabg'uning ukasi "Yabg'u" bilan ittifoq tuzishi natijasida to'plangan 40 ming otliq qo'shin bilan Eronning ichkarisiga yurishga muvaffaq bo'ldi. Shu tarzda Kichik Osiyo Eronliklar istilosidan qutildi va Sosoniylar ortiq qudratli davlatligini yo'qotdi hamda Xazar qo'mondoni Cho'rgan tarxon muvaffaqiyatli yurishlar amalga oshirayotgan bir paytda "Yabg'u" ham 629 yili Tbilisini zabt etib, ba'zi arman guruhlarini bo'sundiradi.

Xazarlar tarixini chuqur o'rgangan M. I. Artamanov o'zining "Xazar tarixi" nomli monografiyasida Vizantiy-Turk xoqonligi ittifoqi va uning Sosoniylar bilan olib borgan janglari haqida keng to'xtalib, ushbu harbiy harakatlarda Xazarlarning roli katta bo'lganligini ko'rsatib o'tadi<sup>16</sup>.

Tadqiqotga ushbu asarning bir bo'limini "Turkotlar-Xazarlar Kavkazbo'yida" deb nomlaydi va ushbu masalalarni chuqur tahlil qiladi. Xususan, u Turk xoqonligi qo'shinlari Xazarlar yordamida o'sha paytgacha Sosoniylarning shimoldagi muhim strategik joyi bo'lgan Tbilisining ittifoqchilar tomonidan zabt etilishi xazarlarning Kavkazdagi mavqeini mustahkamladi. Shuningdek Kavkazdagi o'zining eng mustahkam Darband qal'asidan ajralishi natijasida shimoldan bo'ladigan hujumlarga yetarli darajada qarshilik ko'rsatishga rahna sola boshladi.

Xazarlar VII asrning 30-yillarida Sosoniylar davlati Arablar tomonidan tor-mor qilinishgacha bo'lgan davr mobaynida Sosoniylarga qarashli Ozorboyjon hududlariga yurish uyushirdilar va bir necha marotaba muvaffaqiyatli janglar natijasida bu yerdagi bir qancha shaharlarni qo'lga kiritdilar.

Xazar xoqonligi Eronga qarshi Vizantiyaning eng yaxshi ittifoqchisi edi. Turk Xoqonligi-Vizantiya hamkorligi soyasida zaiflashgan sosoniylar imperiyasi 634-637 yillarda musulmon qo'shinlari tomonidan tor-mor qilinib, Eron hududi arablarning qo'lga o'tdi. Arablarning istilo harakati bir tomondan Armaniston yo'li bilan Kavkazga qarab, yana bir tomondan esa Suriya tarafidan kichik Osiyoning ichkarisiga yo'nalgan Vizantiya-Xazar xoqonligi ittifoqi yanada

---

<sup>16</sup>Артаманов. М. И. История Хазар. Л.: Государственного Эрмитажа, 1962, С.133-141

jiddiylashdi. VII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran kun sayin kuchayib, VII asrda ham davom etib, siyosiy manfaatlarni hamkorligi ikki tomonning hukmdor xonadonlar orasida nikohlar yo'l ochadigan darajada ahamiyatga ega bo'ldi. Imperator Yustin II (685-695 va 705-711) va Konstantin V (741-775) xazar malikalariga uylandilar. Konstantinning malika Chechakdan tug'ilgan o'gli tarixda "Xazar Leon" laqabi bilan tanilgan imperator Leon (775-780) Xazar xoqonining nabirasi edi. Shu tariqa imperatorlar ayni paytda o'z ichki harbiy siyosiy maslalarini hal etishda Xazar xoqonligi ko'magidan foydalanardi. Leonning xotini Irinaning keyinchalik "Avgusta" yoki biror imperator noibi sifatida emas, yolg'iz boshiga barcha salohiyatlarga ega "bosiliy" (hukmdor) deb e'lon qilinishi Vizantiya va Rim tarixida ilk marta yuz bergan hodisa harholda Xazar-Turk ta'siri bilan izohlanishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, Vizantiya va Xazar xoqonligi manfaatlari to'qnash kelgan hollar ham bo'lgan. Ayniqsa, bir vaqtlar Vizantiya imperiyasi qo'l ostida bo'lgan shimoliy Qora dengiz bo'ylaridagi hududlar, Arab dengizi qirg'oqlari, Qrim yarim orollari, Bospor, sugdee, Tavrikaning katta qisimi 670 yillarga kelib Xazar xoqonligi qo'l ostiga o'tadi. Xazarlar bu yerlarda o'z noiblari qilib tudunlarni tayjinlaydi. Ushbu hududlarda o'z mavqeini kuchaytirish uchun Vizantiya-Xazar raqobati ko'p yillar davom etadi. Biroq, Xazar xoqonligining bu yerdagi mavqey anchagacha saqlanib qoladi. Ma'lumki, ushbu yarim orol va shaharlarda asrlar bo'yi grek koloniyalari qurilib, ular aholisining asosiy qismini greklar tashkil etardi. Shu bilan birgalikda, bu hududlarga turkiy xalqlarning ajdodlari bo'lmish skiflar, xunlar, sovirlar va boshqa bir necha turkiy qabilalar kelib joylashgan bo'lib, Xazar xoqonligi davrida turkiy etnoslar nufuzi yanada oshadi. Qisqacha qilib aytganda, xazarlarning ushbu hududlarni egallashu bu yerlarning turkiylashuvining jadallashishiga keng yo'l ochgan.

665-yillarda Qora dengizning shimolidahi "Buyuk Bulg'oriya" davlatining qudratli Xazar xoqonligi qarshisida yengilib, parchalanishi natijasida Dneprgacha cho'zilgan yerlar Xazarlar qo'lga o'tdi va Xoqonlar Kavkazning janubida ham arablar yurishining oldini to'sdi. Arablarning Xazarlar bilan to'qnashuvi shiddatli

va davomli bo'ldi. Ular o'rtasidagi ilk yirik jang xalifa Usmon davrida 651-yilda Salmon Rebla rahbarligida amalga oshirildi. Darbandni oshib o'tib, Xazar poytaxti Bolonjargacha borib yetgan arab qo'shinlari orqaga qaytarildi va Xazarlar janubga harakat qilib, Armanistonni egalladilar. Shundan keyin yarim asrdan ko'p davom etgan chegarabo'yi to'qnashuvlarni arablarning yirik hajmdagi yurishlari ta'qib qilindi. Ushbu harbiy safarlarning boshida Ummaviylarning mashhur qo'mondonlaridan biri Maslama ibn Abdul-Malik (xalifa Volid I ning birodari, 705-715) turar edi. 707-710, 711 Darband atroflarigacha yetib borgan Maslama 714 yilda Darbandni bosib oldi. Faqat, uning Istanbulga yurish uchun Kavkazdan chiqib ketishi natijasida Xazarlarning hujumi qarshisida arab qo'shinlari orqaga chekindi. 722-yilda Armaniston valiyi al-Jarrox ul-Hikomiy Xazar o'lkasiga katta muvaffaqiyatlar qozondi. 730-yilgacha davom etgan o'zaro harbiy hujumlar natijasida arablar takror Ozorboyjonga chekindilar. Faqat, eng muhim muvaffaqiyatlarni Armaniston va Ozorboyjon valiyi Morvon ibn Muhammadning 737-yildagi yurishlari natijasida qo'lga kiritildi. Shundan keyin xoqonning jamiyatni qabul qilishga majbur bo'lganligi aytiladi. Rivoyatlarga ko'ra, biroz o'tmasdan Xazar xoqoni eski diniga qaytgan. Arab xalifaligida Abbosiylarning hokimiyatni egallashi bilan Arab-Xazar to'qnashuvi zaiflashdi. 760-yillardan keyin Xazarlarning Tbilisini qaytadan qo'lga olishi, Armaniston mintaqasini egallashi manbalarda alohida ta'kidlab o'tiladi. Ushbu to'qnashuvlar sababli manbalardan ma'lum bo'lishicha xalifa, al-Mansur tomonidan 758-yilda Daryolda qurilgan Armaniya viloyati sharqida Valiy Yazid ibn Usayd xoqon bilan kelishuv uchun xalifaning orzusidan kelib chiqib bir Xazar malikasiga uylanmoqchi bo'ladi, tarxonlar yo'l boshchiligida katta sepi bilan bardoq (viloyat markazi)ga keltirilgan kelinning tug'ish paytida bolasi bilan birgalikda o'lishi natijasida Xazar xoqoni buning haqiqatdan xiyonat bo'lishi mumkinligi fikriga borafi va as-tarxon boshchiligidagi Xazar qo'shinlari xalifalik hududiga yurish uyushtiradi.

Arab xalifaligining eng kuchaygan davrida arab qo'shinlariga qarshi tura olishi Xazar xoqonligining qudrati qay darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Xazarlarning Ummaviylar uchun munosib va kuchli raqib bo'lganligi o'sha davr

arab manbalarida keng o'rin olgan. Jumladan, arab tarixnavisligining mashhur asarlarida IX asrga mansub Abu Ja'far at-Tabariyning "Tarix ar-rusul va-l-muluk" (Mamlakatlar va payg'ambarlar tarixi) va Bolog'uriyning "Futuk al-Buldon" (mamlakatlar fathi) asarlarida arab-xazar janglari xazarlarga mansub lashkarboshilar, Ummaviy va Abbosiylar qo'shinlarida xazarlarning roli haqida birmuncha ma'lumotlar aks etgan. Shuningdek, IX-X asrlarda Sharqiy Yevropada, Qora dengiz bo'ylari, Kavkaz va janubiy Rossiya dashtlari, Kaspiy bo'ylari va Markaziy Osiyoga sayohat qilgan arab-fors geograflari asarlarida ham xazarlar haqida ko'plab ma'lumotlar aks etgan. Ushbu sayyohlarning xazarlar yashaydigan o'lkalarga sinchkovlik bilan e'tibor qaratib, xazarlar haqida miridan-sirigacha ma'lumotlar topishiga o'sha payt arab hukmdorlarining ular haqida imkoni boricha xabardor bo'lishni xoxlashi ham sabab bo'lgan. Chunki, Xazarlar arab hukmdorlari uchun ko'p yillar davomida asosiy raqib sifatida bo'ldi va arablarning Kavkaz va Volgabo'yiga chiqishiga asosiy to'siq bo'lib qoldi. Bu yerlarga keyinchalik ham arablarning kirib bora olmaganligining bosh sababchisi xazarlardir.

Yuqorida keltirilgan arab muarrixlari va arab-fors geograflari asoslarida xazarlar haqida berilgan ma'lumotlarning aksariyatidan xazarlarning turkiy etnos bo'lganligiga yana bir misol bo'ladi. Ushbu asarlarda xazar hukmdorlarining "xoqon", "xoqonbek" deb atalishi, "Tarxon", "bek" kabi unvonlarning Xazarlarda ham qo'llanilishi qayd etiladi. Ma'lumki, ushbu unvonlar Turk xoqonligi boshqaruvida keng qo'llanilgan bo'lib, ularning deyarli barcha turkiy qabilalar boshqaruvida amal qilinganligiga doir ma'lumotlar uchraydi. Demak, Xazar xoqonligida ham ushbu unvonlarning qo'llanilganligi ularning turkiy davlatchilik an'anasiga ega bo'lganligini tasdiqlaydi.

Shu tariqa, IX asr oxirlariga bir manbada xoqon "25 qirol" ning boshida turganligi aytib o'tilgan. Xazarlarni ushbu siyosiy quvvatga erishtirgan asosiy imkoniyatlardan biri xoqonlikning geografik joylashuvi jihatidan o'rta asrlarning balki eng jonli tijoriy faoliyat mintaqasining markazida joylashganligi edi. Xazar o'lkasi Skandinaviyadan Volga va Koma bo'ylaridan mo'ynalar (somur, tulki, olmaxon va b.) va boshqa tijoriy buyumlar (asal, yelim), Xitoydan va Turkistondan

ipak va gazlamalar, Vizantiyadan turli san'at va bezak buyumlari keltirilar, Itil va boshqa Xazar shaharlarida sotilardi. Ushbu turli-tuman va qimmatbaho buyumlar Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq mintaqalari orasida bir tomondan ikkinchi tomonga oqardi<sup>17</sup>.

## **II. Turk xoqonligining Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz o'laridagi faoliyatida Xazarlarning o'rni.**

552-yilda tashkil topib, qisqa muddat ichida nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yevropa hududlarda eng qudratli davlatga aylangan Turk xoqonligi (552-744) Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ylari bilan aloqasi 570-yillarga to'g'ri kelib, ushbu munosabatlar ko'proq bu hududlarda nufuzi yuqori bo'lgan Vizantiya imperiyasi vositasida amalga oshirildi.

VI-VII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida tuli siyosiy-etnik jarayonlar yuz beradi. Ana shu jarayonlar asosan, VI asr birinchi yarmigacha Markaziy Osiyo hududida eng qudratli davlat tariqasida faoliyat yuritgan Turk xoqonligi bilan bog'liq ravishda rivojlanadi. Ushbu davlatning asoschilari qadimgi O'rxun-Enasoy bitiktoshlari deb yuritiluvchi manbalarda Ko'k turklar, Xitoy yilnomalarida ashina sifatida aks etgan.

Turk xoqonligi tashkil topgach qisqa muddat ichida butun Markaziy Osiyo hududini o'z ichiga olgan yirik davlatga aylandi. Xoqonlikning eng yuksalgan paytlarida uning hududi g'arbda Qrimdan to Sharqda Koreys ko'rfazigacha, shimolda Volga va Ural bo'ylari, Yenisey havzalari hamda Baykal ko'lidan to janubda Shimoliy Xitoy, Tibet va Kashmirmigacha cho'zilgan bo'lib, uning tarkibiga Markaziy Osiyo mintaqasidan tahqari janubi-g'arbda Kavkaz, Ural va Volgabo'yi, shimoli-sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Afg'onistonning markaziy va shimoliy hududlari kiradi. Xoqonlik o'z davrining eng yirik va qudratli davlatga aylanishida Markaziy Osiyodagi turli xalqlar, turkiy va g'ayri turkiy xalqlarning yagona bir davlatga birlashtirilishi sabab bo'ldi.

Sosoniylar bilan bevosita qo'shni bo'lib qolgan xoqonlikning Eronga yuborilgan elchilarining o'ldirilishi va sug'diy Moniox boshchiligida ipak tijoratini

---

<sup>17</sup>Артаманов. М. И. История Хазар. Л.: Государственного Эрмитажа, 1962, С.142-144

yo'lga qo'yish maqsadida yo'llangan elchilarda Eron shohining qo'pol munosabatda bo'lishi, hatto ular keltirgan ipak matolarini yoqishga buyurishi oqibatida turklar va Sosoniylar o'rtasidagi ittifoqqa rahna solinadi. Turk xoqonligi Eron bilan orani uzib Vizantiya imperiyasiga yaqinlashish u bilan savdo-sotiq, asosan ipak tijoratini rivojlantirish uchun Moniox boshchiligida 567-yilda elchilar yuboradi. O'z navbatida Vizantiya imperatori Yustin II 568-yili Zemari boshchiligida Turk xoqonligiga elchililarni yuboradi. Ular Istami Yabg'u tomonidan Ektag (Oqtog') qarorgohida qabul qilinadi. Shu paytdan boshlab ikki davlat o'rtasida ittifoq vujudga keladi. Turk-Vizantiya ittifoqi ikkalasi uchun ham mushtarak raqib bo'lgan Sosoniylar Eromiga qaratiladi. Eron-Vizantiya orasida 571-yilda jang bo'lib boshlangach, g'arbga yurishni ettirayotgan Istami Yabg'u shu yili Shimoliy Kavkazdagi Kubon daryosi havzasi va Ozorboyjonni qo'lga kiritadi. Natijada, Xitoy yilnomalarida bayon etilishicha bu yerda tukyu (turk)larning gesa (xazar) urug'i boshqargan hokimiyat tashkil topadi va u xoqonlikning shimoldan Eronga xavf solib turadigan kuchiga aylangan. Boshqa tarafdin esa 567-yillardanoq Sosoniylarga qarshi Amudaryo yo'nalishi bo'ylab yurish uyuhtira boshlagan Istami Yabg'u bu jabhada katta muvaffaqiyatlar qozonib, Toxaristonni olgach, Turk xoqonligining janubi-g'arbiy chegarasi Amudaryo bo'lib qoladi. Bu voqea O'rxun-enasoy bitiktoshlarida "Temir qopig'" o'lkasini qo'lga kiritish tarzida tasvirlanadi.

VI asr oxirgi choragiga kelib Turk-Viznatiya ittifoqida ham bir qator kelishmovchiliklar ro'y beradi. Avvalo unga Vizantiya bilan yaqin munosabat o'rnatgan Muqon xoqonining 572-yilda vafot etishi va uning o'rniga birordari Tospor(xitoy yilnomalarida Tobo) ning (572-581) xoqon bo'lishi ham ta'sir ko'rsatgan bo'lishi kerak. Ehtimol, bu aloqalarning boshida turgan Istami Yabg'uning ham 576-yilda vafoti Turk-Vizantiya ittifoqiga ta'sir qilgandir. Turk xoqonligining markaziy hokimiyatida El xoqon hukmronligi davom etayoyotgan bir paytda Istaming evarasi To'n Yabg'u (xitoy yilnomalarida Tun Ilg'u, 618-630) o'n o'q boshqaruvi (g'arbiy turk xoqonligi) davrida xoqonlikning g'arbdagi nufuzini yanada mustahkamalaydi. U hukmronlik qilgan davrda Turk

xoqonligining chegarasi g'arb va janubi-g'arbda, janubi-sharqiy yevropa dashtlari Kavkaz, Volga bo'yi, Gurgon, Marv, Hind daryosining yuqori havzalari, shimoliy Hindiston va Afg'onistonning aksariyat viloyatlarini o'z ichiga olgan<sup>18</sup>. Uning muvaffaqiyatlaridan biri 627-628 yillarda shod unvonli o'g'li boshchiligidagi Turk xoqonligi qo'shinlari Janubiy Kavkazga uyushtirishi va bu yerdagi Sosoniylar qo'shinini yengib Tbilisi shahrini qo'lga kiritishdir<sup>19</sup>.

### **III. Xazar xoqonligining Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari.**

VII-X asrlarda kuchli ijtimoiy –siyosiy tizimi, faol tijoriy faoliyati, iqtisodiy hayoti bilan Kavkaz va Qora dengizning shimoliy tekisliklarida Idil (Volga)dan Dneprga, Koma daryosidan Kiyevgacha cho'zilgan hududda siyosiy hokimiyat o'rnatgan Xazar xoqonligi Sharqiy Yevropa tarixida eng muhim rol o'ynagan turkiy davlat sifatida ma'lum.

Xazar tarixining haqiqiy xoqonlik davri 630-yildan boshlanadi. Xazarlar Shimoliy Kavkazdagi Bulg'or o'lkasiga bostirib kirishi natijasida VII asrning o'rtalarida bu yerdagi Bulg'or xonligi quladi va bulg'or qabilalari Don Kubon daryolari oralg'idagi ona yurtlarida Xazar xoqonligi tarkibiga kirdilar haqiqatdan, 8-9 asrlarda xoqonlik musulmon tarixchilarining ma'lumotlaridan ham ayon bo'lishicha, xitoy va Vizantiya bilan teng keladigan bir siyosiy kuch o'laroq Sharqiy Yevropaning eng yirik davlati edi. Hududlari g'arb shim,ol yo'nalishida kengayib, Shimoliy Kavkazda Sarir o'lkasi, Avarlar,Alonlar, O'n-ug'urlar va Kavkazning tog'li qavmlari, Qrimda Gotlar, Itil bulg'orlari, Volga bo'ylaridaFin-Ugor va boshqa turli Fin qabilalari, Desna va o'rta Dnepr oralig'I atroflaridag Slavyan qabilalarjidan Vyaticlar, severiyanlar, Poshonlar va boshqalar Kubon tevaragidagi Mojarlar (Vengerlar) va Kiyev atroflari Xazar xoqonligi tarkibida edi.

Xazarlarning bir necha shaharlari mavjud bo'lib ularda Markaziy Osiyodan botrgan Tijoratchilar bilan gavjum edi.Ular orasida Xorazmlik savdogarlari ko'pchilikni tashkil qilagan.Ular Buyuk Ipak Yo'li maskanlarining mohir

---

<sup>18</sup>Гумилев Л. Н. Соседи Хазар// страни и народов Востока. Вып. IV. Москва. Наука. 1965. С. 67

<sup>19</sup>Артаманов. М. И. История Хазар. Л.: Государственного Эрмитажа, 1962, С.150-151

savdogarlari sifatida Xazar xoqonligida ham tanilib mavjud shaharlarda o'z koloniyalarni tashkil etgan edilar. Xazar xoqonligi boshqaruv tizimida Markaziy Osiyo turkiy qabilalari xisoblangan: Qarluqlar, Kimaklar va o'g'uzlarga xos bo'lgan "xoqon yoki elig bilan birgalikda "bek" hukmdor sifatida turgan. Shod, Tarxon, tudun unvonlari ham mavjud bo'lgan.

Xazar xoqonligining Markaziy Osiyo davlatlari bilasn aloqalari dastlab Turk xoqonligi doirasida bordi. Xoqonlik ulardan Vizantiya va Sosoniylar eroniga qarshi kuch sifatida foydalandilar. Turk xoqonligining xitoy asoratiga tushib qolgan davrida, ya'ni 630-680 yillarda esa Xazarlar mustaqil xoqonlikka ylangach ularning sharqdagi hokimiyati Markaziy Osiyoning shimoliy g'arbiy chekkalariga yoyildi. Hatto, ular bir muddat quyi Sirdaryo havzalaridan o'g'uz qabilalarini o'zlariga bo'sundirdilar. O'g'uz yabg'usi xazar xoqonining tobesiga aylandi. Jumladan, Saljuqiylar davlatining ilk tamal toshlarini qo'ygan saljuq va uning otasi To'qoq davrida o'g'uzlarning yabg'usi Xazar xoqonining noibi (malik) bo'lganligi manbalardan ma'lum. Hatto, "Kitob al-faxriy" asarining muallifi ibn Tiqboqa Saljuqni "Xazar turklaridan" deya bahs yuritgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, Saljuqning Mikoil, Isroil, Muso kabi o'g'illarining ismlari yaxudiyga xos harakterli ekanlig o'g'uzlarning Xazar xoqonligi ta'sirida bo'lganligi natijasidir. Ma'lumki, Xazar xoqonligida yahudiy dini qabul qilingan bo'lib bu e'tiqod ayniqsa xoqonlar va saroy amaldorlari orasida keng yoiyilgan edi.

Xazar xoqonligi X asrning o'rtalaridan e'tiboran o'z qudratini yo'qota boshladi. Avvalo, Xazar xoqonligidagi qo'shinlar turli elatlardan tashkil topgan yollanma askarlar bunda katta rol o'ynadi. VIII asrning o'rtalaridayoq yollanma qo'shinlarining katta qismini Xorazm va atrofdan kelgan musulmonlar-Xolis (Xvolis)lar tashkil etardi. Masalan, 762-764 yillarda Xazar qo'shinlarining lashkarboshilaridan biri bo'lmish As-Tarxon aslida o'z yurtdoshlariga rahbarlik qiladigan Xorazm bir qo'mondon edi. Shuningdek, Sirdaryoning o'rta va quyi havzasidan kelgan turkiy pecheneg qabilasining Xazar o'lkasiga keng ko'lamda yoyilishi, Kobor, Mojoyor kabi elatlarning Xazar o'lkasini tashlsb g'arbga siljishi natijasida davlatning harbiy kuchi susaydi. Slavyan qabilalari vaziyatdan

foydalandilat. 910, 913, 940 yiillarda ularning xazar xoqonligi ichkarisiga suqilib kirib, talon taroj qilishi, nihoyat Kiyev Rusi davlatining hukmdori Svyatoslav 965-yilda Xazar poytaxtini qo'lga kiritib, boshqa shahrlarni vayron qildi. Xazarlar tarqalib ketdi va bir qismi Tmutorokon shahrida joylashdilar.

Xazar xoqonligining Markaziy Osiyo davlatlaribilan aloqalari faqatgina siyosiy bo'lib qolmasdan ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan uzluksiz davom etgan. Iqtisodiy aloqalar uchun muhim vosita bo'lgan Buyuk Ipak Yo'lining shimoliy tarmog'I Uzoq sharq-Xitoy-Janubiy Sibir-Oltoy-Yettisuv –quyi Sirdaryo-Orolbo'yi-Xorazm-Volga-Shimoliy Kavkaz-Qora dengiz bo'ylari-Bolqon-Sharqiy yevropa trassasining asosiy qismi Markaziy Osiyo hududidan o'tganligi ham ushbu aloqlarning jnlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Shimoliy Kavkaz, Qora dengiz bo'yi xalqlari bilan Markaziy osiyo xalqlari o'rtasida etno-madaniy aloqlara uzluksiz davom etganligini tasdiqlaydiagan asosiy faktorlardan biri bu mazkur hududlarda ilk o'rta asrlarga taalluqli ko'plab turkiy-run yozuvlarining topilishidir. O'tgan bir asrga yaqin vaqt mobaynida Qora dengiz bo'ylarida, Don, Ko'bon daryolari havzalarida, Shimoliy Kavkazdagi shahar xarobalaridan turkiy-run bitiklari spool va turli ro'zg'or buyumlarining topilishi va ularning Markaziy Osiyo qadimgi turk yozuvlari, Yenisey, Orxun, Tolos, Farg'ona, Orolbo'yi bitiklari bilan umumiy birlikka ega ekanligi etno-madaniy aloqalarga yaqqol dalil bo'lib xizmat qiladi. Qora dengiz bo'yi, Shimoliy Kavkaz hududida tashkil topgan turkiy davlatlarning davlatchiligining yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, turk xoqonligining ushbu hududlarida o'z hukmronligini o'rnatish natijasida tarqala boshlagan deb xisoblanadigan qadimgi turk bitiklari Xazar xoqonligi davrida ham rasmiy yozuv vazifasini bajarganligi arxeologik qazishmalar natijasida aniqlangan.

#### **IV. Xazar xoqonligida diniy hayot.**

Xazarlarning hududlari g'arb va shimol yo'nalishida kengayib Shimoliy Kavkazda Sarir o'lkasi, Avarlar, Apollar O'n-Og'urlari va Kavkazning tog'li qavmlari, qrimda Gotlar, Itil Bulg'orlari, Volga bo'ylarida Fin-Ugor burtoslar va boshqa Fin qabilalari, Desna va o'rta Dnepr oralig'I atroflaridagi Slavyan

qavmlaridan Rodilglar, Vyatichlar, Severiyanlar, Tosmotlar va boshqalar, Kubon tevaragidagi Mojarlar (Vengerlar) va Kiyev hamda atroflari Xazar xoqonligi tarkibida edi.

Arab manbalarida keltirishicha Xazar xoqonligining poytaxti Semendar shahri bo'lib, arablar bu yerni zabt qilgach markaz Itil shahriga ko'chadi. Itil yoki idil so'zi qadimgi turkchada "katta daryo" ma'nosida bo'lib, Volga daryosiga nisbatan ishlatilgan, Xazarlarning ushbu shahri ham Volga daryosi bo'yida joylashganligi uchun ham Etil nomini olgan bo'lishi kerak.

Xazar xoqonligi diniy hayotiga nazar solask, bu yerda o'ziga xos bir tolerantlik, diniy bag'rikenglik ko'zga tashlanadi. Xoqonlikning rasmiy dini Yahudiylik bo'lsa ham, bu yerda mavjud shaharlarda musulmonlar ham ko'plab topiladi. Xazar xoqonligining asosiy iqtisodiy tijoriy ishlarini musulmon ahli yuritar edi. Musulmonlar masjid va diniy marosimlarini o'tkazish imkoniyatlariga ega edilar. Shuningdek xoqonlikda xristianlik dini ham keng yoyilgan bo'lib, aholining ma'lum bir qismi ushbu dinga e'tiqod qilar edi. Vizantiyaliklar bu yerda xristianlikni targ'ib qilar edilar. Biroq Xazar hukmdorlari xristianlikni rasmiy din sifatida qabul qilmagan.

Yahudiy dinining tarqalishi haqida gapirilganda xazarlar yirik davlat tashkil etgach, turli tillarda gaplashuvchi va har xil dinlarga e'tiqod qiluvchi aholining bitta davlat tarkibida yashah zarurati rug'ildi. Bu esa hukmdorlar va amaldorlar uchun dinlardan birini tanlash zaruratini keltirib chiqardi. Xazarlarning yahudiy dinini qabul qilishlari Bulon nomli hukmdor faoliyati bilan bog'liq. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra Bulon xoqon VIII asrda Xersonis (Janubiy Qrim)da dinini o'zgartirgan<sup>20</sup>. Ba'zi musulmon geograflari keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, xazarlar Abbosiylar xalifasi Xorun ar-Rashid davrida (786-809) yahudiylik dinining mazhblaridan birini qabul qilganlar. "Qoray" deb nomlangan ushbu mazhab keyinchalik ham Kavkazda yashovchi turkiylardan biri yahudiy diniga e'tiqod qiluvchi qorayilar orasida yashab hozirgi kungacha yetib kelgandir.

---

<sup>20</sup>Kafeso'g'lui. TurkMillikulturu. Istanbul.: 1993. 162 b

## Xulosa.

Xulosa qiladigan bo'lsak xazar xoqonligining ichki siyosatida turkiy qabilalarni birlashtirishi, hokimiyatni kuchaytirishi uchun davlat boshqaruvini mukammallashtirish, buning uchun esa qadimiy davlatchilik an'alaridan foydalanishga harakat qilinganligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, xoqonlikda shaharsozlikka katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, xoqonlikning Samandar, Belonjor, Itil kabi markaz shaharlari bo'lgan va ular o'z davrining yirik tijoriy markaziga aylanganlar.

Xazar xoqonligining tashqi faoliyatida esa Arab istilosiga qarshi kurash, Vizantiya imperiyasi bilan do'stona aloqalar o'rnatish masalalari bosh omil bo'lgan, shuningdek, Xazar xoqonligi Volgabo'yi, Qora dengiz, kavkazlari va Sharqiy yevropada o'z ustunligini o'rnatish uchun bir qator harbiy yurishlar tashkil qilgan. Bir necha slavyan qabilalarini, shu jumladan Rus qabilalari qarshiligini sindirib ularni doimiy nazoratda tutib turish uchun Janubiy Rossiya dashtlariga yirik harbiy yurishlar uyushtirgan.

IX-X asrlarga kelib Xazar xoqonligi inqiroz yo'liga kirdi. Arablarning istilochilik harakatlari, Kiyev Rusi davlatining kun sayin kuchayishi Xazar xoqonligining IX-X asrlarda zaiflashuvining omillaridan biri bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, Sirdaryoning o'rta va quyi xavzasidan kelgan turkiy pecheneg qabilasining Xazar o'lkasiga keng ko'lamda yoyilishi, kobor, mojar kabi elatlarning xazae o'lkasini tashlab g'arbga siljishi natijasida davlatning harbiy kuchi susaydi. Slavyan qabilalari vaziyatdan foydalandilar. 910, 913, 940 yillarda ularning Xazar xoqonligi ichkarisiga suqilib kirib, talon taroj qilishi, nihoyat Kiyev rusi davlatining hukmdori Svyatoslav 965 yilda xazar poytaxtini qo'lga kiritib boshqa shaharlarini vayron qildi. Xazarlar tarqalib ketdi va bir qismi Tmutorokon shahrida joylashdilar.

Xazar xoqonligining Buyuk Ipak Yo'lining shimoliy yo'nalishidagi shimoli-g'arbiy qismlarini o'z qo'l ostiga olishi, shuningdek, bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan Kaspiy dengizida hokim bo'lishi Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ylariga Markaziy Osiyo davlatlarining qiziqishini kuchaytirib

yubordi. Markaziy Osiyolik turkiy bqabilalar bilan birgalikda, musulmon aholining, shu jumladan xorazmliklarning xazar o'lkasiga ko'chib borganligi va xoqonlik hayotida katta o'rin egallaganligi arab-fors manbalarida, geograf asarlarida ko'po bora tilga olinishi bunga guvohlik beradi.

Xazar xoqonligi ning Markaziy Osiyo davlatlari bilan faqatgina siyosiy bo'lib qolmasdan, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan uzluksiz davom etgan. Iqtisodiy aloqalar uchun muhim vosita bo'lgan Buyuk ipak Yo'lining shimoliy tarmog'I sharqda –Uzoq sharq-Xitoy-Janubiy Sibir-Oltoy-yettisuyv-Quyui Sirdaryo-orolbo'yi-Xorazm-Volga-Shimoliy Kavkaz- Qora dengiz bo'ylari-bolqon-Sharqiy Yevropa trassasining asosiy qismi Markaziy osiyo hududlaridan o'tganligi ham ushbu aloqalarning jonlanishiga asosiy omil bo'lib xizmat qilgan.

Xazar xoqonligining asos tayanch amrkazi bo'lgan Shimoliy Kavkaz, Qora dengiz bo'ylarji xalqlari bilan Markaziy Osiyo xalqlari orasida etno-madaniy aloqalar uzluksiz davom etganliginig tasdiqlaydig asosiy faktorlardan biri bu-mazkur hududlarda ilk o'rta asrlarga taalluqli ko'plab turkiy-run yozuvlarining topilishidir. O'tgan bir asrga yaqin vaqt mojbaynida Qora dengiz bo'ylarida Don, Kubon daryolari havzalarida, Shimoliy Kavkazdagi shahar xarobalaridan turkiy-run bitiklari bitilgan sopol va turli ro'zg'or buyumlari va ularning Markaziy Osiyo qadimgi turk yozuvlari Yenisey, Orxun bitiklari bilan umumiy birlikka ega ekanligi etno-madaniy aloqalarga yaqqoldalil bo'lib xizmat qiladi, Qora dengiz bo'yi, Shimoliy Kavkaz hududida tashkil topgan turkiy davlatlarning aksariyatida ushbu yozuv rasmiy yozuv sifatida ishlatilganligi bu hududlardagi turkiy davlatchilikning yuqori an'analariga ega ekanligini ko'rsatadi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Markaziy Osiyoda Xorazmshohlar davlatining tutgan o'rni?
2. X-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati?

#### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. X-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda ko'chmanchilar davlatlarining paydo bo'lishi va ularda boshqaruv tizimi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: sharq. 1998
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: 2008
3. Artamanov. M. I. IstoriyaXazar. L.: GosudarstvennogoErmitaja, 1962
4. Gumilev L. N. Sosedi Xazar// strani i narodox Vostok.Vip.IV.  
Moskva.Nauka. 1965
5. Gumilev L. N. Biografiya tyurkskogo xana «Istorii» Feosrilekta simokoti i v deystvitelnosti// Vizantiyskiiy vremennik, I. XXVI, M.: Nauka. 1965
6. Gumilev L. N.Qadimgi turklar. M.: Nauka. 1967
7. Gumilev L.N. Gde ona, strana Xazariya? (v kn. Ritmi Yevrazii, M., 1993)
8. Kurot a. N. IV-XVIII yuzillarda Karadenez kuzeyindeki Turk kavimlari ve devletleri. Ankara 1972
9. Kafeso'g'lu i. Turk Milli kulturu. Istanbul.: 1993
10. Bichurin N. Ya. Sobranie svedenie o narodox obitavshix v sredniy azii v drevni vremena. Tom II, M-L.:Izd-vo AN SSSR. 1950
11. Vikipediya - Svobodnaya Ensiklopediya. Xazarskiy kaganat. (internet).

## **6-mavzu. Markaziy Osiyoda Mo'g'ul istilosi va nomadizm**

**Darsning o'quv maqsadi:** Markaziy Osiyoda Mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi, Mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqdagi siyosiy va iqtisodiy hayot to'g'risida talabalarda tasavvur uyg'otish.

**Tayanch iboralar:** Mo'g'ullar istilosi, turkiy qavmlar, Chingizxon, Jo'ji ulusi, Oltin O'rda, Oq O'rda, Ko'k O'rda.

### **Reja:**

1. Mo'g'ullar istilosi arafasida Markaziy Osiyo.
2. Markaziy Osiyoga mo'g'ullarning kirib kelishi.
3. Dashti Qipchoqda mo'g'ullar Oltin O'rda davlatini tshkil etishi.

**1.** XIII asr boshlarida Osiyoning ichkarisida bir harakat boshlanib, insoniyatning ko'pchilik qismi taqdirida juda katta rol o'ynadi. Tarixiy adabiyotda bu harakat mo'g'ullar yoki tatarlar bosqinchiligi nomi bilan mashhurdir.

Bu harakat harakat Yevropaning janubiy sharqiy qismini ham o'z ichiga olgan bo'lib bu yerda tatarlar XIII asrning 30 – yillaridayoq Butun dashti qipchoqning tanho egasi bo'lib oldi.

Dashti Qipchoqda ular juda katta va kuchli bir davlatga asos soldilar, bu davlat sharq adabiyotida Jo'ji Ulusi yoki Ko'k Urug', rus adabiyotida esa Oltin O'rda deb atalgandir.

Tatar mo'g'ullar rus tarixida vujudga kelayotgan va rivojlanayotgan rus feodal jamiyatida bir yarim asrdan ortiqroq vaqt juda katta rol o'ynadi.

XIX asrda mo'g'ullar tarixiga bag'ishlangan juda ko'p kitob va maqolalar chiqqan: brok, orientamitlarning (sharqshunoslarning) shu mavzudagi asarlarning juda yaxshi tomonlari bor bo'lishiga qaramasdan, Mo'g'ulistonning o'zidagi, shuningdek yangidan vujudga kelgan mo'g'ul davlatlaridagi, O'rta Osiyodagi (Haloku dav) va Yevropaning janubiy sharqidagi (Oltin o'rda), mo'g'ul jamiyatining o'zi (ya'ni uning ichki strukturasi – so'nggi vaqtlargacha kam o'rganilganicha qolib keldi)<sup>21</sup>.

Marhum akademik B.Y. Vladimirsovning 1943 yilda bosilib chiqqan bu kitobi katta kamchiliklarni to'ldiradi, mo'g'ullarning ichki tarixiga doir masalalarga qiziquvchi barcha kishilar bu kitobda mohirlik bilan bayon qilingan juda ko'p asl materillar topadilar. Bu kitob mo'g'ullarning ijtimoiy tizimi deb atalib, Mo'g'ullarning ko'chmanchi feodalizmi degan kichik sarlovhasi bor. Garchi marhum olim fikrlarining hammasiga qo'shilib bo'lmasada, (masalan avtorning ba'zi fikrlarini marksistik fikr deb bo'lmaydi).

B.Y. Vladimirsovning eng muhim joy shundaki, nihoyat unda aristokratik yuqori tabaqa Chingizxon boshchiligi ostida o'sha vaqtdagi madaniyat kishilik dunyosining yarmidan ko'p qismini istilo qilib, o'z hokimiyatiga bo'ysundira olgan mo'g'ul jamiyati qanday jamiyat edi, degan savolga qat'iy ilmiy javob berilgan.

Sirdaryoning quyi oqimi va Balkash ko'lidan to Denepr daryosining quyi oqimlarigacha bo'lgan hudud XI asrdan boshlab Dashti Qipchoq deb atalgan.

Bu atamani dastlab Nosiri Xusrav (1003-1088) qo'llagan.

Shundan boshlab, dashti qipchoq atamasi arab va fors tillardagi asarlarda uchraydi.

V.V. Bartoldning so'zlariga qaraganda, Dashti Qipchoq aholisi rus solnomalarida poloveslar, (Vizantiya xromikalarida kumanlar) 1030 yil Xorazmga qo'shni bo'lgan.

---

<sup>21</sup> Grekov B., Yakubovskiy A. Oltin O'rda va uning qulashi. 1956. 18-19 b.

Dashti Qipchoqning bir qismini XIII asrning 20 yillarida Jaba Nuyon va Subutay bahodir boshchiligida kelgan mo'g'ul qo'shinlari bosib oldi.

1236 yil Dashti Qipchoqni Chingizxonning nabirasi Botuxon egalladi va o'sha ulkan mamlakatda tarixda Jo'ji ulusi nomi bilan mashhur bo'lgan Oltin O'rda davlati tashkil topdi.

XIV asrning boshlarida Jo'ji ulusi ikki qismga bo'linib ketdi.

Uning sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topdi.

XIV asrning boshlaridan Dashti qipchoqning sharqiy qismi "O'zbeklar mamalakati" aholisi esa o'zbeklar deb atala boshlagan.

XV asrning 20 yillaridan boshlab Sharqiy Dashti qipchoqni asta sekin Abulxayrxon egalladi va u bu hududda ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga asos soldi.

Abulxayrxon vafotidan keyin Sharqiy Dashti qipchoqda uning avlodi hukmronlik qildi. Dashti qipchoqning asosiy aholisi ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi bo'lib, chorvachilik va ovchilik, daryo va ko'l yoqalarida istiqomat qiluvchi aholi dehqonchilik, shaharlari (Saroy Botu; Saroy Berka O'rdu Bozor, Sig'noq Arquq) dagi aholi esa hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug'ullangan.

"Musaxxir al bilod" asarida keltirilishicha Xoja Mahmudxon shahidligidan keyin Dashti Qipchoq podshohligi Turkiston-u Sig'noq chegarasidan tortib butunligicha uning qo'liga o'tdi.

Va ul hazratning o'n bir nafar adolat yoyguvchi farzandi bor edi. Birinchisi Shoh Budog' Sulton; ikkinchisi Xoja muhammad Sulton; uchinchisi Ahmad Sulton; to'rtinchisi Muhammad Sulton; beshinchisi Shayx Xaydarxon; oltinchisi Sal'jar Sulton; yettinchisi Ibrohim Sulton; sakkizinchisi Kuchkmichixon; to'qqizinchisi Syovishxojaxon; o'ninchi Oq Burun; o'n birinchi Sayid Bobo Sulton.

Shulardan, farzandlarining eng kattasi bo'lmish Shoh Budog' Sulton otasi hayot payti olamdan o'tdi.

Shoh Budog'dan ikki farzand qoldi. Birinchisi Muhammadxon Shayboniy; ikkinchisi Mahmud Sulton.

Shunday qilib, Abulxayrxon qirq yil Dashti Qipchoqda hukmronlik qildi.

XV asrning o'rtalarida ular Abulxayrxon davlatining sharqiy hududlariga (chegaralariga) yetib keldilar<sup>22</sup>.

2. XV asrning boshlaridayoq (1206) qalmoqlar avval mo'g'uliston xonlariga tegishli bo'lgan Beshbaliqni bosib olishdi. Qalmoqlarning tez-tez bo'lib turadigan bosqinlari sababli va Mo'g'ulistonni Muxofaza qilish uchun Uvaysxon 2 o'z qarorgohini sharqiy Turkistondan yettisuvdagi Ish Baliqqa ko'chirdi. Bu yerda u qalmoqlarning avvalgi yo'l boshchisi To'xonning o'g'li Eson toyish boshliq qalmoqlar bilan ko'p marotaba jang qildi.

Muhammad Xaydar bu janglar haqida tadqiqotchilarning e'tiborlariga loyiq bo'lgan hikoyalarni keltiradi.

Chingizxon tirikligida g'arbiy hududlarning katta qismi hali zabt etilmagan edi. Chingizxon o'limidan xiyol oldin Jo'jiga Dashti – Qipchoqni fatx etmoqni buyuradi. Qipchoqlar kelib chiqishi jihatidan turkiy xalqlarga mansub bo'lib, quyi Volga va Dnepr oralig'idagi dashtlarda ko'chib yurishgan, lekin bora-bora, Oltin O'rda saltanatidagi ko'chmanchilarning bari “qipchoqlar” deya atala boshlandi.

Lekin Jo'ji otasi Chingizxondan bir oz oldinroq vafot etadi. Toj-taxt merosxo'ri shahzoda Botu ( 1227 – 1256 yillar ) otasi ishini davom ettiradi. 1235 – yilda qoraqurumda o'tkazilgan qurultoydan so'ng Botu o'zining birqancha lashkarlari bilan Dashti qipchoqni bosib o'tib, Volga sohillarida yashaydigan bulg'orlar yurtini, rus knyazliklari mulkini Qrim va Kavkazni zabt etdi. 1240 – yilga kelib Kiyev (qiyuv) bosib olindi va Botu uchun Polsha, Mojariston (Vengriya) va o'zga g'arb davlatlariga boradigan yo'l ochdi. 1241 – yilning bahorida u Karpat tog'idan o'tib, mojarlar qiroli Bela IV ni tor-mor qildi. Shu yilning yoz va kuz mavsumida ham mo'g'ul otlari Mojariston vodiylaridagi

---

<sup>22</sup> Muhammaddiyor ibn Qatag'on. Musaxxir al-bilod. Tosh. 2010. 57-58b.

yaylovlarda o'tlab yurishdi. O'sha yili Buyuk xon O'qtoy vafot etdi. Botu uning qora dengizga qadar bo'lgan butun salatanatni o'z qo'l ostida saqlab qoldi.

3. Jo'ji ulusi rus adabiyotlarida Oltin O'rda nomi bilan atala boshlandi. Ehtimol, Botuning o'tovi oltin rangida bo'lgani uchun ham shunday nom berilgandir.

Eron manbalarida "Oltin O'rda" termini juda kam uchraydi Mashhur tarixchi olimshunos P.Sovelyov, Rashid ad-din bilan Vassofning asaridan "O'rda-i-zarrin" degan termini keltiradi, lekin uni qaysi tekstdan olinganligi to'g'risida ma'lumot yo'q. Eron tarixchilar asaridan P. Savelyov "Oltin O'rda" deb ataluvchi "Sir O'rda" degan jumlanini, yana ikkinchi asarlarida esa "Sir O'rda" – deb ataluvchi "Oltin O'rda" degan jummalarni keltiradi, mazkur mualliflarni asarlaridan foydalanib Rashid ad-dinning asarida "Oltin O'rda" termini boshqacha ishlatilgan joy bor. Ushbu joyda bu termin "Oltin O'rda" davlati tashkil topmasdan oldingi davrga Chingizxonning hayotlik davriga oid ekanligini aytish mumkin. Sababi Rashid ad-din Chingizxonning tojiklar elidan o'z yurtiga qaytib kelishini hikoya qilib, Chingizxonning "Bunas Jilku" degan joyga yetib kelganidan so'ng O'rdun Buzurg zarrin, ya'ni Buyuk Oltin O'rda qurishni buyurgan deb ko'rsatadi. Demak, "Oltin O'rda" termini manbalarda dastlabki yilga olinishi bo'lsa kerak.

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki "Oltin O'rda" dastlab Chingizxon davrida barpo etilgan bo'lib, aynan mana shu yerda Jo'ji Ulusi tashkil topgan, ya'ni mana shu joy Jo'ji Ulusining nomlaridan biri deb tushiniladigan bo'ldi.

Demak, mana shu joylar Jo'jining merosxo'ri Botu tomonidan barpo etildi. B. Grepov va Yakubovskiylarning yozishicha: Chingizxonda "Buyuk Oltin O'rda" degan termin Tszin podsholigi (Shimoliy Xitoy) ta'sir ostida tug'ilgan bo'lsa ajab emas; bu podshohlikning imperatorini Rashid ad-din "Oltin Xon" deb ataydi. Musulmon manbalarida (arab, eron, turk manbalarda) "Jo'ji Ulusi", "Ko'k O'rda" va "Oq O'rda" degan uchta termin bor.

Oq O'rda va Ko'k O'rdaning asl ma'nosi – oq va ko'k ranglardagi yurtlardir. Ushbu o'rdalarga Chingizxonning o'zi asos solgan bo'lib va bu voqea siyosiy-xuquqiy an'analarni yaratdi. Ular Jo'jining o'limidan so'ng va Chingizxonning

o'limigacha, ya'ni 1227 – yilda yaratilgan. O'rdalarning rangi Jo'ji o'g'illarining mavqeini hamda Jo'ji ulusida yerlarini belgilab beradi:

Orda – Edjen sharqda joylashgan edi, shuning uchun “Ko'k O'rda” termini ulusning sharqiy qismiga tegishli edi, “Oq da” esa – g'arbiy qismiga tegishli edi. Chingizxondan Jo'jiga o'tgan yerlar Yoyoiqdan Irtishgacha cho'zilgan territoriya o'zaro bo'linib olingan edi. Jo'ji Ulusi territoriyasi esa g'arbiy yurishdan so'ng paydo bo'lgan va Dunaygacha yetib borgan.

Bundan kelib chiqishicha, avvalo Botuning yeri; ya'ni Oq O'rda, sharqda, Orda – Edjeniki, Ko'k O'rda esa – Irtishqirg'oqlariga (Sirdaryo, Olako'l) to'g'ri kelgan. “Oq O'rda” va “Ko'k O'rda” terminlari o'sha paytlarda davlatning rasmiy yoki geografik nomi sifatida qo'llanmagan. Ular faqat Orda – Edjen va Botuning yerlarini chegaralash uchun ishlatilgan.

G'arbiy yurishdan so'ng Jo'ji ulusi nihoyatda kengayadi, Orda – Edjen va Botu yerlarining chegaralari ham g'arbga tomon ko'chadi. Natijada “Oq O'rda” va “Ko'k O'rda” larning yangi territorial chegarlari belgilandi, ularning turli xil geografik ko'rinishlari va hajmlari, chegaralari haqida ikki xil qarashlar mavjud:

- birinchisi, vaqt bo'yicha harbiy yurishgacha;
- ikkinchisi, yurishdan so'ng.

“Oq O'rda” va “Ko'k O'rda” lar rasmiy ravishda nomlanmaganligi tufayli, ushbu nomlar asosan og'zaki an'analarda va ayrim yozma manbalardagina uchraydi.

“Oq O'rda” va “Ko'k O'rda” chegaralarining ustma-ust joylashishi natijasida manbalarda qarama-qarshiliklar vujudga keldi.

Ayrim manbalarda Oq va Ko'k O'rdalar bilan bog'liq bo'lgan muammoni mualliflar chigallashtirib yurishadi. Birinchi o'rinda bu narsa Muin ad-din Natanziyning O'rdalarning joylarini almashtiradi, hamda Sharqiy Dashti Qipchoqda hukmronlik qilgan dinastiya bilan bog'liq savolni umuman chalkashtirib yuboradi<sup>23</sup>.

---

<sup>23</sup> Chingiznoma. Olma-ota. 1992.

Bu yerda Shayboniylar kelib chiqishi, Shayboniyxon va uning avlodlarini haddan tashqari ko'klarga ko'targanligi ham muhim ahamiyatga ega.

Oq va Ko'k O'rdalarning qayerda joylashganligi haqida har xil tortishuvlar bo'laverganligi sababli Rossiya va G'arbda ilmiy o'rganish boshlandi. Ko'k O'rdani sharqda va Oq O'rda g'arbda joylashgan degan to'xtamga kelishdi.

Bu fikrni: "Chingiznoma" ham tasdiqlaydi va shuning bilan tortishuvlarga chek qo'yiladi.

Bundan tashqari, u yerda Oq O'rda davlati bo'lganligi, XIII asrlarning o'rtalaridan boshlab XV asrning birinchi choragigacha hukmronlik qilganligi yoziladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirda Oq va Ko'k O'rdalar haqidagi tortishuvlar asosan ularning qachon paydo bo'lganligi va qachon yo'q bo'lganligi, hamda ularning joylashuvi va nomlanishi haqidagi bahslardan tashkil topadi.

"Chingiznoma" ga ko'ra, Oq O'rda va Ko'k O'rdalar yoshi bo'yicha Jo'ji Ulusiga teng, bundan kelib chiqadiki, ularning genezisi XIII asrning o'rtasi emas, balki ertaroq boshlanishi kerak. Oq O'rda va Oltin O'rda bilan bir paytda yo'q bo'ladi, Ko'k O'rda esa Orda-Edjen XV asrgacha yo'q bo'ladi. Orda-Edjenning avlodlari undan so'ng hukmronlik qiladilar, Dashti-Qipchoqdagi boshqa Jo'ji dinastiya xonlarning hukmronligi davrida ham ikkinchi darajali rollarda faoliyat ko'rsatadilar. Lekin ular Dashti-Qipchoq va qo'shni xalqlar esida ancha vaqtgacha muhrlanib qoladi va bir necha asrlar davomida siyosiy-huquqiy manbai sifatida xizmat ko'rsatadi.

"Chingiznoma" da yozilishicha, Oq va Ko'k O'rdalardan tashqari, Shaybon hukmronlik qilgan Boz O'rda haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. U Botu ulusining chekka g'arbiy qismida joylashgan. Ammo shunisi qiziqarliki, Boz O'rda haqida boshqa manbalarda ma'lumot berilmagan.

Ammo shuni tahmin qilish mumkinki, ayrim manbalarda Yuz – O'rda haqdagi ma'lumot aslida Boz – O'rda arab tilida shunday yoziladi .....  
Boz O'rda , Yuz – O'rda esa - ..... bular bir-biridan faqat bitta nuqta bilan farq qiladilar.

Bizning fikrimizcha, “Chingiznoma” dagi Boz O’rda haqidagi ma’lumotlar XVI asrda to’qima bo’lishi mumkin emas, chunki “Chingiznoma” da O’tmish – xoji doimo o’tmishlarga tayanadi, ularda o’zbeklar orasida keng tarqalgan hodisalar haqida yozadi.

O’zbeklar deganda u butun Dashti Qipchoqdan Dunaygacha va to Irtishgacha bo’lgan yerlardagi turkiy qabilalarni nazarda tutadi.

N.N. Mungulov tahminicha, “Ko’k O’rda” boshidan Shayboniyxon Ulusiga tegishlidir, - deydi va uning chegaralarini Oq va Oltin O’rda atrofida bo’lgan.

“Oltin O’rda” sastaviga shimoli-sharqda Bulg’or va uning shimolida rus knyazliklaridan, janubda:

“Oltin O’rda” bir tomonidan Qrim va uning dengiz bo’yidagi shaharlari, ikkinchi tomondan Darbondgacha cho’zilib borgan, Kavkaz va ba’zan esa Bakugacha kirgan.

XV asrning birinchi yarimida yashagan arab tarixchisi Al-Umariy Oltin O’rdada bo’lgan savdogar Badridin Hasan ar-Ruming so’zlariga asoslanib bunday deb tasvirlaydi: “..... bu davlatning Jayhun (Amudaryo) tomonidagi chegaralari Xorazm Sag’anoq (Sirdaryo vodiysidagi tumanariq temir yo’li bekati rayonidagi bir shahar) Sayram (Chimkentdan 12 km masofadagi Sayram – Isfijob) Jand (bu shaharning vayronalari Sirdaryo bo’ylarida bor) Saroy, Mojar shahri (Kavkazda) Azoq (Azov) Saksin, Sudoq, Qafa, Ukak (Volga yaqinidagi Saratov yaqinida) Bulg’or, Sibir rayoni, Boshqird, Ibir va Cho’liman.....Boku shahri Shirvon o’lkasi shaharlaridan biridir va uning yaqinida “Temir darvoza” bor, buni turklar “Demir Qanu” deb aytadilar degan”.

Yuqoridagilarga qo’shimcha ravishda shuni aytish kerakki, o’sha vaqtlarda rus knyazliklari Oltin O’rda tarkibida bo’lgan dedik, biroq yana shunday ma’lumotlar borki, rus knyazliklari mustaqil bo’lishgan. Oltin O’rdaga tobe bo’lib, xiroj talashgani bilan ular o’z hokimiyatlariga ega bo’lishgan.

O’rta Osiyo uch yildan ozroq vaqt ichida, yani 1219-1221 yillarda istilo etilib bo’lgan. Bu voqealar V.V. Bartoldning “Mug’ullar istilosi davrida Turkiston” degan katta asarida mufassal tasvirlab berilgandir. Mug’ullar istilosi

O'rta Osiyo ustidan o'tgan bir davul bo'lib bu dovul moddiy boyliklar bilan bir qatorda yuz minglab kishilarning yostig'ini quritganligini quyida ko'rib o'tamiz. Istilodan keyingi dastlabki yillarda shahar va qishloqlar xarobazor kultepaga aylanib qolgan yangi hokimyat o'rnatilgandan so'ng oradan bir necha yil o'tgach bu shahar va qishloqlar qaytadan qat ko'tara boshlagan. Ba'zi tumanlarda, Marvda va Marv vohasida, Xorazmda, Zarafshon vodiysining ba'zi joylarida mug'ullar hukmronligi davrining deyarli oxirigacha ham madaniy hayot tiklanmagan.

Jaba va Subutoy boshligidagi mug'ul qo'shinlaridan birini 1220 yilda Chingizxon O'rta Osiyodan qochgan xorazmshoh Muhammadni quvlashga yuborgan. Bu qo'shin qattiq dahshat bilan deyarli butun shimoliy Eronni bosib o'tib keyin Kavkazga chiqqan, bir qancha yirik shaharlarni olgan, Gruziyaning harbiy kuchlarini tor-mor etgan va g'oyat katta o'lja orttirib, Shirvon darasi orqali shimoliy Kavkazga, alanlar bilan qipchoqlar yurtiga qarab yo'lga tushgan. Tatarlar qipchoqlarni har turli vadalar bilan aldab, ularni alanlar bilan harbiy ittifoq tuzmaslikga ko'ndirib avval alanlarni tor mor etgan, keyin esa ahdni buzib, qipchoqlarga hujum qilgan. Qipchoqlar yengilganlaridan so'ng el-yurtlarini tashlab, Volga bilan Dnepr o'rtasida ko'chib yurgan qipchoqlardan yordam olish umidida Yevropaning janubiy sharqidagi o'sha qipchoqlar tomoniga qarab yo'l olganlar. Tatarlar ularni Qrimgacha quvib borib Sudoq shahrini bosib olgan.

O'sha vaqtda yashab, Sudoqni olinishi voqeasidan yaxshi xabardor bo'lgan Ibn al-Asr uning oqibatlari to'g'risida bunday deb yozadi: "Tatarlar Sudoqqa kelib, uni egalladi, uning aholisi esa har yoqqa tarqab ketdi; ularning ba'zilari oila va mol-mulkini olib tog'larga chiqib ketdi, ba'zilari esa dengizga tushib, qilich arslon urug'iga mansub bo'lgan musulmonlar qo'lidagi Rum mamlakatiga qarab ketdi". Biroq Sudoqning olinishi tatarlarga talab olingan mol-mulkdan boshqa hech narsa bermagan; ular yana (qipchoqlar) va ruslarning birlashgan harbiy kuchlari bilan jang qilishi kerak edi, qipchoqlar bilan ruslar esa hatto umumiy dushman xavf solib turgan paytda ham o'zaro adovatni davom ettiraverganlar<sup>24</sup>.

---

<sup>24</sup> Grekov B., Yakubovskiy A. Oltin O'rda va uning qulashi. 1956. 25-26 b.

Sergey Solovevning “Rossiyaning eng qadim zamonlardan buyongi tarixi” degan asarida (bu asar tashqi siyosiy voqealar to’g’risida aniq ma’lumotlarga juda ham boy bo’lganligi bilan haqqoniy shuhrat qozongan) tatarlarning dastlabki istilosi va Kalka daryosi bo’yidagi jang masalasida katta xatoga yo’l qo’ygan. S. Solovev bunday deydi: “Chingizxonning Jaba va Subut degan ikki lashkarboshisi 1224 yilda Kaspiy dengizi va Ural tog’lari o’rtasidagi odatdagi ko’chmanchilar darvozasidan o’tib Yaslar bilan Obizlarni asir qilgan va qipchoqlar yurtiga kirgan. Qipchoqlar o’zining eng kuchli holi Yuriy Konchakovich bilan birga tatarlarning qarshisiga chiqdi, lekin mag’lubiyatga uchraganliklaridan keyin, rus chegaralariga, Dneprga qarab qochishga majbur bo’ldilar”. Yuqorida ko’rib o’tganimizdek, tatarlar S. Solovev ko’rsatgan yo’ldan, yani “Kaspiy dengizi bilan Ural tog’lari o’rtasidagi” yo’ldan aslo o’tmagan, balki qarama qarshi tomondan chiqib shimoliy Erondan butun Kavkazni bosib o’tgan. Yurishni sanasi ham yanglish (bir yilga farq qiladi)tatarlar dashti qipchoqga 1224 yilda emas balki 1223 yilda kelgan. Barcha sharq manbalari dastavval Ibn al-Asr hijriy 620 yili deb gapiradi, bu esa bizning yil hisobimizcha 1223 yil 4 fevral bilan 1224 yil 23 yanvar o’rtasidagi vaqtga to’g’ri keladi. Bu masalada Ibn al-Asrning yaxshi xabardor bo’lganligiga shubha yo’q, Ibn al-Asrning bergan ma’lumotlari unga aloqador bo’lmagan boshqa sharq manbalarining ma’lumotlariga butunlay to’g’ri keladi. Hamma yaxshi biladiki, Jaba va Sobutoy yurishi natijasida o’sha yilning o’zida Kalka yonida bo’lgan mashhur jangda ruslar bilan qipchoqlar butunlay tor-mor qilingan. Biroq Kalka jangi natijasida tatarlar Yevropaning janubiy-sharqidagi yerlarga hukmron bo’lalmaydi. Chunki ularning bundan keyin o’rta Volga bo’yiga tomonga, Kamaning quyilish joyiga Bulg’orga qilgan yurishi garchi to’la mag’lubiyatga uchramagan bo’lsa-da lekin juda katta muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Bulg’or shahari yonida Bulg’orlar tomonidan tor-mor etilib, ular Volga daryosi bilan pastga Saksinga va Kaspiy dengizining shimoliy qirg’oqlari bo’yidagi dashtlarga qarab ketgan. Tatarlar Dashti qipchoqning hammasini qo’lga ololmaydi, lekin ular qipchoqlarning ko’chmanchilik yerlarigagina emas balki janubiy-sharqiy

Yevropaning yaxshi yo'lga qo'yilgan savdosiga ham vaqtincha katta nuqson yetkazgan.

Ibn al-Asr, Jaba va Sobutoy yurishining oqibatlarini to'grisida quyidagilarni yozadi: "tatarlar bostirib kirgan vaqtdan boshlab u Dashti Qipchoq bilan aloqa qilinadigan yo'l kesilib qolgan, shuning uchun bo'rtas mo'ynalari, olmaxon terisi, qunduz terisi va ularning mamlakatidan keltiriladigan boshqa narsalar masalasida ulardan hech nima unmagani; ular tatarlarni tashlab, o'z yeriga qaytib ketgandan keyin yo'l tiklangan va mollar yana olib kelinadigan bo'lgan."

### **Nazorat savollari:**

1. Dashti Qipchoqda mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi.
2. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqdagi siyosiy va iqtisodiy hayot.
3. Mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyo va Dashti Qipchoq.

### **Mustaqil ish mavzulari:**

Mo'g'ullar hujumi va uning nomad madaniyatiga ta'siri.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Grekov B., Yakubovskiy A. Oltin O'rda va uning qulashi. 1956.
2. B.A. Ahmedov. Tarixdan saboqlar. Toshkent. 1994.
3. Muhammaddiyor ibn Qatag'on. Musahhir al-Bilod. Toshkent. 2010.
4. Chingiznoma. Olma-ota. 1992.
5. Ziyonet.uz

## **7-mavzu. Markaziy Osiyoda Temuriylar davri va nomad madaniyati**

**Darsning o'quv maqsadi:** XIV-XV asrlarda Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol, Dashti Qipchoq ijtimoiy-madaniy ahvol, Dashti Qipchoqdagi davlatlar bilan Temuriylar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida talbalarga ma'lumot berish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Oltin O'rda, Oq O'rda, Saroy Berka, Saroy Botu, Jo'ji ulusi, Nikon yilnomasi.

### **Reja:**

1. XIV-XV asrlarda Dashti Qipchoqdagi siyosiy ahvol.
2. Dashti Qipchoq ijtimoiy-madaniy ahvol.
3. Dashti Qipchoqdagi davlatlar bilan Temuriylar o'rtasidagi aloqalar.

### **Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni**

1. XIV asrgacha Oltin O'rda chegaralariga faqat janubiy-sharqiy Yevropaning Dnepr daryosidan sharq tomonga (Qrim va Bulg'orni xam qo'shib) qarab ketgan yerlarigina emas, balki O'rta va Quyi Povolje, Janubiy Ural, Darbandgacha bo'lgan Shimoliy Kavkaz, shimoliy Xorazm, quyi Sirdaryo havzasidagi yerlar, Sirdaryo va Orol dengizining shimolidan to Ishim va Sarisuv daryolarigacha cho'zilib ketgan dashtlik ham kirgan edi.

Shunday qilib, XIV asr boshlarigacha Oltin O'rda territoriyasi musulmonlarning manbalarida «Jo'ji Ulusi» atamasi bilan atalib kelingan yerlarga tug'ri kelardi. Biroq XIV asr boshlaridan etiboran «Jo'ji Ulusi» ikkita davlatga — Ko'k O'rda va Oq O'rda davlatlariga bo'linib, bulardan Oq O'rda Ko'k O'rdaga tobe bo'lib qoldi. Oq O'rda hududiga janubiy Sirdaryo havzasidagi yerlar, shuningdek, Orol dengizidan to Ishim xamda Sarisuv daryolarigacha bulgan shimoli-sharq tomondagi dashtlik va shaharlar ham kirgan edi. Ok. O'rda ajralib chiqqandan keyin Oltin O'rda degan atama, asosan, Ko'k O'rda yerlariga nisbatan ishla-tiladi.

—

Demak, XIV asrdagi voqialarga doir manbada Jo'ji Ulusi haqida gapirilganda, ikki o'rda — Ko'k O'rda bilan Oq O'rda ko'zda tutiladi. Rus manbalarini musulmonlarning manbalari bilan taqqoslaganda, shuni esda tutish kerakki, yilnomalarda va boshqa rus yodgorliklarida uchraydigan «Sinaya O'rda» atamasi, garchi tarjimada «Ko'k O'rda» («Sinyaya Orda») ma'nosini bersa ham, «Ko'k O'rda» nomiga emas, balki «Oq O'rda» atamaiga tug'ri keladi. Jo'ji Ulusi tashkil topgandan keyingi dastlabki yillarda va u yuqorida ko'rsatib o'tilgan ikkita O'rdaga bo'linib ketgandan keyin ham, XV—XVII asrlardagi Eron tarixchilarining yozishlaricha, Ko'k O'rda Jo'ji ulusi qo'shinlarining ung qanoti (baraung'or, o'ng qo'l)ni tashkil qilardi, yani shu o'ng qanotdagi hamma tumanlar Ko'k O'rdada yashovchi ko'chmanchi aholi orasidan olinardi, Oq O'rda so'l qanoti (jaung'or, so'l qo'l) ni tashkil qilardi, yani shu so'l qanotdagi hamma tumanlar Oq O'rda aholisidan olinardi.

Oltin O'rdaning xarbiy qudrati eng kuchaygan davr O'zbekxon zamoni (1312-1342) edi. O'zbekxon hokimiyati uning hamma yerlarida ham bir xilda nufuzga ega edi. XV asr arab tarixchisi Ibn Arabshohning yozishicha, Xorazmdan chiqqan karvonlar 3 oy mobaynida Krimgacha «xavf-xatarsiz» bemalol ot-aravalarda o'tib borganlar. Otlar uchun yem-xashak, karvon bilan birga borayotgan odamlar uchun oziq-ovqat olib yurishning hojati bo'lmagan. Bundan tashqari, karvonlar o'zlari bilan birga yo'l-boshlovchilarni olib yurmaganlar, chunki dashtlarda va dehqonchilik rayonlarida ko'chmanchilar va dehqonlar gavjum bo'lgan. Shuningdek, ulardan kerakli narsaning hammasini sotib olish mumkin bulgan.

Feodal davrning, tag'in musulmon Sharqining kishisi nuqtai nazaridan qaraganda, Ibn Arabshohning aytganlari O'zbekxon va undan oldin o'tgan To'xta davridagi Oltin O'rda xonlari hokimiyatining qudratini ko'rsatadigan eng yaxshi dalildir.

O'zbekxon o'lgandan keyin Jo'ji ulusidagi vaziyat asta-sekin o'zgara boshladi. Sulolalar o'rtasida chivdan va juda ishkal feodal to'polonlariga aylanib ketgan nizo'-janjallar natijasida o'rnatilgan qattiq tartib bo'zila boshladi.

Jonibekxon davridayoq (1342-1357) tushkunlikning dastlabki alomatlari ko'rina boshladi.

Sharq manbalari va rus yilnomachilari, O'zbekxonning yaxshi fazilatlarini bor edi, deb maqtaganlaridek, Jonibekxon ham shunday yaxshi fazilatlarini taqib, uni bir qadar ideallashtiradilar. «Iskandar anonimi» (Muiniddin) Jonibekxon Ozarbayjonga nisbatan o'zidan oldin o'tgan Oltin O'rda xonlarining ananalarini davom ettirdi O'zbekxon singari Jonibek ham Ozarbayjonni o'z yerlariga qo'shib olishga harakat qildi. Buni qilish qiyin emas edi, chunki Xulagulardan bo'lgan Abu Sayd 1335 yilda vafot etgandan keyin Xulagular davlati parchalanib ketgan edi. Ozarbayjonni turk-mug'ullardan bo'lgan Chuboniylar sulolasi bosib oldi. Sulolaga asos solgan amir Xasan degan kishining ukasi amir Ashraf yoki, boshqacha aytganda, Malik Ashraf (1344-1356), Ozarbayjonda mustaxkam, lekin shu bilan birga talonchi-mustabid hokimiyat o'rnatdi. Bundan Ozarbayjondagi xalq haddin Bardoy Malik Ashrafning siqqlaridan Saroy Berkaga ketib qolgan va o'zining vazrlaridan birida Jonibekxonni Tabrizga qo'shin tortib borishga davat qilgan.

Yuqorida nomi aytilgan Zayniddindan boshlab Eron tarixchilari Jonibekxonning yurishini batafsil gapiradilar. Jonibekxonning yurishi esa Ujan guruhida (daxlsiz yaylov degan joyda) Malik Ashrafning qo'shinini tor-mor keltirish bilan tamom bo'lgan. Bu jang 758 hijriy yilda (= 1357) bo'lgan edi. Ozarbayjon oz vaqtda, to'g'risi, juda qisqa bir muddatga Jo'ji Ulusiga qo'shib olingan. Buni shu ma'lumotdan bilish mumkinki, Jonibekxon Ozarbayjonning bosh shahri bo'lgan Tabrizda ham o'zining tangalarini zarb qila boshlagan. O'zbekxon zamonida (1312-1342) Oltin O'rdaning tangalari «Saroyda, Bulg'orda, Mokshada, Qrimda, Azovda va Xorazmda» zarb qilinardi. Jonibekxon zamonida bu pul zarbxonalariga yana Oltin O'rdaning o'zidagi Guliston va yangi Guliston degan joylar, shuningdek, mamlakatning avvalgi chegaralaridan tashqaridagi Tabriz ham qo'shildi. Biroq Jonibekxonning Tabrizda zarb qildirgan tangalari juda kam uchraydi va borlari ham faqat 757 hijriy yilgagina (= 1356) oiddir. Jo'jilar Tabrizda pul zarb qilishni keyinchalik davom ettirmagan bo'lsalar kerak, chunki 658 h. yilda (= 1357) taxtga o'tirgan Berdibekning nomi bilan Tabrizda zarb qilingan tangalarni biz

uchratmaymiz. O'rta asrlarda o'tgan sharq tarixchilarining bergan xabarlariga nisbatan bu tangalar bir jujjat sifatida ancha ishonchli manbalar hisoblanadi. Jonibekxonning 757 h. yilda Tabrizda pul zarb qildirish faktining o'zi shuni ko'rsatadiki, Jonibekning Ozarbayjonni istilo qilganligi tug'risida sharq tarixchilari keltirgan sanadan (758 x. y.) ko'ra biz yuqoridagi sanaga ko'prok. ishonishimiz kerak. Ma'lumki, Jonibek Ozarbayjonni buysundirgandan keyin yerda o'zok, turmagan, Oltin O'rdadagi ishlar uni o'z joyiga borishni taqozo qilganligi sababli u o'g'li Berdibekni Tabrizda Uljoy Xotun saroyida o'z o'rniga qo'yib, Saroy shahriga qaytib ketgan.

Oltin O'rda xonlari Ozarbayjonni o'z davlatlari tarkibiga qo'shib. olishi uchun deyarli butun bir asr mobaynida kup harakat qilganlar. Ozarbayjon, xususan, shimoliy Ozarbayjon o'zining ajoyib yozlik va qishlik yaylovlari (Qorabog' va Mug'on dashtlari) bilangina emas, balki boy shaharlari va qishloqlari bilan ham kishini o'ziga tortardi; bu shahar va qishloqlarda jun va ipak gazlama, shuningdek, gilam turli xil hunarmandchilik sanoati juda rivojlangan edi. Oltin O'rda xonlari Ozarbayjonni Xulagular qo'lidan olish uchun qo'llaridan kelgan hamma choralarni qurganlar. Buning uchun ular turli dalillarni ko'rsatganlar, shu jumladan, 1256 yilda Dalokuxonning yurishida ishtirok etganliklarini va buning evaziga kelishuvga muvofiq ularga Orronning, yani shimoliy Ozarbayjonning berilishi lozimligini eslatganlar, bir necha bor yurishlar qilganlar (tug'ri, bu yurishlar hargal muvaffaqiyatli bulavermas edi), lekin Jonibekka qadar Ozarbayjonni qo'lga kirita olmaganlar. Nihoyat, Oltin O'rdaning kuch-qudrati yuksalgan davr kelganday bo'ldi: uning hududi ancha kengaydi, ayniqsa, moddiy resurslari kupaydi. Biroq amalda bu ishonch va kutilgan narsalar ular o'ylagancha bo'lib chiqmadi. Oltin O'rda yuksalish davrida emas, balki tushkunlik va feodalliklarga bo'linib ketish arafasida turgan edi. Feodal jamiyatning va Jo'ji Ulusining bag'rida alla qachondan beri ko'zga kurinmaydigan bir protsess yuz bermokda — yani markazdan qochuchi, feodalliklarga bo'linib ketuvchi kuchlar o'sib bormoqda edi. Aslini aytganda, bu XIII asrning ikkinchi yarmidayoq boshlangan va yera to'xtamay davom qilib kelmokda edi. No'g'oyxonni esga olaylik. Tulabug'axon (1287-1290) va Tuxtaxon (1290-

1312) zamonlarida No'g'oyxon to yengilishi va o'limiga qadar (1300 y.) o'zi xon-o'zi bek, ya'ni amalda Oltin O'rdadagi hamma ishni tanho o'zi boshqaruvchi bo'lgan. Nog'oy o'lgandan keyingina To'xtaxon mamlakatda vaqtincha tartib urnatishga muvaffak, bo'lgan. O'zbek To'xtaning o'g'li bo'lmay, jiyani bo'lgan va shuning uchun uning taxtga o'tirishga haqi bulmagan. Etiborli amir Tutlug Temurning yordamiga tayanib, O'zbek, «Shayx Uvays tarixi» muallifiniig so'zicha, To'xtaning xonlikka mo'ljallagan o'g'li Elbosmishni o'ldirgan. O'zbek o'z mavqeini mustahkamlash va dushmanlardan qugulish uchun Tuxtuga yaqin turgan hamda o'ldirilgan shahzoda tarafdori bo'lgan bir qancha shahzoda va etiborli amirlarni yo'q qiliishga qaror bergan. Oltin O'rdada islom dinini joriy qilish yuzasidan saroy ichidagi gypyhlap olib borgan kurash ham bu yerda katta rol uynadi. Kutlug' Temur O'zbekni qo'llab-quvvatlab, undan islom dinini qabul qildirish uchun qat'iy burilish yasash va xali juda kuchli bo'lgan dushmanlarga nisbatan keskin choralar ko'rishni talab qildi. O'zbekxon feodal saroy zodagonlari orasida qattiq va qonli kurash olib borganidan keyingina hokimiyat tepasiga chikdi. Oltin O'rda eng qudratli bo'lgan davrlarda saroy ichida va yarim ko'chmanchi hamda o'troq zodagonlar orasida tez-tez ixtilof va janjallarning yuz berganligi to'g'risida yuqorida keltirilgan misollar Oltin O'rda davlati va jamiyati ichida o'tkir ziddiyatlar bo'lganligini ko'rsatadi. Oltin O'rda hokimiyati aslda faqat zuolikkagchna asoslanib, davlatni o'z qo'lida tutib turgan edi. Uning hududlari istilochi mug'ullarga qaraganda madaniy jihatdan beqiyos yuksak darajada turgan bo'ysundirilgan xalqlar bilan to'la edi. Xorazm, Qrim, Bulg'or, Shimoliy Kavkazning dexdonlari va shahar aholisi o'zlarining o'tmish madaniyatlariga, o'zlarining boy iqtisodiy va madaniy bazalariga ega edilar. Ular Oltin O'rda xonlari qo'l ostiga tushib qolganlaridan keyin rivojlanishda davom qilsalar ham, lekin o'z mahalliy sulolalaridan mahrum bo'lgan edilar, shaxsiy ixtiyorlari o'zlarida emas edi, o'z mol-mulklariga o'zlari egalik qilolmas va ayniqsa, o'z mexnatlarining samarasidan o'zlari bahramand bo'lolmasdilar. Dexqonlar ham, hunarmandlar ham, olimlar ham o'zlarining biror yoqda yuborilmasliklariga va oid soliq hamda majburiyatlardan tashqari yana mol-mulklarining tortib olinmasligiga aslo ishonaolmasdilar. Bular o'rtasida Oltin O'rda

hokimiyati jabr-zulmdan iborat bo'lganligi va unga nafrat bilan qaraganliklari to'g'risida gapirib o'tirishning harajati ham yuk, bular jumlasiga, asosan, dehqon zodagonlari va boy savdogar o'rtoqlar kirmas edi, chunki bularning ko'pchiligi o'z savdo manfaatlari tufayli xon saroyi bilan bog'langan edi, xonlar va shahzodalar ham o'z mollari bilan karvon savdosida qatnashardilar.

Jo'ji ulusidagi ko'chmanchilar, ehtimol, o'troq xalqlardan son jihatdan ko'p bo'lmasa ham, biroq siyosiy sohada muhim rol uynaganlar. Ko'chmanchi zodagonlarning vakillari ayrim ko'chmanchi qabilalarga boshchilik kilgan amirlar, beklar, noyonlar davlatning xo'jayinlari xisoblanardilar, bular Oltin O'rda qo'shinining ayrim qismlarida (markaz va qanotlarda) mingboshi, tumanbegi va hatto bundan ham yirik harbiy boshliq bo'lib xizmat kilardilar. Bularning bazilari xon saroyida yashab, xon qo'shinining ayrim qismlariga boshchilik kilar, unchalik murakkab bo'lmagan markaziy idoraning ayrim sohalariga rahbarlik qilardilar, boshqalari Bulg'orda, Qrimda, Xorazmda va boshqa o'lkalarda hokim bulib turardilar, uchinchilari dashtda yashab, qo'ng'iroq, mang'it va shular singari ayrim qabilalarga boshchilik qilardilar. Ularning hammasi bir xildagi odamlar edi yani ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi va yarim o'trok. qabilalarning feodallari edilar; ular juda qaysar va o'z bilganini qiladigan odamlar bo'lib, o'z joylarida mumkin qadar mustaqil bo'lishga va bazan hatto butunlay o'zlari xon-o'zlari bek bo'lib olishga intilardilar; lapashangroq xonlar davrida bosh ko'tarib chiqar, IG'VO va fisqu fasodlarni avj oldirar, fitna va to'polonlar uyushtirar, qulay payt kelib qolganda, saroy o'zgarishlari qilish va hokazolardan qaytmas edilar.

Bu odamlarning ana shunday umumiy xislatlari bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida muhim kelishmovchiliklar bor edi, bu kelishmovchilik, dastlab, shaharlar va dehqonchilik bilan shug'ullanuchi madaniy tumanlarga munosabat masalasida edi. Ularning bazilari ,shaharlarda va dexdonchilik tumanlarida yashaganliklari hamda o'zlarining shaxsiy mulklari bilan bu joylar bilan borlanganliklari uchun utroq hayot kechirishga va islom dinini qabul qilishga moyil edilar. Boshqalari esa, aksincha, ko'chmanchi chorvadorlik hayotini afzal ko'rib, aholisi o'trok. bo'lgan bo'ysundirilgan o'lkalardan soliq va o'lponlar olib turilsa, bas, derdilar. Bu

kelishmovchiliklar tabiiy ravishda saroy ichiga ham kirib, uning siyosiy hayotida bazan juda jiddiy alg'ov-dalg'ovlarga sabab bo'lardi.

Ibn Arabshox eslatib o'tgan tartib va osoyishtalik aslida tashqi tomondan kuringan va shu bilan birga vaqtincha bir osoyishtalik edi. Bu ziddiyatlar avj olib, Oltin O'rdada tus-to'polonlar boshlanib ketishi uchun kichik bir zarbaning, hatto kichik bir turtkning o'zi kifoya edi. Jonibekxon Ozarbayjonni va uning poytaxti Tabrizni bosib olgan 1356 yilni Oltin O'rdadagi mustahkam hokimiyat va osoyishtalikning so'nggi yili edi, deb hisoblanadi. XIII—XIV asrlarda bu uchala atama (arabcha, turkcha va mug'ulcha atamalar) bitta ma'noni, ya'ni ko'chmanchi yoki yarim ko'chmanchi harbiy zodagonlarning yuqori tabaqasiga mansub odamlarni bildirar edi.

Jonibekxon Ozarbayjonda hokimlikni o'g'li Berdibekka topshirib, o'zi poytaxtga qaytib ketayotganida yo'lda betob bo'lib qolib, uyiga yetmasdan vafot etgan. Sharqlarning va rus manbalarining ko'pchiligida, Jonibekxon o'z o'g'li Berdibekning tashabbusi bilan o'ldirilgan, deyiladi va fakat ba'zibiraridagina, Jonibekxon kasallik orqasidan vafot etgan, degan gaplar bor. Jonibekxonning vafoti tug'risida Muiniddin Natanziyning «Iskandar anonimi» degan asarida batafsil gapiriladi. Natanziyning aytishicha, Jonibekning kasali og'irlashib qolgandan keyin uning bosh amirlaridan biri bo'lgan Tug'liboy Berdibekka uning tezda yetib kelishini va xon vafot qilguday bulsa, podsholikni o'z qo'liga olishini iltimos qilib xat yozgan. Hokimiyatni o'z qo'liga olishga shoshilgan Berdibek otasidan ijozat olmay turib, shu ondayok. yo'lga chiqqan.

Berdibek Saroy Berkaga ketaverishda, Darbandning nariyog'idagi bir yerda joylashgan otasining qarorgohiga yetib kelganda, Jonibek to'zala boshlagan edi. Xonning ishongan kishilaridan biri unga o'g'lining kelganini xabar qilgan. Buni eshitgan xon achchiqlanib, To'g'liboy bilan maslahatlashmoqchi bo'lgan. Berdibekni chaqirib keltirgan shu odamning o'zi ekanligini xon aslo bilmagan. To'g'liboy javobgarlikdan qo'rqib, bu ishni men o'zim tekshirib kuray, degan bahona bilan xon ho'zuridan chiqib ketgan va oradan biroz vaqt o'tgach, bir necha kishi bilan xon oldiga kirib kelgan va uni qarorgohdagi gilam ustida o'ldirgan. Shu zahotiyoc

Berdibekni olib kirilgan va shu yerning o'zida qarorgohdagi amirlarga qasam ichirganlar. Berdibekka qasam ichishdan bosh tortgan odamlarning hammasi shu gilam ustida o'ldirilavergan.

Rus yilnomasida kizik, bir hikoya saklanib qolgan. Patriarx, ya'ni Nikon yilnomasi 6865 (1357) yilda: «o'sha yili O'rdada dushmanlik tuxtamay, tobora avj olib bordi»,— deb hikoya qiladi. So'ngra, davom qilib, bunday deyiladi: Jonibekning Tuvlubiy, ya'ni yuqorida aytilgan To'g'liboy (Tuglubiy) degan tumanbegi bo'lgan. U aqlli, makkor va e'tiborli bo'lgan. Oltin O'rdada eng katta odam bo'lib olish uchun u «Jonibekxonning o'g'li Berdibekni Ko'klarga ko'tarib maqtab, uning qulog'iga sekina: «sening taxtga o'tirish payting keldi, otang bo'lsa shohlikdan ketsa ham bo'ladi degan». Tug'lubiy Berdibekni o'z otasini o'ldirishga ko'ndirgan. Fitnachilar har xil va'dalar berib, «O'rdadagi ko'p amirlarni» o'z tomonlariga og'dirib olganlar. Tayyorlik ko'rib bo'lingandan keyin ular Jonibek ho'zuriga kirganlar va uni bug'ib o'ldirganlar. Shundan keyin «Berdibek shohlik taxtiga o'tirib, o'zining 12 ta aka-ukasini o'ldirgan.

Jonibekning o'ldirilishi Jo'ji Ulusining bundan keyingi hayotida juda katta oqibatlariga sabab bo'lgan. Berdibekning xon bo'lishi, uning taxtga o'tirishidagi vaziyatga qaraganda, saroyga yaqin turgan amirlarning hammasi tomonidan ham ma'qullanma-gan. Asosiy feodal kuchlar xuddi tufondek harakatga kelgan. Oltin O'rdada o'zaro urushlar boshlanib ketgan; shu bilan birga yaqinginada mustahkamdek bo'lib ko'ringan davlat ham tushkunlikka yuz tutgan. Oltin O'rdaning harbiy zodagonlari Berdibekdan nihoyatda norozi bo'lganlar va uni xon taxtining da'vogarlaridan biri bo'lgan Qulna o'ldirgan. Garchi numizmatika ma'lumotlari bo'qqacha bo'lsa ham, lekin yozma manbalarda, Berdibek faqat uch yil xonlik qildi, deyiladi. Berdibek 1357 yildan 1359yilgacha xonlik qilgan, deb hisoblanadi.

Tangalardagi va yozma manba'lardagi ma'lumotlarni bir-biriga to'g'ri keltirish qiyin: yozma manba'larga ko'ra, Berdibekni o'z ukasi va raqibi Qulna o'ldirgan, Qulna nomi bilan esa faqat 760 va 761 h. yillardagina zarb qiliigan tangalar bor. 762 h. yilga kelib Qulna pul zarb qildirmagan, chunki uni ham Navro'z

degan o'z ukasi o'ldirgan, deyiladi. Agar Qulna nomi bilan 762 x.. yilda zarb qilingan tangalar topilsa, bunday ziddiyatni bartaraf qilish mumkin bulardi. Qulnaning o'ldirilishi Oltin O'rdadagi o'zaro kurashni kuchaytirib yuboradi. 1360 yildan 1380 yilgacha o'tgan yigirma yil ichida, ya'ni Oltin O'rdada hokimiyat tepasiga To'xtamish kelgan yilga qadar, bu yerda 25 tadan ortiqroq odam xon bo'ldi. Ammo bu xonlar bir-birovi bilan kurashishdan boshqa narsani bilmadi. Bu xonlarning nomlari bizga musulmonlarning manba'laridan va rus yilnomalari asosan esa, tangalardan ma'lum, chunki bu xonlarning har biri, ba'zan esa xonlikni da'vo qiluchilarning har qaysisi, Jo'ji Ulusining hatto juda kichkina qismiga egalik qilsa ham, o'z nomida pul zarb qildirgan.

Qulnaning kim tomonidan xon qilib ko'tarilganligi noma'lum. Rus yilnomasida, u (Kulpa nomi bilan ma'lumdir) Berdibekni o'ldirdi va o'z tarafdorlarining yordamiga tayanib hokimiyatni o'z qo'liga oldi, deyiladi. 760-761 h. yillarda Gulistonda, Yangi Saroyda, ya'ni Saroy Berkada, Azokda va Xorazmda Qulna nomi bilan pul zarb qilinganligi faktining o'zidan ko'rinib turibdiki, Qulna, garchi oz vaqt bo'lsa ham, lekin Oltin O'rdaning juda katta kismini o'z qo'lida tutib turgan. Shu bilan birga 760 (= 1358-1359) va 761 (= 1359) yillarning o'zida, o'sha Azokda, Gulistonda va Yangi Saroyda Navro'z ham (rus yilnomasida Navrus transkripsiyasida beriladi) o'z nomi bilan pul zarb qildirgan, bu esa Qulnaning hokimiyati nihoyatda kuchsiz bo'lganligini va Navro'z Qulnaga qarashli o'lkalarni birin-ketin undan tortib olaboshlaganligini ko'rsatadi. Navro'z to'g'risida musulmonlarning manba'larida juda kam ma'lumot bor. Nizomiddin Shomiy Dashti Qipchok, xonlarini birin-ketin sanab o'tib, Navro'zni Keldibekdan keyin Cherkasdan oldin xonlik qilgan deb ko'rsatadi va uning haqida boshqa hech qanaqa ma'lumot bermaydi.

1361 yilda Navro'z o'ldirilgan. Uning qanday vaziyatda o'ldirilganligi, shuningdek, uni o'ldirgan odamning xonlik davri to'g'risida, bir tomondan, rus yilnomasida va, ikkinchi tomondan, «Iskandar anonimi»da (Muiniddin Natanziy) mufassal gapirilgan. Nikon yilnomasi muallifining aytishicha, «O'sha yili [6868 = 1360—1361] Sharkdan, yoyik. daryosining narigi tomonidan Xidir degan qandaydir

bir podsho Volgabuyi podsholigi ustiga qo'shin tortib kelgan va Volga buyi podsholigidagi O'rda amirlari munofiqlik qilib, Xidir, ya'ni YOYIQ podshosi bilan yashirincha uchrasha boshlaganlar, Volgabuyi podshosi Navro'zga esa makkorlik qilganlar».

Bu maxfiy mo'zokaralar natijasida Navro'zni Xidirga tutib berganlar. Xidir esa Navro'zni, uning xotini malika Toydulani va ular bilan birga Navro'zga sodik, bo'lgan Oltin O'rda «knyazlari» (amirlari — *Red.*) ni ham o'ldirgan. O'rdadagi bu tus-tupolonlar Rus uchun juda qulay bir payt bo'lgan. Bir-biri bilan o'chakishib yurgan xonlarning o'zlari rus va Litva knyazlarining yordamiga muhtoj bo'la boshladilar, natijada xonlikni da'vo qiluchi mug'ullar orasida goh Moskva bilan, gox, So'zdal knyazlari bilan, gox, Litva bilan aloqa qilish payiga tushgan turli guruxlar paydo bo'ldi.

Rus yilnomasida aytilishiga kura, Saroyning yangi xoni Xidir hokimiyat tepasiga kelgan vaqtdagi vaziyat ana shunday edi. Bu voqea 1360-1361 yillarda bo'lib o'tgan. «Iskandari anonimi»da biz Xizr (Xidir) Oq O'rdadan kelgan shahzoda (ug'lon), Oq O'rda xoni Sasi-Bug'aning o'g'li bo'lganligini bilamiz. Bu to's-to'polonlar yuz berayotgan yillarda Oq O'rdada Chimtoy degan odam xon bo'lib, yurtni 17 yil idora qilgan edi. 60-nchi yillarning boshlarida Ko'k O'rda (Oltin O'rda) amirlari Chimtoyga Saroy taxtini olishni taklif qilganlar, biroq Chimtoy bu taklifni kabul kilmagan va o'zining o'rniga ukasi O'rda Shayxni yuborgan. O'rda Shayxning Saroyga borishi fojiali bo'lgan, chunki u tez orada o'sha yerda o'ldirilgan. Shundan keyin siyosat maydoniga Xizr (Xidir) chiqqan. Xizrning taxtga o'tirish tafsiloti «Iskandar anonimi» da yo'q, shu sababli yilnomada bu to'g'rida aytilgan gaplar birdan-bir ma'lumot xisoblanadi. «Iskandar anonimi»da aytilishicha, Xizr mamlakatni fakat bir yil idora qilgan, lekin qaysi yilda idora qilganligi aytilmagan. Rus yilnomasida, Xidir (Xizr) 6868 yilda (= 1360-1361) taxtga o'tirgan, deb xago ko'rsatilgan.

Xizr O'rdada mustahkam tartib o'rnatishga harakat qilgan; u Rusning ishlariga zo'r berib aralashgan, u yerga uchta elchi yuborgan va Moskva ulug' knyazi Dimitriy Ivanoichni (keyinchalik bu knyaz Donskoy laqabini olgan) o'z

xuzuriga chaqirgan. O'sha vaqtda boshqa rus knyazlari ham, masalan, Vladimirdan ulug knyaz Andrey Konstantinovich So'zdalskiy, Nijniy Novgoroddan uning ukasi, shuningdek, knyaz Konstantin Rostovski va knyaz Mixaylo Yaroslavskiy O'rdaga kelib ketganlar. Birok. Xizr (Xidir) tus-tupolonlarni bartaraf qilib, davlatda zarur tartib o'rnatishga muvassar bo'la olmadi, chunki u kenja o'g'li bilan birga o'zining katta o'g'li Temur Xo'ja uyushtirgan fitna natijasida o'ldirildi. Temur Xo'ja bor-yo'g'i bir hafta xonlik qilgan, 762 h. yilda (= 1360-1361) Yangi Saroyda pul zarb qildirgan.

Bu vaqtga kelib Oltin O'rdadagi o'zaro kurashlar juda avj oldi. Chingiz xonadonidan chiqqan taxt da'vogarlaridan tashqari, yana xarbiy mug'ul aristokratiyasi orasidan ham taxtni da'vo qilib chiquchilar paydo bo'ldi. Shunday da'vogarlardan biri Oltin O'rdaning mashhur amiri Mamay edi. Ibn Xaldunning aytishicha, Mamay Berdibek davrida Oltin O'rdada katta rol o'ynagan, Berdibekning butun ishlarini boshqargan va uning qiziga uylangan. Mamay to'g'risida sharq tarixchilarida juda kam ma'lumot saqlangan, XIV asrning 60-nchi yillaridagi Oltin O'rda tarixi hakida rus yilnomasi va numizmatika ma'lumotlari asosiy manba hisoblanadi. Mamayning hokimiyat tepasiga qanday qilib kelgan-ligini Nikon yilnomasi juda mazmunli qilib tasvirlaydi. Temur Xo'ja xonlik taxtiga o'tirgan dastlabki kunlaridan boshlabok. Oltin O'rda amirlarining ko'pi unga dushmanlik ko'zi bilan qaraganlar.

«O'sha yili,— deb xikoya qiladi yilnomachi,— O'rda tumanbegi

Mamay o'z shoxiga yarshi dushmanlik ishlarini uyushtirgan xamda o'zi juda kuchli bulgan». Xonga qarshi bosh ko'tarib, Mamay O'zbekxon avlodidan bo'lgan Abdullani (Abdulloxni) xon deb e'lon qiladi va uning nomidan ish ko'rib, Temur Xo'jaga qarshi qat'iy xujum boshlaydi. Yilnomachining so'ziga qaraganda, bu vaqtda «O'rdada jang va tus-tupolon avj olgan».

Taxt talashib yurgan xonlardan biri bo'lgan Temur Xo'ja Mamaydan yashirinmoqchi bo'lib, Volganing narigi tomoniga qochadi va o'sha yerda o'ldiriladi. Mamay O'rdaning xujayini bo'lib oladi, ammo Chingiz avlodidan bo'lmagani uchun xon bo'laolmaydi va amalda xokimiyatni o'z qo'liga olish bilan

cheklanadi, odamlar ko'zi oldida esa Abdullani (Abdulloxni) nomigagina xokim qilib ko'taradi. Nikon yilnomasida yozilishicha, bu voqia 1362 yilda bo'lgan. Mamay davrida pullar dastlab Abdullox nomi bilan zarb qilingan. Bizgacha yetib kelgan, Abdulloh nomi bilan chiqqanligi shubxasiz bo'lgan birinchi tanga 764 x.. yilda zarb qilingan. Bu esa yilnomadagi ma'lumotlarning tug'ri ekanligini tasdiqlaydi. Abdullohning nomi yozilgan tangalarning ko'pchiligi O'rdada, ya'ni xonning harbiy qarorgohida zarb qilingan. Buning sababi shuki, Povoljedagi shaharlar, ayniksa, Saroy Berka faqat qisqa bir muddat ichida Abdullox, va uning xomiysi tumanbegi Mamay ko'lida bo'lgan. Abdulloxning tangalari O'rdadan tashqari yana Azokda, Yangi Saroyda va Xorazmdagi Yangishaxglda xam zarb qilingan.

Oltin O'rdada xokimiyatning birligini saklash uchun Mamay uzok, vaqt kurash olib borishga majbur bo'lgan. Bir vaqtlar Mamay bilan Abdulloxning Keldibek degan kuchli raqibi bo'lgan, Keldibek nomi yilnomada tilga olinadi. Uning nomi bilan chiqarilgan tangalar bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bular 762 (= 1360-1361) va 763 (= 1361 - 1362) x. yillarda zarb k.ilingan.

Bu sanalarning o'ziyoq Keldibekning Abdulloxdan deyarli bir yil ilgari, xarxolda, Mamay Oltin O'rda hududining katta bir qismida amalda hokimiyatni qo'lga olmasdan burun pul zarb qildira boshlaganligini ko'rsatadi. Demak, Keldibek bir vaqtlar Xizr va Temur Xuja bilan taxt masalasida kurash olib borgan: Xizr va Temur Xo'janing esa 762 yilda (= 1360-1361) zarb qilingan tangalari saqlanib qolgan. Yilnomalarning ma'lumotlariga va pullardagi yozuvlarga ko'ra, Keldibek 1362 yilda o'ldirilgan. Keldibekning o'ldirilish tafsiloti tug'risida Rogojek yilnomachisi bunday hikoya kiladi: «O'rdada dushmanlik avj oldi, Volganing bir tomonida Xidirning o'g'li Murut, ikkinchi tomonida esa Keldibek turib, har ikkalasi jang kildi va natijada Keldibek o'ldirildi».

Shunday kilib, xuddi shu yili Mamay bilan Abdulloxning yangi raqibi yuqorida aytib o'tilgan Murut yoki, Nikon yilnomasida aytilishicha, Oltin O'rda poytaxti Saroy shahrini bosib olgan podshoning ukasi Amurat Xidirev bo'lgan. Chuqurlashib borgan nizo'-janjallar atrofga ham keng yoyilib ketadi, bu hodisani yilnomachi o'sha 1362 yilda bo'lgan deb ko'rsatadi. Oltin O'rda davlatidan bir

qancha o'lkalar ajralib chiqa bashlaydi. «O'rda amiri Bulat Temur Bulg'orni oldi, hamda Volga bo'yidagi hamma shaharlarni va uluslarni bosib oldi va butun Volga yo'lini tortib oldi».

Bulat Temur (Pulat Temur)ning Volgadagi savdo va harbiy yo'llarni bosib olishi bilan birga, Bulorning ajralib ketishi albatta, Oltin O'rdaning birligiga katta zarba yetkazdi. Uning ketidan O'rdaning boshqa bir amiri «Bezdejli Tugay butun mamlakatni egallab, shu yerda turib qolgan».

### **Nazorat savollari:**

1. Amir Temur davrida O'rta Osiyodagi ko'chmanchi aholilar to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Temur va Temuriylar davrida nomad madaniyati: umumiylik va xususiylik.

### **Mustaqil ta'lim mavzulari:**

1. Temur va temuriylar davri ko'chmanchilar madaniyati: qiyosiy tahlil.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yakubovskiy A. Grekov B. Oltin O'rda davlati va uning qulashi. M., 1956.
2. Ahmedov B. O'zbek ulusi. T., 1992.
3. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. T., 1996

## **8-mavzu. Markaziy Osiyoda rus istilosi va nomad madaniyati.**

**Darsning o‘quv maqsadi:** Rossiya bosqinchilikning sabab va oqibatlari, Markaziy Osiyo nomad madaniyatiga rus istilosining ta’sirini talabalarga tushuntirib berish, ularda manba va adabiyotlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

**Tushunchalar va tayanch iboralar:** Rossiya davlati, rus istilosi, Turkiy xalqlar madaniyati, an’analari va urf-odatları.

### **Reja:**

1. Markaziy Osiyoga rus istilosining boshlanish sabablari.
2. Rus istilosi davrida ko‘chmanchi aholi madaniyati.
3. Rus istilosining nomad madaniyatiga ta’siri.

### **Asosiy qism**

X asrga kelib Oltoy aholisi turli xil qabilalarning uyushmasi sifatida nomoyon bo‘lgan. Ular orasida eng kuchlisi qipchoqlar bo‘lishgan. XIII asrgacha yenisey qirg‘izlari, kimklar, kachinlar, kidanlar, naymanlar kabi turli qabilalar katta yoki kichik davlatlar tashkil qilishib, ularning tarkibiga Oltoy xalqlari ham kirishgan.

XIII asr boshlarida Qirg‘iz xonligi chingizxon qo‘shini tomonidan tor-mor qilindi. 1207 yilda Oltoy hududi Chingizxonning katta o‘gli Jo‘chi ulusi tarkibiga kirgan, keyinchalik Oltin O‘rda deb nomlangan katta davlat tarkibiga kirgan. Shu davrda Oltoydan sharqda g‘arbiy mo‘g‘il - oyrat qabilalari kuchaya borgan. 1635 yilda oyrat qabilalari Jung‘or xonligi deb nomlangan yagona davlatga birlashishgan. Oyratlar va Jung‘or xonlari Oltoy xalqlaridan soliq olishgan. Bu davrda Oltoy aholisi Janubiy va Shimoliy oltoyliklarga bo‘lingan. Janubiy oltoyliklar Markaziy Osiyo mongoloid va Janubiy Sibir tipiga mansub bo‘lishgan. (tuvaliklar, buryatlar, mo‘g‘illar ) Shimoliy oltoyliklar Ural tipiga mansub bo‘lib, turkiy, samadiy, ket va ugor qabilalarini o‘z ichiga olgan.

Tog‘li oltoyda Janubiy oltoyliklar yashashgan: Teles ko‘li, Chumishman daryosi, Chuy daryosi vodiysi va Katunda. Shimoliy oltoyliklar Oltoy tog‘i etaklari va Bii daryosi vodiysida yashashgan. XVII asrda oltoyliklarning hozirgi kungacha shug‘ullanib kelayotgan ov va chorvachilik kabi xo‘jalik faoliyat shakllari shakllangan. Oltoyda ilk bor ruslar XVII asr so‘ngida paydo bo‘lishgan. Ruslar uchun Oltoyning o‘zlashtirish Jung‘or xonlari hujumidan himoya qiluvchi mudofaa qal‘alari va istehkomlarning qurilishidan so‘ng tezroq kechdi.

XVIII asr boshlarida Rossiya Shvesiya bilan 20 yil jang olib borgan. Bu davrda to‘plar tayyorlash uchun po‘lat qazib olish zarurati tug‘iladi. Oltoydagi temir konlari birinchi bo‘lib Stepan va Yakov Kostilevlar ochishgan. Lekin ularning kashfiyotidan birinchi bo‘lib urallik A.N. Demidov foydalangan. 1726 yilda u Oltoyda zavod va konlar qurish uchun manapoliya huquqini qo‘lga kiritgan. U tomonidan 1729 yilda Kalivan -voskresnsh nomli va 1744 yilda Barnaul po‘lat quyish zavodlari ochilgan. Lekin, Demidov po‘latdan ko‘ra Oltoy kumushidan ko‘proq manfaat ko‘rgan. 1747 yilda Oltoy konlari rus shoxlari rus shoxlari qo‘liga o‘tgan. 1726-1768 yillarda Pavlovskda yana bir kumush eritish zavodi ishga tushadi.

XVIII asr so‘ngida Zmeinagorskdagi kumush zaxiralari tugab qoladi. 1861 yilda krepostnoylik huquqi bekor qilingandan so‘ng tog‘ sanoati tanazzulga yuz tutdi.

Krepostnoylik huquqi bekor qilingandan so‘ng sibiridan bo‘sh yer olish ilinjida bo‘lgan ruslar ko‘chib kela boshladi.

Shu davr Oltoyning Barnaul, Bii va Zmeinagorsk kabi shaharlari savdo markazlariga aylangan. Bii shahri orqali Mo‘g‘iliston va Xitoy bilan savdo munosabatlar olib borilgan.

Qipchoqlarning shakllanishiga ko‘plab qang‘li, turkiy tilli qabilalar – uran (X asrda Sharqiy Turkistondan kelib qolgan), bayat, azkishi, va turgashlar, qarluqlar, chig‘illar va tyurgeshlar ta‘sir ko‘rsatgan. Qipchoqlarning siyosiy qudratining o‘sishi, qabilalar va etnik guruhlar qipchoqlarning hukmronligini, yagona etnosga bog‘liq ekanligini tushunib qipchoq etnonimini qabul qilganlar.

Ammo qipchoqlarning xalq siqfatida shakllanishining tugallanishini mo'g'ul bosqini to'xtatib qo'ydi.

**Qipchoqlarning tarqalishi.** XI asr o'rtalaridan qipchoqlar hozirgi Qozog'iston hududiga – sharqda Oltoy va Irtishdan g'arbda Volga va Janubiy Ural tog'larigacha tarqalgan, janubda Balxash ko'lidan shimolda janubi-g'arbiy Sibirgacha bo'lgan hududlarni egallagan.

XI asr ikkinchi yarmida qipchoqlar Mang'ishloq va Ustyurtgacha yetib borishgan. Qipchoqlar janubda Tarozgacha yetib borishgan. Qipchoqlar xoni Qoraxoniylar bilan Balxash ko'li va Alako'l ko'li orqali chegaradosh bo'lib qolishgan. XII asrda qipchoqlar Oltoy va Irtishda naymanlar, qang'li va kereitlar bilan chegaradosh bo'lishgan. Shimoli-sharqda qipchoqlar sayan-oltoy madaniyati namunalari bilan tanishgan qirg'izlar, xakas va boshqa qabilalarga chegaradosh bo'lgan. Qipchoq xonligining shimoliy chegarasi G'arbiy Sibirgacha yetib borgan. Shimoliy-g'arbda qipchoqlar Volga bo'yi va Uralbo'yi aholisi bilan etnomadaniy va siyosiy munosabatlarga kirishgan. Qipchoq qabilalarining bulg'or va boshqirdlar bilan aloqalarida qipchoq tili va madaniyatining ta'siri kuzatiladi.

Xonlikning tashkil topishi. XI asr birinchi yarmidagi shiddatli voqealar jarayonida qipchoq aslzodalari Sharqiy Dashtiqipchoqqa ta'sirini o'tkazgan, shu bilan birga Sirdaryoda o'g'uzlar, O'rta Osiyoda Saljuqiylar, Xorazmshohlar va Qoraxoniylar bilan to'qnashuvlari va urushlari Qipchoqlar davlatining tashkil topishiga zamin yaratdi. Qipchoqlarning siyosiy kuchi (ustoi) XI asr o'rtalarida mustahkamlandi, qipchoq va kumak qabilalarining migratsiyasi qabilalarning uyushuviga olib keldi. XI asr ikkinchi yarmi va XII asr uchinchi choragida qipchoq qabilalarining stabillashuviga va siyosiy birlashuvi kuzatiladi. Xulosa shulkim, qipchoq xonlari o'zlarining ta'sirini butun xonlikka yoygan.

Xon hokimiyati meros sifatida otadan bolaga o'tgan. Sulola urug'i nomi yelbori edi. Xon qarorgohi O'rda deb atalib, unda xonlik boshqaruv ma'muriyati joylashgan bo'lib, xon mulkiga va qo'shinini idora qilgan. Qipchoq xonligi harbiy-ma'muriy boshqaruvi qadimgi turk an'analarini davom ettirib, ikki qanotga bo'lingan: o'ng qanot – qarorgohi Ural daryosi bo'yidagi Saraychik shahrida

oʻrnashgan, chap qanot – qarorgohi Sigʻnoq shahrida joylashgan. Oʻng qanot ancha kuchli hisoblangan Xonlik markazi Turgay choʻllarida joylashgan boʻlishi mumkin. Harbiy va harbiy-maʼmuriy boshqaruv apparatiga katta ahamiyat berishgan Hukmron aristokratik verxushka qatlam (xonlar, tarxonlar, bosqoqlar, beklar, boylar) qatʼiy oʻrnatilgan tartib (ierarxicheskaya sistema) asosiga qurilgan. Qipchoq xonligiga kirgan urugʻ va qabilalar oʻzining ijtimoiy mavqeiga qarab boʻlingan.

Qipchoqlarning asosiy xoʻjaligi chorvachilik boʻlib, asosiy boyligi ot hisbolangan. Boylarning qoʻlida 10 ming va undan ortiq otiga ega boʻlganlar bor edi. Mulkga koʻz olaytirganlar qattiq jazolangan. Qipchoqlarning xususiy mullari maxsus belgi bilan tamgʻalangan. Aslzodalar juda koʻp mollarga egalik qilish bilan birga, ular yaylovlarga ham egalik qilgan, vaholanki, yuridik jihatdan ular bu yerlarning egasi emasdilar. Faqat qipchoq xonlari yoki qipchoq qabilaviy aslzoda (znat) larning ruxsati bilan yaylovdan yaylovga koʻchilgan. Jamiyatning asosiy qismini tashkil qilgan erkin jamoachilar (ryadovie obshinniki) chorvador boʻlishgan. Ular oʻzlarining mol-mulkini va oilasini himoya qilgan hokimiyatga itoatini tan olgan. Mol-mulkidan ajralgan erkin jamoachi oʻtroqlikka koʻchgan. Ular **yatuklar** deb atalgan. Kambagʻal yatukda chorva moli paydo boʻlgan yana chorvachilik xoʻjaligiga koʻchgan.

Qipchoqlar jamiyatida qullar huquqsiz guruhni tashkil qilgan, ularning tarkibi urushda asir tushganlar evaziga toʻldirib borilgan. Qullar asosan sotish uchun ushlab turilgan va baʼzan esa xoʻjalikda choʻri sifatida ishlatilgan.

Shunday qilib, Qipchoq xonligi ilk feodal davlati hisoblanib, qadimgi turkiy davlatchilik anʼanalarini davom ettirgan.

Qipchoqlarning siyosiy munosabatlari. 1065 yilda saljuqiylar sultoni Alp-Arslon Mangʻishloqdagi qipchoqlarga, Jand va Savronga qarshi urush qilib ularni vaqtinchalik qaram qilgan. 1096 yilda qipchoqlar xoni Xorazmga yurish qilgan. Ammo saljuqiylar ularni Mangʻishloqdan haydab yuborgan edi. Mahmud Koshgʻariyning yozishicha, qipchoqlarning harbiy – koʻchmanki aslzodalari

Qoraxoniylar bilan janjallashib turishgan. Qoraxoniylar xoni Qipchoq ulusining sharqiy chegaralariga hujum qilib turgan.

XI asr oxiri XII asr boshlarida Jand, Yangikent va Sirdaryoning quyi oqimida joylashgan boshqa shaharlar qipchoq sardorlari qoʻlida boʻlgan. XII asr birinchi yarmida bu shaharlar qipchoqlar bilan oʻrtaosiyoliklar oʻrtasida urush oʻchogʻi boʻlib qolgan. Xorazmshoh Otsiz islomni yoyish maqsadida Jandni bosib olgan, hattoki Mangʻishloqni ham oʻz mulkiga qoʻshib olgan. 1133 yilda janddan turib Dashti Qipchoqqa uyushtirilgan jangda qipchoqlar Otsizdan yengilgan. Aynan shu davrda Qipchoq xonligining parchalanishi kuzatiladi.

XII asrning ikkinchi yarmidan eʼtiboran Tekesh (1172-1200) davridan boshlab qipchoq zadogonlari bilan yaqinlashuv jarayoni boshlangan. Qabila sardorlari – qipchoqlar, qangʻli, imeklar, uran qabilasi yoʻlboshchilari xorazmshohlar xizmatiga kira boshlaydilar. Qipchoq xonlari zadogonlari va Xorazmshohlar sulolari qarindoshilik aloqalariga kirisha boshlaydilar. Qipchoq xoni Djankeshi oʻz qizi Turkanxotinni Xorazmshoh Tekeshga xotinlikka uzatgan. Davom etib kelayotgan anʼanalarga binoan Xorazm hukmdorlari qangʻli va qipchoq urugʻlari qizlariga uylanishgan.

Shuni taʼkidlash kerakki, mintaqadagi siyosiy ahvol yaxshi emas edi. Qangʻli qabilalar birlashmasi XII asr 2-yarmi – XIII asr boshlarida oʻz-oʻzini boshqarish maqsadidagi harakatlari Qipchoq xonligining siyosiy birligiga putur yetkazgan. Maʼlumki, qangʻli va qipchoqlar xorazmshohlarning asosiy harbiy qudrati hisoblangan. Bu urugʻ jangchilari xorazmshohlar qoʻshinida asosiy mavqega ega boʻlishgan. XIII asr boshlarida Xorazmshohlar saroyida qangʻlilar sardori Amin Malik muhim mavqega ega boʻlgan. Chunki, xorazmshoh Alovuddin Muhammad aynan Amin Malikning qiziga uylangan boʻlgan. Qipchoq zadogonlari xorazmshohlar saroyida muhim oʻrin tutgan va hatto harbiy lavozimlarni egallab turgan.

XIII asr boshlarida xorazmshoh Muhammad (1200-1220) davlati tarkibiga Sigʻnoq ham qoʻshib olinadi. Sigʻnoqni qoʻllaridan berib qoʻyishlariga qaramasdan qipchoq xonlari Xorazm bilan shiddatli kurashni davom ettirgan. Muhammad

Xorazmshoh Janddan turib Dashti Qipchoqga qarshi yurish qilib turgan. 1216 yilda Qodirxonga qarshi yurish qilib, to Irtishgacha kirib borgan, va Turgay cho'llarida merkitlarni taqib qilib borayotgan Chingizxon qo'shinlariga duch kelgan. Xorazmshoh qo'shinlari bilan jangdan keyin Chingizxon qo'shinlari kechasi yashirincha chekinishga majbur bo'lgan edi. Bu birinchi marta mo'g'ullarning Qozog'iston hududlarida paydo bo'lishi edi. Aynanshu vaziyat qipchoqlarning xorazmshohlar bilan uzoq davom etib kelgan ziddiyatlariga barham bergan. Va shunday qilib, Dashti Qipchoqda mo'g'ul boshqinchiligi davri boshlandi.

### **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Oltoy xalqlari tarixini bilasizmi?
2. Oltoy aholisi madaniyati yodgorliklari haqida so'zlab bering.
3. Oltoy aholisining qo'shni xalqlar bilan aloqalari.
4. "Qipchoq" atamasining etnonimi
5. Qipchoqlar xo'jaligi to'g'risida nimalarni bilasiz.

### **Mustaqil ish topshiriqlari:**

1. Oltoy aholisi bilan Dqshiti Qipchoq aholisining turmush tarzi va madaniy hayotini taqqoslab bering.

### **Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Asfendiyarov S. Istoriya Kazaxstana (s drevneyshix vremen).Almati. 1993.
2. Ahmedov B.A. O'zbek ulusi. T., 1994.
3. Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Oltin O'rda va uning qulashi. T.

## **9-mavzu. So‘nggi o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati**

**Darsning o‘quv maqsadi.** Rossiya imperiyasi, uning bosqinchilik yurishlarining Markaziy osiyoga qaratilishi, Dashti Qipchoqning bosib olinishi, Kazaklar, tatarlar, boshqirdlarning us imperiyasi tarkibiga kiritilishi va nomad madaniyatining tanazzuli to‘g‘risida talabalarga atroflicha bilim berish, ko‘nikma va malaka shakllantirish.

**Tayanch iboralar va tushunchalar:** Rossiya imperiyasi, Dashti Qipchoq, Qozoq xonligi, Nog‘oy xzonligi, Sibir xonligi, Kazaklar, tatarlar, boshqirdlar.

### **Reja:**

1. XV-XVII asrlarda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati.
2. XVIII asrda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati
3. XIX asrda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati.

### **Asosiy o‘quv materialini qisqacha bayoni**

1. XV-XVII asrlarda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati. XV-XVII asrlarda Markaziy Osiyodagi ko‘chmanchi aholi uchun xos xususiyat, bu avvalgi davr madaniyatining hamma tomonlarini qamrab olganligi hisoblanadi. Shu bilan birga, ularda o‘ziga xos xo‘jalik xususiyatlari shakllana boshlaydi, moddiy va ma‘naviy madaniyat rishtalari mustahkamlanadi. Markaziy Osiyo hududlarida ko‘chmanchilar uchun xos xususiyat, bu ularning ko‘chmanchi turmush tarzida, xususan ularning uy-joylarida, kiyimlarida, ularni o‘rab olgan tabiatni tushunishlarida, xalq og‘zaki ijodlarida va san‘atimda o‘z aksini topgan.

So‘nggi o‘rta asrlar qozoqlarning uy-joylari asosan o‘tovlardan iborat bo‘lgan. O‘tovlar ham o‘ziga xos konstruksiya asosida gumbazsimon shaklda qurilgan. “O‘z uyim, o‘zimning machitim” degan naql, o‘zbeklarga o‘xshab “O‘z uyim, o‘lan to‘shagim” ma‘nosiga to‘g‘ri keladi. O‘tovni qozoqlar juda qadrlashgan. O‘tovga janubiy-sharq tomondan kirilgan. O‘tovning o‘rtasida

o'choq qurilgan. Uning ichi ayollar, erkaklar va mehmonlar uchun alohida bo'lmalarga bo'lingan. O'tovlar 9-12 ta yog'ochlar to'qimasidan qilingan reshetkadan iborat bo'lgan. Tarixchi Ruzbexan yozishicha, o'tovlar oq qarag'aydan to'qilib, juda mustahkam qurilgan. O'tovning usti kiygiz va qo'y terilari bilan yopiladi. Unda sultonlar va amldor qozoqlar yashaydi. Ularning har biriga 20 tadan ortiq odam siqqan."

Qozog'iston aholisi uchun XV-XVII asrlarda yarim o'troq va o'troq uylar qurish xos bo'lgan. Qozog'istonning janubida - Qoratorov, Chuv vodiysi va Sarisuv, Ulug'tov uchun yer uy, shoshala, kora xillari keng tarqalgan.

XV-XVII asrlarda qozoqlar islom dinigsha e'tiqod qilishgan, ko'chmanchilar esa avvalgiday Ko'k Tangri ya'ni shomonlikla e'tiqod qilar edi. Fanda ma'lumki, qozoqlar uylarida turli xudolarni, totemlar va ajdodlarni anglatuvchi toshdan, yog'ochdan, kiygizdan yasalgan tangrilari bo'lganligi ma'lum. Uy-joyni balo-qazolardan asrovchi Olov tangrisi katta rol o'ynagan.

Manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, XV-XVII asrlarda Saraychik shahri yaqinida Jonibek va Qosim sharafiga bunyod qilingan maqbara qurilgan. Qosimxon hukmronligi davrida Markaziy Qozog'istondagi Ulutovda Alashaxon sharafiga maqbara qurilgan. Turkistondagi Ahmad Yassaviy machiti hovlisida Yesimxon Va Jahongir uchun maqbara qurilgan. Mang'ishloq, Ulutov, Sirdaryoning quyi qismlarida arxitektura yodgorliklari qad ko'taradi. Arxitektura yodgorliklarida qozoqlarning dekorativ san'ati namayon bo'ladi. Ular o'tovlarning ichni bezatishlari o'ziga xos bo'lgan.

XVIII asrda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati. XVIII asrda Markaziy Osiyo nomad madaniyatida uncha katta bo'lmagan o'zgarishlarni kuzatish mumkin. Ularning barchasida o'rta asr ko'chmanchi turmush tarzi o'z aksini topgan. Buni biz ham moddiy, ham ma'naviy madaniyatda ko'rishimiz mumkin.

Ko'chmanchi turmush tarzi turar joylar, kiyim-bosh, osh-ovqat, xalq og'zaki ijodida o'zini namayon qildi. Tashqi madaniy ta'sirlar natijasida faqat ayrim

detallardagina aks eta boshlagan. Masalan, Oltin O'rda davrida ko'chmanchilik o'zining cho'qqisiga yetgan, undadabdabalik, bahaybatlikni kuzatish mumkin – doma-povozki (Aravali-uylar). Sayyoh Rubrik, arava-ko'chmanchi uylarni 22 ta buqa sudrab borayotganligini ko'rgan. U qo'shından uzoq bo'lmagan joyda 500 ta o'tov-aravani ko'rgan. Ular oltin, kumush va ipak ko'ylaklar bilan to'la ekanligini yozgan.

XVIII asr o'rtalariga qadar Qozog'iston ko'chmanchilari umumiy nom "qozoq" nomi bilan ataldi. Ko'chmanchilardan aloqalarini uzganlar etnoslar tarkibidan chiqib ketgan deyiladi. Masalan: Quramaning shakllanishi boshlandi, ular o'zbeklar tarkibiga kirib ketdi. XVIII asr o'rtalaridan boshlab boshqa xususiyatlar hg'am kuzatila boshlanadi. M-n Ablayxon boshchiligida qishlov uylarini qurishga o'tiladi. Rus hukumati qozoqlarni o'zlariga tomon egib olish maqsadida xonlar va sultonlar, urug' boshliqlari – biylar va botirlar uchun doimiy uy-joylar qurib bera boshlashadi. Yekaterina II davrida chegara hududlarida qozoqlar uchun ko'plab machitlar qurib bera boshlaydi.

XVIII asr oxirlarida chegara viloyatlaridan tez-tez hujumlarning bo'lib turishi, qozoqlarning ahvolini yanada qashshoqlashtirdi, va ularni o'troq hg'ayotga o'tishiga majbur qildi.

Qozoqlarning kiyim-boshlari turlicha bo'lgan. Ular O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston bozorlarida rangdor ipak matolar sotib olishgan. 50-yillardan boshlab Xitoy chegaralaridan shu kabim matolarni xarid qilishgan. Rossiya hududlaridan – Orenburgdan(1734 y.), Petropavlovss (1750 y.), Semipalatinsk (1760 y.) sukno sotib olishgan. Harbiy liniyalar va qo'rg'onlardagi tansiyalarda ko'chmanchilar bilan savdo qilishgan.

XVIII asr Qozoqlar xo'jaligida natural xo'jalik ukladi ustunlik qilib, ular o'zlari uchun ustki kiyim ishlab chiqarishgan. Qo'y terisidan shubalar tikishgan. Hayon mo'nalaridan kiyim tikishgan. Ayollar va erkaklar uchun guldor chopon – kashtalar bilan bezatilgan chopon udum bo'lgan. Doimiy kiyish uchun ChAKMON udum hisoblangan. Qozoqlar kiyimida bir nechta komponentlarni ko'rish mumkin. Erkak, ayl va bolalar kiyimlari yozlik va

qishlikka moslashtirilgan, bayramlar va kundalik kiyish uchun, harbiy va boshqalarga mo'ljallangan kiyimlardan iborat bo'lgan. Asosiy bo'lishi talab qilinadigan narsalar, tasmalar va kashtalar bilan bezatilgan belbog', ularga taqinchoqlar ham qadalgan. Ayollarning kumushdan bilakuzuklari, tillo uzuklari, sirg'alari udum sanalgan. Qozoq jangchilari kumushdan qurollari bo'lgan. Bu davrda qozoqlarda an'anaviy qurollardan tashqari harbiy qurollar ham paydo bo'ladi.

XVIII asrda Buxar, Umbetay, Aktamberdi, Tatikara va boshqa jirchilarning qo'shiqlar mashhur bo'lgan.

Og'ir tarixiy sharoit tufayli qozoq xonligining jung'or bosqinchilariga qarshi kurashgan Tole, Kazibek, Aytek kabi buyuk namoyondalari o'tgan. Ular qozoqlarning ijtimoiy hayotiida muhim rol o'ynagan. Masalan, 1726-1729 yillarda O'rdabasda bo'lgan umumqozoq s'ezdini misol keltirish mumkin. Qurultoyda Abulxayr, Abulmambet, Sameke, Kushik, Jolbars kabi xonlar, Tolebiy Alibekkul, Kazdausti Kazibekbimy, Aytekebiy kabi urug' boshliqlari va boshqa sarkardalar va botirlar qatnashgan. Qurultoyning asosiy maqsadi hamma qozoq urug'larini jung'or bosqinchilariga qarshi ittifoqqa chaqirish uchun yig'ilgan edi.

Yuqorida nomlari tilga olingan biylar Tauke xon davrida "Jeti Jarg'" majlisiga kiritilgan. Chunki ular barcha juzlarning manfaatlarini himoya qilgan, ular "O'rda biy" deb nomlangan. Har bir urug'da o'zlarining vakillari-biylari bo'lgan, ular oqsoqollarning ishonchli vakillari hisoblangan.

XVIII asrda xuddi avvalgiday, katta yig'inlar va kengashlar oliy hukmdorlar qarorgohlarida o'tkazilgan. Biylar katta mavqega ega bo'lishgan.

Tole-biy (1663-1756) Alibekuli – Qozoq xonligining buyuk namoyondasi, notiq, Katta Juzning bosh sudbyasi, AzTaukexon davrida "Jeti jarg'a" qonunlar to'plamining mualliflaridan biri hisoblangan.

Az Taukexonnin7g vafotidan so'ng qozoq xonligi alohida hududlarga bo'linib keta boshlagan. Shundan so'ng, urushlardan keyin Turkiston shaharlarining sanoati va savdosi juda ham upadok -pasayib ketgan. Shimoliy-

sharqda Rossiya imperiyasining aralashuvi kuchayadi. Tolebiyqozoq xalqining prorus boshqaruv elitasining tarafdori edi. Boshqalardan farqli o'laroq u rus podshosi vassalligiga o'tishga shoshilmadi.. U Ablayxon bilan tashqi siyosati qonunlarini ishlab chiqadi. Tolebi Toshkentda vafot etgan va qabri Toshkentda qolgan.

Kazibekbiy Kazdausti (1666-1763) Kekldibekuli – Qozoq xonligining buyuk davlat namoyondasi, diplomati, katta Juzning bosh sudyasi, To'lebiy va Aytekebiy bilan “Jeti jarg'a” ishida qatnashgan.

Kazibek Keldibekulq o'z faoliyatini 18 yoshida boshlagan. U 18 yoshida Qozoq xonligining Jung'or xoni Goldanga jo'natgan elchiligi tarkibida qatnashgan. Uning xizmatlari evaziga jung'orlar bilan muzokoralar muvaffaqiyat qozongan va do'stona yakunlangan. U bir nech marta elchi bo'lib Jung'or xonligiga borgan. 1742 y. Malaysari vava boshqa 90 ta biylar bilan Jung'or xonligiga borgan va Ablayni ozod qildgan. Kazibekbiy Qozoq va Jung'or davlati o'rtasida uzoq muddatga mo'ljallangan shartnomani tuzishga muvaffaq bo'lgan. Kazibekbiy 40-60 yillarda Qozoq xonligining tashqi aloqalarini boshqargan. Bu vaqtda Rossiya va Xitoy bilan munosabatlar masalasi keskin turgan edi. Uning xizmatlari evaziga Xitoy va Rossiya hukumati Ablayxon bilan muzokoralar olib borishga majbur bo'lgan. Ablayxon unda neytral pozisiyani egallab turgan.

3.XIX asrda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati.

XIX asr boshlarida hamma qozoq aholisi uchta juzga bo'lingan, ularning har biri tarixiy-geografik viloyatlarga bo'lingan. Qozoqlarning juzlarga bo'linishi XVIII asr boshlaridan boshlangan.

XIX asr boshlarida Kichik juz hududida (Qozog'istonning g'arbiy qismi, Quyi Sirdaryodan Yoyiq va Tobol daryolarigacha bo'lgan yerlarda ) uchta avlodni birlashtirgan - alimuli, bayuli va jeturi - 25 ta yirik qabilalar yashagan. Bu davrda A.L.Levshinning yozishiga kura, Kichik juzda 190 ming o'tov, ya'ni 1,5 mln. Aholi bo'lgan.

Oʻrta juz hududi sharqda Xitoy chegaralaridan gʻarbda Turgʻay vodiysigacha, janubda Toshkentdan shimolda janubiy-sibir oʻrmonlarigacha yoyilgan boʻlib, oltita qabilani birlashtirgan 1360 ming aholi yashagan.

Katta juz Janubi-Sharqiy Qozogʻistonni egallagan. Unda 11 ta qabilada taxminan 100 ming oʻtov boʻlgan., Livshinning yozishiga koʻra, aholi soni 600 mingga yetgan.

XIX asrda qozoqlar tarkibiga kirmagan “Shal qozoq” (chala qozoq)lar ham boʻlgan.

XVIII asrning 30- yillarida boshlangan Qozogʻistonning rossiyaga qoʻshib olini jarayoni XIX asrning 60-yillarida nihoyasiga yetdi. Qozoqlarning Rossiyaga qoʻshib olinishi turli xil tashqi siyosiy taʼsirlar taʼsirida roʻy bergan. Kichik juzning katta qismi va Oʻrta juzning baʼzi tumanlari Rossiya vassalligiga oʻz xoxishlari bilan erkin oʻtgan. Oʻrta juzning katta qismi va Junubiy Qozogʻistonning ayrim tumanlari chorizimning hgʻarbiy yurishlari natijasida qoʻshib olindi. Qozogʻistonning Rossiyaga qoʻshib olinishi uch davrda sodir boʻlganligi kuzatiladi. Birinchi () vassallik, XVIII asrning 30- yillaridan boshlanib, unda Rossiya mustahkam chegaralar, qalʼalar, forpostlar, qurilishi va rus kazaklarining koʻchirilishi kuzatiladi. XIX asrning 30-yillaridan XIX asrning 60-yillarigacha davom etib, bu davrda qozoq yerlari va Qozogʻiston hududi Rossiya tomonidan toʻliq egallab boʻlingan. Uchinchi davr - XIX asrning 60-yillaridan Qozogʻiston Rossiyaning ichki koloniyasiga aylangan. XIX asrning 60-yillarga qadar rus ekspansiyasida kazaklar asosiy oʻrin tutgan (gospodstvuyuoʻee polojenie). Ilk kazak qishloqlari Gʻarbiy Qozogʻistonda paydo boʻlgan. Umumqoʻshinga qarashli yerlarda kazaklar dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shugʻullanishgan. 1748 yil hukumatning farmoni bilan kazaklar yozgi mavsumda qishga xashak yiqqan, ukrepleniedan atroqlarida oʻzlariga xutorlar qurishga ruxsat berilgan. Shu davrdan boshlab Yoyiq va Iles shaharchalari oraligʻida va Uralga quyilish joylarida koʻplab xutorlar paydo boʻla boshlagan. Bu esa kazaklarning oʻtroqlashuviga olib kelgan.

1740-1743 yillarda Kichik juz va Janubiy Uralda Vozdvijennaya, Rassilnaya, Ilinskaya, Tanalixskaya, Urazimskaya, Kizilskaya, Magnitnaya va boshqa qal'alar qad rostladi. XVII asrning 50-yillarida Gorkaya, Irtishskaya, Kolivanskaya, Ishimskaya, Orskaya va b. Liniyalar qurildi. Boshlangan siyosat natijasida Yoyiqdan Ust-Kamenogorskka 3,5 verstga cho'zilgan uzluksiz qal'alar va forpostlar paydo bo'ldi. Bu yerda asosan kazaklar joylashtirildi. Ochiq kolonial siyosatni Orenburgning birinchi general-gubernatori I.I.Neplyuev olib bordi. 1752 yildla 10 ta harbiy qukrepleniyadan 53 redutdan iborat Uyskiy liniyasini Irtish liniyasi bilan bog'lagan harbiy liniya paydo bo'ldi. Natijada rus chegaralari O'rta juz yerlari hisobiga 50-200 verstga cho'zildi. Bu hol qozoqlarning yaylovdan-yayolovga ko'chib yurish an'anasini buzdi va Irtish daryosi o'ng sohili yaylovlaridan mahrum qildi. Harbiy chegaralarning qurilishi XVIII asrning 50-yillarida birinchi yuridik hujjatlarni qabul qilishga yo'l oyadi. Hujjat O'rta juzdagi kazaklarga yerlarni biriktirib berishni qonunlashtirib qo'ydi. 1755 yildla Tashqi ishlar kollegiyasi qozoq ko'chmanchilari uchun Irtishdan o'tishni ta'qiqlab qo'ydi. 1746 yil qozoqlar Irtishgacha 10 verst, harbiy qal'alar va forpostlardan 30 verst masofagacha kelishga ruxsat berildi. XVIII asr oxirlarida qozoq ko'chmanchilarining aksariyati Rus podsholigini tan oldi. Shuning uchun rus hukumati egallangan hududlarni mustahkamlashga bel bog'ladi. Omsk, Petropvlovsk, Semipalatinskda o'troq aholini shakllantirishga harakat qildi. Shu maqsadda 1808 yilda mestnoe kazachestvo (voychsko) – kazaklarni o'troqlashtirishga o'tildi, ularni maosh, yer va oziq-ovqat bilan ta'minlandi. 20-yillarda kazak qo'shinlari Sari-Arkining eng obod yerlarini egallashdi va Akmalisk, Bayanula, Kokshetov, Karkarali tumanlari paydo bo'ldi. Kazaklar bilan birga rus sanoati ham kirib kela boshladi., natijada ular oltin, kumush va mis konlarini ochib o'zlashtirishga kirishdi. G'arbiy Qozog'istonni o'zlashtirish XVI asrdan boshlangan edi. XIX asr boshlarida kazachestvo ruslarning dashtga hujumi bilan boshlandi. Xo'jalik tushkunligi va yer tanqisligining oshishi 1801 yilda Bukeyev yoki Ural bilan Volga daryolari oralig'ida Ichki Ordaning tashkil topishiga olib keldi.

Jangir davrida (1824-1845) Bukeyvskiy Ordada turli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qozoqlar tarixida birinchi marta yarim ko'chmanchi qozoqlarda yerga xususiy mulkchilikning paydo bo'lishiga olib keldi. Unda tarxonlik instituti tuziladi. Soliq tizimi isloh qilindi. Xon ma'muriy boshqaruv tizimini vujudga keltirdi: devon, deputatlar guruhi, 12 biydan iborat kengash, yasovullar instituti, 14 kishidan iborat xon vestovix - oxun-xonlikning diniy mansabi paydo bo'ldi.

Iqtisodiy hayotda savdo markazlari qad rostladi, yarmarkalar ochildi, dehqonlik rivojlandi. Xon o'rdasida musulmon maktablari tuzildi. 1841 yildan xon dunyoviy maktablarni ocha boshladi. "Orujeynaya komnata" – muzey tashkil qilindi. Jangir xonning o'zi Kazan universitetining ilmiy-tarixiy jamiyatining faxriy a'zosi qilib saylandi.

XIX asrgacha qozoqlar madaniyati an'anaviy va shu bilan birga sinkretlashgan. An'analarning buzilishiga qo'shnilarning kirib kelishi va oqibatda siyosiy inqirozlar, ta'sir qilib xo'jalik hayotini izdan chiqargan.

XIX asr boshlarida qozoqlar asosan o'tovlarda yashagan. Hayotning turli sinovlari, harbiy bosqinlar o'tovlarning sodda qurilishiga o'tishga majbur qilgan. Vaholanki, o'tovlar juda guzal, uzoq mehnat, va b. Mahsuli hisoblangan edi. Rus hukumati o'tovlardan o'zining harbiy qo'shinlari uchun foydalangan. Qozoqlar qishki "qishlov" deb atalgan yashash udumiga o'tisha boshladi. Tog'li rayonlarda toshlar va yog'ochdan, dashtlarda derna va toshlardan, shimolda yog'ochlardan, janubda somon g'ishtlarda uylar qura boshlashgan. Uylarning oynalari shipda ochilgan., yoi eshikning ro'paro'sida o'rnatilgan.

XIX qozoq kiyimlarida tatarlar madaniyatining ta'siri kuzatiladi. Asr boshlarida o'rtaosiyo matolaridan – barxat, atlas , duriya – yashimipak, asr oxirlarida esa rus fabrika tovarlaridan kiyim kiyishni maqul ko'rishgan. Qozoqlarning saptama (uzun qo'njli etik), saukele (Kelinlar bosh kiyimi - ro'mol), ayir kalpak (erkaklarning uchi uchli qapoqlari) udumdan chiqa boshlagan. Ch Valixanovning yozishiga ko'ra, Jirchilar va kobiz faqat baxshilarning ishi bo'lib qoldi.

Mo'g'ullar bosqini davrida tabiiy iqlim sharoiti va xo'jalik tarmoqlarig ako'ra qirg'izlar ikki guruhga bo'lingan edi. Birinchi guruhga chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullangan dasht qirg'izlari kirgan, ikkinchi guruhga esa chorvachilik va ovchilik bilan shug'ullangan o'rmon qirg'izlari kirgan bo'lib, ular Yenisey daryosining yuqori oqimlarida tog'li o'lkalarda yashagan.

Yuqori Yeniseyda yashovchi qirg'izlarga oyratlar qo'shni bo'lishgan. XVII-XIX asrlarda Oyratlar qirg'izlarni burutlar deb atashgan.

XIX birinchi yarmida Qirg'izistonda patriarxal-feodal munosabtlar hukmronlik qilgan. Vaholanki, ijtimoiy munosabatlar asosini tashkil qilgan feodal ishlab chiqarish munosabatlaridapatriarxal-urug'chilik munosabtlarining ko'plab elementlari saqlanib qolgan edi.

Qirg'izlarning Qo'qon xonligi tarkibiga kirishi bilan yerga egalik munosabtlarida o'zgarishlar sodir bo'lgan. Masalan ashlak – davlat yer egaligi, mulk – xususiy yerga egalik, vakf – diniy yerga egalik formalari paydo bo'lgan. Ammo, dehqonchilikka o'tgan qirg'izlarda dehqonchilikning va suvdan foydalanishning an'anaviy qonun qoidalari Qo'qon xonligidan farq qilgan.

Yerning asosiy egasi Qo'qon xoni hisoblansa ham, aslida yer mahalliy aholi qo'lida saqlanib qolmoqda edi. Qishlov va yaylovlarga qirg'iz feodallari – boylar va manaplar boshchilik qilgan.

Yer, qirg'izlarda boshqa xalqlarda bo'lgani kabi asosiy ishlab chiqarish manbai hisoblangan. Ko'chmanchi qa yarim ko'chmanchilarda asosiy ishlab chiqarish manbai chorva hisoblangan. Chorva ko'chmanchilarning asosiy boyligi bo'lgan.

Janubiy Qirg'iziston va Farg'onada yer va suv katta muammo hisoblangan. Xonning gumashtalari qo'qonliklarning yerlariga qo'shni bo'lgan qirg'izlarning haydaladigan yerlar va yaylovlardan foydalanishga aralashib turgan. "Qirg'iziston tarixi" darsligida ko'pincha Qo'qon xoni qirg'izlardan eng yaxshi unumdor yerlarni tortib olavergan deb yozilgan.<sup>25</sup>

---

<sup>25</sup> О.Дж.Осмонов. История Кыргызстана (с древнейших времен до наших дней). Учебник для вузов. Бишкек. 2008. С.211.

Asrlar osha davom etib kelayotgan ko‘chmanchi qirg‘izlar an‘anasiga ko‘ra, yerlar jamoa, urug‘ yoi qabilaning mulki hisoblangan. Shu bilan birga o‘tloqlar, ulardan foydalanish nazorat qilib turish, tartibni saqlab turish, qishlov va yozgi yaylovlarga ko‘chishga feodal-manaplar nazorat qilgan. Yaylovlardan foydalanish davrida sodir bo‘lgan kelishmoqchiliklar biylar va manaplarning yig‘inida hal qilingan. Ba‘zan majlislarda xon amalodarlari ham qatnashgan.

Qirg‘izlarda yerga xususiy egalik qilishning qo‘riq (o‘rab olingan yer) deb atalgan formasi paydo bo‘lgan. Masalan Oloylik yirik feodal Abdilboyning O‘sh va Oltoy yo‘llari bo‘yida joylashgan Besh-Buloq deb atalgan joyda ekin yerlari va qishlovlari bo‘lgan.

Davlat yeralaridan foydalanish huquqi maxsus yorliqlar bilan tasdiqlangan. Bunday hujjat – vasiqa deb atalib, u xon tomonidan berilgan.

Yerga egalik qilishning feodal munosabatlari o‘rnatilgan bo‘lishidan qat‘iy nazar, patriarxal-urug‘ munosabatlari, qarindoshchilik munosabatlarining qonunlari va an‘analari, rituallar va urf-odatlar hanuz muhi rol o‘ynar edi. Bularning bari huquqsiz tabaqalarni – kedelar, jataq kambag‘allar, chorikorlar, mardikorlar, malaylar va jaqirlarni ekspluatatsiya qilishga sharoit yaratib berar edi.

Yirik manaplarning qullari bo‘lgan, ular urushlarda asir olinganlardan iborat edi. Manaplar qullarni qalin va sep tariqasida berishi yoki musobaqalarda priz sifatida qo‘yishi mumkin edi. Ular qullarni ozod qilishi ham mumkin edi. Ammo qulchilik ko‘chmanchilik turmush tarzida foydali bo‘lmagan. Shuning uchun qirg‘izlarda qulchilik keng tarqalmagan.

Shunday qilib aytish mumkinki, XIX asrda qirg‘izlarda patriarxal-feodal munosabatlar ustunlik qilgan. , ya’ni feodal ishlab chiqarish ustunlik qilgan.

Qo‘qon xonligi aholini qattiq ezgan. Asosan janubiy qirg‘izlarning ahvoli og‘ir bo‘lgan. Qirg‘iziston shimolida , tog‘li hududlarda Qo‘qon xoni hokimiyati unchalik mustahkam emas edi.

Xalqni ezishning asosiy formasi talonchilik soliqlari – feodal yer rentasi hisoblangan. Aholidan chorva solig‘i zakot olingan. Dastlab qirg‘izlar Qo‘qon xoniga tunluk zakot (o‘tov solig‘i) to‘lagan. Tunlik zakotma’lum bir bosh

chorvadan bir bosh chorva solig'i olingan. Masalan, 40 bosh mayda qoramoldan 1 bosh, 40 bosh ot va 30 bosh yirik qoramoldan (sigir, **yakov**) 1 boshdan chorvadan soliq olingan. Agar chorva egasida 40 boshdan ortiq chorva bo'lsa, u holda har bir ortiq bosh uchun qo'shimcha 40 tiyindan (bir qo'zi narxi) soliq to'lagan. Har 5 tuyadan bitta qo'y to'langan. Ammo qoramoldan olinadigan soliq miqdori doimo o'ynab turgan. Ba'zi yillari 1/20 hisobidan soliq olingan.

Dehqonlar - xiroj solig'i to'lagan, hosilning o'ndan bir hisobida. Bog'dorchilik va dehqonchilik bilan shug'ullanganlar pul bilan soliq to'lagan. Vaqti vaqti bilan har bir o'tovdan (oiladan) harbiy soliq – bita tillo yoki uchta qo'y soliq tariqasida olingan.

Aytilganlardan tashqari yana talaygina soliqlar olingan. Xudoyorxon davridan soliqlar soni 20 dan oshib ketgan. Hashar yo'li bilan aholidan foydalangan.

Qirg'izlarning eng asosiy xo'jaligilaridan biri chorvachilik bo'lgan. Lekin ularning tarixiy sharoitlar tufayli bu xo'jalik mashg'uloti o'zgarar edi. Qo'qon xonligi Qirg'izistonda hukumronlik qilgan vaqtida tez-tez ichki urushlar, bosqinchilik xarakatlari vaqtidagi eng asosiy mashg'ulot elqichilik bo'lgan. Tog'lik hududlarda otning o'rnini hech narsa bosa olmas edi. Xarbiy yurishlar vaqtida otlardan foydalanishgan. Ot xarakat uchun eng universal vosita bo'lgan va otda har xil tog'lik va cho'l hududlarni bosib o'tsa bo'lardi. Otning go'shti va suti eng qimmat baxo oziq-ovqat hisoblangan. Mo'g'ul otlarining turiga mansub qizg'iz otlari har xil ob-havoga moslashgan bo'lib o'zinig qimmatligi bilan ajralib turgan. Tuya va qo'ylar otlatga nisbatan qirg'izlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lmagan. Keyinchalik esa tuya va sigirlarni ko'paytirishga katta ahamiyat berishgan. Sigirlarning mahalliy turlari pastbo'yli va ular tog'lik hudud va ob-havoga ko'proq moslashgan bo'lganlar lekin kamsutli bo'lishgan. Qirg'iz qo'ylari qo'poljunli bo'lishgan va yomon sharoitlarni qishki kam oziqlanishni yaxshi qabul qilishgan

Dehqonchilik bilan shug'illanib kelayotgan janubiy qirg'izistonliklar vaqt o'tishi bilan, o'tlar qora mol va echki boqishga e'tibor qila boshlashgan. Ular

chorvachilikda asosiy e'tiborni qoramol, sigir va ho'kizlarni yetishtirishga qaratganlar va bu ularning turmushida muhim o'rin tutgan. Bu mintaqada asosan transport vositasi sifatida va yuk tashish uchun asosan ho'kizlardan va eshaklardan foydalanishgan. Sharqiy Pomir, O'shnig tog'lik qismlari va Tenir – Taoda yashovchi qirg'izlar qisman yovvoyi ho'kizlarni yetishtirganlar va ulardan xo'jalikda foydalanganlar.

Har bir qabila (urug') yil davomida ma'lum bir hududda, yaylov va past tekisliklarda ko'chmanchilik qilib kun kechirganlar. Baxor kelishi bilan ular chorva mollarini qishlash joylaridan, past-tekislik, yaylov va dasht dalalarga haydaydilar. Bu vaqtda qo'ylarning ko'payish mavsumi boshlanadi. Kunlarning isishi bilan pashshalar va boshqa zarakunanda xashorotlar ko'paya boshlaydi, shu sababdan chorvadorlar o'z chorva mollarini hududining tog'li, yuqori qismlaridagi yaylovlarga haydashgan. Bu hududlarning ko'p qismi tog' muzliklari yonida joylashgan edi. Toza havo va salqinda hayvonlar tez semirar edi. Qirg'izlar qadim zamonlardan muzlik suvlarining qanchalik foydali ekanligini bilganliklari uchun, chorvadorlikdan keng foydalanganlar. Salqin tushishi bilan chorvani pastlikka daryolar oldiga, past-tekisliklarga haydaganlar. Kuz kelishi bilan xosil yig'ib bo'lingach chorvadorlar qishlash joylariga haydaganlar.

Kishda kirgizlar chorvalarni molxonalarda bokishgan. Kishda kor kalin yoggan vaktida tuyogi bilan kavlab yul ochishar edi, sigirlarni bokishardi va kuylarni oxirida chikarishardi. Uzoq kishki vatdan sung kishki yaylovlardan baxorgi yaylovlarga kuchib utish kirgizlar uchun katta bayram sifatida kutib olinar edi. Uydagi samavr kiyimlar, gilamlar va boshka narsalarni xayvonlarga ortib kuchib utishgan. Otlarga bezatilgan egar jabduq yopishgan. tuyalarni buyniga takinchok takib yasatishgan. Birinchi bulib kuchib utganlar kesin kuchib utganlarni mexmon sifatida kutib olishardi. Kirgizlarning chorvalari bilan kuchib utgan xududlarining oralik masofalari xar xil bulgan. Asosan bu masofalar ob-xavo sharoitlari bilan bog'lik bulgan. Yoz faslida boy va uziga tui chorvadorlar aloxida uz xududlariga ega bulishgan. Ularning chorvalarini alohida cho'ponlar boqishar edi. O'rta hol va kambag'al aholi esa chorvalarini almashib –almashib boqishgan.

Chorvalari yo'qlar sa asosan ko'chishmas edi ular o'z joylarda qolishar edi va dehqonchilik bilan shugillanishgan.

Qirg' izlar maya shoxli chorvlardan qo'ylarni ko'paytirishar edi. Qishki vaqtda qorsiz va quyoshli hududlarga chiqarishar edi. Podaning eng chetida cho'poning o'tovi bo'lgan. Va tashqaridan qamishlar bilan o'ralgan bo'lgan.Kambag'al odamlar esa o'tovlar o'rniga chaylalarda yashashgan..

#### **Nazorat savollari:**

1. XVIII asrda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati
2. XIX asrda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati.

#### **Mustaqil ta'lim savollari:**

1. So'nggi o'rta asrlarda rus bosqinining nomad madaniyatiga ta'siri.

## MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti bosqichlari.
2. Dashti Qipchoqning eng qadimgi aholisini sanab bering?
3. Dashti Qipchoqning eng qadimgi turkiy aholisi xakida nimalar bilasiz?
4. Dashti Qipchoqning eng qadimgi aholisining turmush tarzining tarixshunosligi.
5. Dashti Qipchoqda diniy munosabatlarning o'rganilishi tarixi.
6. Dashti Qipchoqda shamanlik, xristianlik va boshqa dinlar to'g'risidagi fikrlar.
7. Dashti Qipchoqga islomning kirib kelishi va tarqalishi bo'yicha bildirilgan fikrlar
8. X-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda ko'chmanchilar davlatlarining paydo bo'lishi va ularda boshqaruv tizimi.
9. Dashti Qipchoqda mo'g'ullar hukmronligining o'rnatilishi.
10. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Dashti Qipchoqdagi siyosiy va iqtisodiy hayot.
11. Mo'g'ullar hukmronligi davrida o'rta osiyo va Dashti Qipchoq.
12. Temur va temuriylar davri ko'chmanchilar madaniyati: qiyosiy tahlil.
13. Oltoy aholisi bilan Dashti Qipchoq aholisining turmush tarzi va madaniy hayotini taqqoslab bering.
14. Rus istilosining nomad madaniyatiga ta'siri.

## **GLOSSARIY**

## **Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati**

### **Asosiy:**

1. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. T. 1992.
2. Azamat Ziyoyev. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T. 2000
3. Istoriya kazaxskogo naroda i Kazakstana. Alma-Ata. 2001

### **Qo‘shimcha:**

1. Artamonov M.I. Istoriya Xazar. L., 1962
2. Istoriya kazaxskogo naroda. Narod i kultura. Almati, 2002y Aristov N. O‘zbekiston tarixi. Jurnal. T., 2000-2006
3. Istoriya kazaxskogo naroda.: Narod i kultura. Almati, 2002.
4. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., 2001
5. Zametki ob etnicheskom sostave tyurkskix plemen i narodnostey i svedeniya ix chislennosti. «Jivaya starina», vip. 3-4. SPb., 1896
6. Bichurin N.Ya. Sobranie svedeniy o narodax obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. M-L., 1950-1953.
7. Vitevskiy V.N. Neptyuev I.I. i Orenburgskiy kray v prejnem yego sostave do 1753 g. vip. 1- 4. Kazan. 1889-1895.
8. Grekov B.D., Yakubovskiy A.Yu. Oltin O‘rda va uning qulashi. T. 1953.
9. Gumilev L.N. Drevnie tyurki. M., 1967.
10. Karamzin. Istoriya gosudarstva Rossiyskogo. V 12-ti tomax. SPb., 1851-1853.
11. Klyashtorniy S. G. Drevnetyurkskie runicheskie pamyatniki kak istochnik po istorii Sredney Azii. M., 1964
12. «Materiali po istorii kirgizov i Kirgizii». Vip. 1, M., 1973
13. «Materiali po istorii turkmen i Turkmenii». Vip. 1, M-L., 1939
14. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. T., 1960
15. Proekt ober-seretarya I.Kirilova ob uderjaniy v russkix poddanstve kirgiz i sposobax upravleniya imi. Orenburg. 1900.
16. Tizengauzen V.G. Sbornik materialov, odnosyayuxsya k istorii Zolotoy Ordi. T.1.
17. Utemish-xadji. Chingizname. Alma-Ata. 1992.

## MUNDARIJA

**Kirish** \_\_\_\_\_

**1-mavzu. Markaziy Osiyoda nomad madaniyati genezisi va taraqqiyoti fanining maqsad va vazifalari** \_\_\_\_\_

**3-mavzu: Turk hoqonligi davrida Markaziy Osiyo va nomad madaniyati** \_\_\_\_\_

**4-mavzu. Markaziy Osiyoda ko'chmanchilar orasida islomning tarqalishi**

**5-mavzu. Markaziy Osiyo va Xorazmshohlar davlati. Nomad madaniyati.** \_\_\_\_\_

**6-mavzu. Markaziy Osiyoda Mo'g'ul istilosi va nomadizm** \_\_\_\_\_

**7-mavzu. Markaziy Osiyoda Temuriylar davri va nomad madaniyati** \_\_\_\_\_

**8-mavzu. Markaziy Osiyoda rus istilosi va nomad madaniyati.** \_\_\_\_\_

**9-mavzu. So'nggi o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda nomad madaniyati** \_\_\_\_\_

**GLOSSARIY** \_\_\_\_\_

**MUSTAQIL ISH MAVZULARI** \_\_\_\_\_

**Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati** \_\_\_\_\_

## ALIMOVA RAHIMA RUSKULOVNA

Toshkent viloyati, Quyi-Chirchiq tumani, Dmitrov kolxozida 1956 yil 2 yanvarda tugʻilgan.

1963-1973 yillarda shu manzildagi 73-sonli oʻrta maktabda aʻlo baholarga oʻqigan.

1973-1979 yillarda Toshkent davlat universitetining tarix fakultetida oʻqigan.

1973-1981 yillarda Markaziy davlat arxivida faoliyat koʻrsatgan.

1989 yilda “Buxoro xonligining qoʻshni mamlakatlar bilan iqtisodiy-savdo aloqalari tarixshunosligi (Inqilobgacha boʻlgan davr mobaynida)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1991yildan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti tarix fakulteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrasida katta oʻqituvchi, dots.v.b.lavozimlarida ishlay boshlagan.

1984-2000 yillarda tarix fakulteti dekani, 2000-2001 yillarda “Sharq filologiyasi va tarix” fakultetida tarix fakulteti boʻyicha dekan muovini boʻlib ishlagan.

2001-2005 yillarda ToshDShI qoshidagi tarix va sharq tillari litseyida direktor lavozimida ishlagan.

2007-2008 yillarda sirtqi boʻlim dekani, 2008 yildan “Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” hamda “Siyosatshunoslik”(hozirda “Jahon siyosati va tarix”) fakultetlari magistraturasi boʻyicha dekan muovini boʻlib ishlamoqda.